INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

BABUR'S HERITAGE

THE INTEGRATION OF HISTORY, LITERATURE, GEOGRAPHY, AND POLITICAL THOUGHT

February 14, 2026



M.V. Lomonosov Moscow State University (Russian Federation)
Tomsk State University (Russian Federation)
L.N. Gumilyov Eurasian National University (Republic of Kazakhstan)
M. Kozybayev, North Kazakhstan University (Republic of Kazakhstan)
Osh State University (Kyrgyz Republic)
Ankara University (Türkiye)
Academic Research Publisher (United Kingdom)
UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

****

MATERIALS

The international scientific-practical conference

«BABUR'S HERITAGE: THE INTEGRATION OF HISTORY, LITERATURE, GEOGRAPHY AND POLITICAL THOUGHT»

London, Moscow, Astana, Petropavlovsk, Tashkent, Osh, Tomsk, Ankara
February 14, 2026

****

Babur's heritage: the integration of History, literature, geography and political thought //Materials International Scientific-Practical Conference. London, Moscow, Astana, Petropavlovsk, Tashkent, Osh, Tomsk, Ankara. February 14, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey).

This event aims to examine Babur's heritage through the integration of history, literature, geography, and political thought, to facilitate the exchange of new scientific ideas, and to support research aligned with global scientific and cultural development.

Within the framework of the conference, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings on various aspects of Babur's legacy, exchange academic ideas, and expand international scientific and cultural cooperation.

The main objective of this International Scientific and Practical Conference is to consolidate contemporary research results related to Zahiriddin Muhammad Babur and his era, and to strengthen the integration of history, literary studies, geography, and political thought through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher **„Academic Research Publisher"** (London, United Kingdom) and recommended for publication (February 13, 2026, Protocol No. 3).

CONTENTS

THE BABUR ERA AND THE MUGHAL DYNASTY: HISTORICAL PROCESSES, DYNASTIC POLITICS, AND STATE STRUCTURE 6
BOBUR SALTANATIDA AYOLLARNING ROLI 7
DUNYO TAMADDUNIGA ULKAN HISSA QO‘SHGAN HUKMDOR 11
BOBUR DAVRI VA BOBURIYLAR SALTANATI: TARIXIY JARAYONLAR, SULOLA SIYOSATI VA DAVLAT TUZILISHI 17
BOBURIYLAR DAVRI MALIKALARINING ILM-FAN VA MA’RIFAT RIVOJIDAGI O‘RNI 20
«BABURNAMA» AND BABUR’S LITERARY HERITAGE: REFLECTION OF HISTORICAL EVENTS, SOCIAL LIFE, AND CULTURAL ENVIRONMENT 26
BOBUR SHAXSIDAGI INSONIY FAZILATLARNING BADIIY TALQINI 27
«BOBURNOMA» VA BOBUR ADABIY MEROSI: TARIXIY VOQEALAR, IJTIMOIY HAYOT VA MADANIY MUHIT AKS ETISHI 33
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING «BOBURNOMA» ASARIDAGI IJTIMOIY-AXLOQIY QARASHLARI 40
BOBUR SHAXSIDA ILM, SIYOSAT VA ADABIYOTNING FALSAFIY UYG‘UNLIGI 47
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MA’NAVIY-MA’RIFIY QARASHLARI 51
«BOBURNOMA» VA BOBUR ADABIY MEROSI: TARIXIY VOQEALAR, IJTIMOIY HAYOT VA MADANIY MUHIT AKS ETISHI 55
ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODINING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI 61
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATI VA IJODINING XALQARO MIQYOSDA O’RGANILISHI VA UNING AHAMIYATI 67
TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY NIGOH MASALASIDA BOBUR VA SHAYBONIYXON OBRAZLARI 74
«BOBURNOMA»DA HUNARMANDCHILIKKA OID MA’LUMOTLAR 80
«BOBURNOMA»DA TARIXIY XOTIRA VA VOQELIK MUNOSABATI 86
LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF PERSONAL NARRATION AND AUTHORIAL POSITION IN «BABURNOMA» 93
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA VATAN MADHI 102
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ZAMON YOSHLARI BILAN BIRGA 107
BOBUR HAYOTI VA IJODI – AVLODLAR UCHUN NAMUNA 114
«BOBURNOMA» TARIXIY MANBA SIFATIDA 120

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: ILMIY VA MA'NAVIY MEROSI, TARIXIY-MADANIY AHAMIYATI VA MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TADQIQOTLAR 125

«BOBURNOMA» VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ADABIY MEROSI: TARIXIY, IJTIMOIY VA MADANIY TAHLIL 130

BOBUR IJODINING NAZMIY MARVARIDLARI 140

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING «BOBURNOMA» ASARINING MADANIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI 147

«BOBURNOMA» — TARIXIY VA ILMIY MANBA SIFATIDA 152

ОПИСАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БАБУРНАМЕ» ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА 157

SPACE AND REGIONS IN BABUR'S LEGACY: DESCRIPTIONS OF LANDS, ROUTES, CITIES, AND TERRITORIAL PERCEPTIONS 164

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING GEOGRAFIK QARASHLARI VA TARIXIY GEOGRAFIYA RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI 165

AFG'ONISTON MADANIY MEROSI VA TARIXIY GEOGRAFIYASIDA «BOG'I BOBUR»NING TUTGAN O'RNI 171

BABUR'S POLITICAL THOUGHT: GOVERNANCE, DIPLOMACY, MILITARY STRATEGY, AND LEGAL PRINCIPLES 178

STRATEGY FOR WARFARE DURING THE BABURI ERA: CENTRALIZATION AND REGIONAL POLICY 179

THE BABUR ERA AND THE MUGHAL DYNASTY: HISTORICAL PROCESSES, DYNASTIC POLITICS, AND STATE STRUCTURE

BOBUR SALTANATIDA AYOLLARNING ROLI

Ismoilova Surmaxon
Komiljonova Xusnida
"University of economics and pedagogy" NOTM

Bobur - dilbar shaxs. . . Uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo'lgan.

Javoharla'n Neru.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Boburiylar saltanatida ayollarning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Gulbadanbegim, Mahim Begim, Hamida Bonu Begim hamda Nurjahon kabi tarixiy shaxslarning davlat boshqaruvi, diplomatiya, xayriya va bunyodkorlik faoliyatidagi ishtiroki yoritilgan. Manbashunoslik va tarixiy-qiyosiy tahlil asosida Boburiylar davrida ayollar faqat saroy hayoti bilan cheklanib qolmaganligi, balki siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari Boburiylar tarixini gender yondashuvi asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Boburiylar saltanati, saroy ayollari, Gulbadanbegim, Nurjahon, davlat boshqaruvi, gender tarixi, diplomatiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль женщин в политической, социальной и культурной жизни государства Бабуридов. Особое внимание уделяется деятельности таких исторических личностей, как Гульбадан-бегим, Махим-бегим, Хамида Бану-бегим и Нурджахан. На основе источниковедческого и сравнительно-исторического анализа*

выявлено, что женщины в эпоху Бабуридов не ограничивались исключительно придворной жизнью, а активно участвовали в процессе государственного управления, дипломатических отношениях и благотворительной деятельности. Результаты исследования подтверждают необходимость переосмысления истории Бабуридов с позиции гендерного подхода.

Ключевые слова: *государство Бабуридов, придворные женщины, Гульбадан-бегим, Нурджахан, государственное управление, гендерная история, дипломатия.*

Abstract. *This article examines the role of women in the political, social, and cultural life of the Mughal (Baburid) Empire. Special attention is given to prominent historical figures such as Gulbadan Begum, Mahim Begum, Hamida Banu Begum, and Nur Jahan, highlighting their involvement in governance, diplomacy, philanthropy, and cultural patronage. Based on source analysis and comparative historical methods, the study demonstrates that women in the Mughal court were not confined solely to domestic roles but significantly influenced political decision-making processes. The findings emphasize the importance of re-evaluating Mughal history through a gender-oriented perspective.*

Keywords: *Mughal Empire, court women, Gulbadan Begum, Nur Jahan, governance, gender history, diplomacy.*

Bobur biz bilganimizdek buyuk Temuriyzodagina emas, balki nozik didli mumtoz shoir hamdir. Dunyoda Boburga o‘xshash shoh va saltanat sohiblari ko‘p bo‘lgan. Lekin ular orasida Boburga o‘xshaydiganlari, ular orasida didi, saviya, zavq va iste'dodi ila Boburga tenglashadiganlarini topish qiyin.

She'riyat-boshqa olam, siyosat-boshqa olam. Shoirlik boshqa bir hunar, shohlik-mutlaqo boshqa bir faoliyat. Saltanat yo‘li-aql, tadbir, huquq, qonun, hukmronlik yo‘li. She'riyat yo‘li-ruh, ko‘ngil, nafosat va go‘zallik yo‘li. Siyosatchining tili-aql va mantiq tili, shoirning tili-ko‘ngil va tuyg‘u, nafosat va go‘zallik tilidir.

Bobur bir qo‘lida qilich, bir qo‘lida qalam ushlab yovuzlik, razolat, tubanlik, hiyonat va jaholatga qarshi borgan alp bir kurashchidir. Boburning shohligi na iste'dodi, na ijodiy qiyofasiga soya tashlay olmadi. Aksincha, hukmdorligini ilmiy-ijodiy, fikriy-ma'rifiy fazilatlar boyitadi. Bobur podshohlik bilan shoirlik rost kelavermasligini yaxshi bilgan. Bobur o‘z memuarida zohiriy safar, sarguzasht va kurashlarini bayon etgan. She'rlarida esa u ko‘ngil va ruh sayohatiga daxldor ma'no hamda tuyg‘ularni tasvirlvab bergan.

Bobur qalbida armonlarga qorishiq Vatan yashagan. Shu bois uning qayg‘usida kishi o‘z qayg‘usini, uning qalbida o‘z qalbini ko‘radi. Boburni o‘qigan sayin Vatan-O‘zbekiston mehri yuragini isitadi. Oddiy bir giyoh haqida yozganida ham Vatan siyrati va surati aks etadi.

Temuriylar orasida Bobur ayol zotiga yuksak insoniy munosabati bilan alohida ajralib turadi. Xotinlari, farzandlariga munosabatini boshqa sultonlar munosabati bilan qiyoslaganda ham uning ayollarga ehtiromi, ularning izzat-ikromini joyiga qo‘ygan. Bobur tomonidan zo‘rlik, garovda tutish evaziga birovning ayoli yoki qizini nikohga kiritish holati bo‘lmagan. Bu uning boshqa hukmdorlardan fardli tomonidir.

Tarixdan bizga ma'lumki, temuriylar xonadonida o‘z sultonlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, sulh tuzish yoki aksincha urush-nizolarni boshlash, sultonzodalarni taxtga tayinlash yoki mahrum etish kabi masalalariga saroy ayollari bosh bo‘lgan.

Bobur otasining vafotidan keyin taxtga o‘tirgan, O‘sh, Samarqand, Hisor, Konibodom yurtlarini birlashtirish, Amir Temursaltanatini kelajakda yana tiklash orzusida yurgan davrda Boburdan yoshi katta ayrim temuriyzodalar Boburni taxtdan olib, Jahongir mirzoni tayinlash rejasini tuzadilar. Oradan olti oy o‘tgandan so‘ng, Bobur otamning begi deb ehtirom ko‘rsatgan Hasan Ya'qub ukasi Jahongir mirzoni taxtga o‘tqazishga bosh bo‘ladi. Bunday fitnadan xabar topgan katta yoshli Eson Davlatbegim Bobur tarafida turib bu mojoroning oldini oladi va saroydagi katta noxush ko‘ngilsizlikka chek qo‘yiladi.

Bobur otadan yosh qolar ekan, atrofidagi bek va a'yonlar ko‘p xufyona harakatlar, xiyonatlarni unga ravo ko‘radilar. Bu vaqtda uning maslahatdoshi va

oqilona yo‘l ko‘rsatuvchisi uning onasi Qutlug‘ Nigorxonim va uning onasi Esan Davlatbegim bo‘lgan.

Bobur navbatdagi janglardan charchab Andijonga qaytadi va qishni shu yerda o‘tkazishni rejalashtiradi. Bunda tashvishlangan katta onasi-otasi Umar Shayxning onasi Shoh Sultonbegim Andijonga yetib keladi. Lashkarlari charchagan, qishlik oziq-ovqati ham kam, qishdan eson-omon chiqish imkonini bermasdi. Shoh Sultonbegim vaqtida yetib kelib, Boburni boshqa joyga ko‘chirishga ko‘ndiradi. Chunki bu Boburning dushmanlariga juda qo‘l kelishidan, bunday vaziyatdan ular foydalanib qolishiga ko‘zi yetadi. Bu yerda ham ayollar qancha sir-asrorlarni bilishlari, bu masalaga faol qatnashganligini ko‘rsatadi. Keyinroq boshqa joyda qishni yaxshi o‘tkazgan Bobur katta onasi Shoh Sultonbegim va onasining aql-idrokiga tan beradi.

Bobur tarixiy voqealarni bayon etar ekan, ayollarni ham bu jarayonlarning muhim ishtirokchilari sifatida tilga oladi. Ularning sabr-toqati, fidoyiligi, oqilonaligi haqida iliq fikrlar bildiradi. Ayniqsa, Xonzoda Begim obrazida o‘z zamonasining ziyoli, irodali va siyosiy jihatdan faol ayol timsoli gavdalanadi. Shu tarzda, Bobur ayollarni jamiyat hayotining muhim bo‘g‘ini deb biladi.

Bobur ayollarning tashqi go‘zalligini madh etish bilan birga, ularning ruhiy nozikligi, sabr-toqati, muhabbati va sadoqatini ham yuqori baholaydi. “Boburnoma”dagi ayollar obrazlari orasida oddiy xalq vakilasi bo‘lgan ayollar ham uchraydi. Ularning og‘ir hayot kechirishlari, urush va ko‘chishlardagi mashaqqatlarga bardosh berishlari tasvirlangan sahifalarda aks ettiriladi. Bobur bu ayollarga nisbatan ham mehr bilan yondashadi, ularni shafqatli, bardoshli va sabrli insonlar sifatida tilga oladi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Bobur o‘z asarida ayollarni faqat hissiy, romantik qahramonlar sifatida emas, balki tarixiy, ijtimoiy va ruhiy jihatdan yuksak shaxslar darajasida tasvirlaydi. Ularning har biri o‘ziga xos fe’l-atvorga, hayotiy pozitsiyaga va jamiyatdagi rolga ega. Bobur ayollar siymosi orqali o‘z davrining ma’naviy qiyofasini, oilaviy qadriyatlarini va insoniy munosabatlarini badiiy ifodalaydi. Bu esa “Boburnoma”ni nafaqat tarixiy manba,

balki ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega adabiy asar sifatida qadrlashga asos bo‘ladi.

“Boburnoma”da Husayn Boyqaroning Hadichabegimdan keyingi xotini Opoqbegim haqida yozar ekan, Opoqbegim orqali mehnatkash, o‘z sultoniga sadoqatli, mushtipar, ovozi chiqmaydigan ayolning siniq taqdiri haqida hikoya qiladi . Bu orqali Bobur o‘z davrining zahmatkash, oqila, mehribon ayoli obrazini, Husayn Boyqaro qardlamaganini, aksincha Xadichabegim hukmining asiri bo‘lganligini, o‘zining insoniyligi va shafqatiga javoban qadr topmagan ayolni gavdalantirgan.

Husayn Boyqaro unga befarq bo‘lishiga qaramasdan, Opoqbegim shariatli xotin sifatida burchini ado etib, astoydil uning xizmatida bo‘lgan. Opoqbegim Husayn Boyqaro huzurida sodiq, pokiza va burchini ado qiluvchi xotin sifatida tasvirlangan. Bobur uning fazilatlarini doimiy e’tirof etib, unga hurmat bilan munosabat bildirgan.Shuning uchun Bobur bu pokiza ayolga umrining oxrigacha unga panoh bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Bobur Zahiriddin Muhammad** *Boburnoma*. — Toshkent: Sharq, 2002. — 464 b.
2. **Ismatullayeva Z.** *Boburnomada ayollar obrazining badiiy talqini*. — Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2021.
3. **Nuriddinov B.** «Boburnoma va ayol timsollari: tarix va badiiyat uyg‘unligi» // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2022. — 3(101). — B. 64–70.
4. **G‘ofurova M.** «Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ma’naviyat va ayol timsoli» // Milliy meros. — 2020. — 2(15). — B. 44–49.

DUNYO TAMADDUNIGA ULKAN HISSA QO‘SHGAN HUKMDOR

Usmonov Husan Toshtemirovich
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola ulug‘ shoir, faylasuf va olim Zahiriddin Muhammad Bobur haqida. Maqolada sarkarda va davlat arbobi, Amir Temurning munosib vorisi Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘li, asarlari, yevropaliklarning Zahiriddin Muhammad Bobur haqida e’tiroflari hamda Boburning insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surgani haqida ma’lumot beradi. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida muhim o‘rin tutgan davlat arbobi, sarkarda va adib va uning “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Xatti Boburiy”, asarlariga ham qisqacha to‘xtalib o‘tish orqali siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlar haqida qimmatli tarixiy-ma’rifiy ma’lumotlar berildi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Mubayyin”, “Xatti Boburiy”, “Boburnoma”, Sandro Teti, Franko Kardini, J.B.Malleson.*

Аннотация: *Данная статья посвящена великому поэту, мыслителю и ученому Zahiriddin Muhammad Bobur. В статье освещаются жизненный путь выдающегося полководца и государственного деятеля, достойного наследника Amir Temur, а также признание личности Бабура европейскими исследователями и его гуманистические идеи. Особое внимание уделяется его роли в истории Центральной Азии и Индии как государственного деятеля, полководца и писателя. Также кратко рассматриваются его произведения — Boburnoma, Mubayyin и Xatti Boburiy, которые содержат ценные историко-просветительские сведения о политических, социальных и культурных процессах своего времени.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, Мубайййин, Хатти Бобурий, Бабур-наме, Сандро Тети, Франко Кардини, Дж. Б. Маллесон.*

Abstract: This article is devoted to the great poet, thinker, and scholar Zahiriddin Muhammad Bobur. It examines the life and legacy of the outstanding

military commander and statesman, the worthy successor of Amir Temur, as well as the recognition of Babur by European scholars and his promotion of humanistic ideas. Special attention is given to his significant role in the history of Central Asia and India as a statesman, commander, and writer. The article also briefly discusses his major works — Boburnoma, Mubayyin, and Xatti Boburiy — which provide valuable historical and educational insights into the political, social, and cultural processes of his time.

Keywords: *Zahiruddin Muhammad Babur, Mubayyin, Khatt-i Baburi, Baburnama, Sandro Teti, Franco Cardini, J. B. Malleson.*

Biz bugun o‘z ota-bobolarimizning bizga qoldirgan ulkan meroslarini o‘rganamiz va ulardan ma’naviy oziqa olamiz. Dunyo tammadduniga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizdan biri shuhhasiz Zahiriddin Muhammad Boburdir. O‘n oltinchi asrning birinchi yarmida Hindistonda buyuk imperiyaga asos solgan Zahiriddin Muhammad Bobur dunyo tarixida insonparvarligi bilan nom qozongan shaxslardan biri. Ulug‘ shoir, faylasuf va olim Zahiriddin Muhammad Bobur sarkarda va davlat arbobi, buyuk bobosi Amir Temurning munosib vorisidir. Bobur o‘zbek adabiyoti rivoji va dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan benazir shoir va mutafakkir sanaladi. Turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri, o‘zining ijobiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o‘chmas nom qoldirgan buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning munosib vorislaridan bo‘ldi. Uning avlodlari esa ko‘p yillar davomida dunyo siyosatiga katta ta’sir ko‘rsata oldilar. Shu tariqa Bobur ulkan sulola asoschisi sifatida tarixda qoldi. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon (1483 y. 14 fevral)da tug‘ilgan. Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg‘ona hukmdori Umarshayxning farzandi. Bobur 12 yoshda (1494) taxtga chiqdi. 1503-1504-yillarda Afg‘onistonni egalladi. 1519-1525-yillarda Hindistonga 5 marta yurish qiladi. Boburiylarning Hindistondagi hukmronligi uch asrdan ortiq davom etgan (1526-1858 y.y.). Zahiriddin Muhammad Bobur 26-dekabr 1530-yil Agra, Hindistonda vafot etgan. Qabri keyinchalik vasiyatiga ko‘ra Qobulga ko‘chirilgan. 1521-yil Hindistonga yurishlari davrida

Bobur “Mubayyin” asarini yaratdi. Masnaviy tarzida yozilgan, islom huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag‘ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar ham jamlangan. “Xatti Boburiy” deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tillar, xususan o‘zbek tili nuqtai nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U tajriba sifatida “Xatti Boburiy” alifbosida Kur’oni Karimni ko‘chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag‘ishlangan. “Mufassal” nomli asari ham bo‘lganligi ma’lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan[1]. Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). „Boburiya“, „Voqeoti Bobur“, „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“, „Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“ kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa „Vaqoye“ va „Tarix“ degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘likdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 5-fevral kuni Pokistonga davlat tashrifi doirasidagi tadbirlarning navbatdagisi Islomoboddagi ko‘chalardan biriga Toshkent va yangidan barpo etiladigan bog‘ga Zahiriddin Muhammad Bobur nomini berish marosimi bo‘ldi. Bosh vazir Shahboz Sharif ushbu qaror ikki mamlakat o‘rtasidagi yaqin tarixiy va madaniy aloqalarni aks ettirishi hamda O‘zbekiston – Pokiston ko‘p qirrali sheriklik munosabatlarining strategik darajasini yana bir bor tasdiqlashini ta’kidladi. Toshkent ko‘chasi va buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan ataladigan yangi bog‘ xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va mehr-oqibat rishtalarini yanada mustahkamlashga bo‘lgan o‘zaro intilish qat’iy ekanining yaqqol ramziga aylanishi alohida ta’kidlandi[2]. Italiyaning tarixiy ilmiy-ommabop adabiyotlarga ixtisoslashgan

[1] https://telegra.ph/Zahiriddin-Muhammad-Bobur-14831530-02-14-2
[2] https://president.uz/oz/lists/view/8912

yetakchi nashriyotlaridan biri “Sandro Teti Editori” nashriyot uyi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini ilk bor italyan tilida ommaviy tirajda chop etdi. Asarni italyan tilida nashr etish jarayonlariga mazkur nashriyot rahbari Sandro Teti boshchiligidagi malakali tarjimonlar, muharrirlar va dizaynerlarning katta guruhi jalb etilgan. Atoqli italyan olimi va adibi Franko Kardini tomonidan yozilgan kirish so‘zida Bobur “So‘z san’atiga mehr qo‘ygan buyuk hukmdor yoxud saltanatni sevgan buyuk adib”, deb ta’riflanadi. Tarjimon Federiko Pastore kitobga yozgan sharhida “Boburnoma” “o‘z davrining kundalik hayotini qayta tiklashga imkon beradigan, islom tamadduniga xos avtobiografik asarning ilk rostgo‘y namunasi” ekaniga alohida urg‘u beradi[3].

“Men u (Zahiriddin Muhammad Bobur)ni qudratli hukmdor, mohir sarkor (tashkilotchi) sifatida, shuningdek, biz inglizlar ko‘p jihatlarini o‘zlashtirib olganimiz mukammal davlat tizimining asoschisi sifatida, Hindistonda besh yuz yildan buyon davom etib kelayotgan parokandalik va boshboshdoqlikka barham berib, o‘zaro g‘animlik munosabatida bo‘lgan qavmlar va ularning xon va sultonlarining boshini bir joyga qovushtirib murosaga keltirgan, ularning mojarolarini hal etishda xolisona siyosat yurgizgan odil hakam sifatida tasavvur qilaman. Men uni g‘amxo‘r oila boshlig‘i sifatida, mehribon ota sifatida, raiyat orasiga qutqu soladigan diniy e'tiqodlar ziddiyatiga qaramasdan o‘z aql-farosati bilan ish ko‘radigan, o‘z fikri va qarashlarida muqim turadigan tadbirkor inson sifatida ko‘z oldimda gavdalantirish niyatida bo‘ldim”, deb ta’rif bergan J.B.Malleson.

Bobur qisqa vaqt ichida Hindistonda siyosiy muhitini barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini obodonlashtirib, birlashtirish, savdo-sotiq ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bog‘-rog‘lar yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Madaniy yodgorliklar qurish, karvonsaroylar barpo qilish, kutubxonalar qurish Bobur va uning o‘g‘illari davrida keng miqyosda yoyildi. Hindiston me`morchiligiga Markaziy Osiyo uslubi kirib kela boshladi. Bobur va uning hukmron avlodlari huzurida o‘sha davrning ilg‘or va

[3] https://jadid.uz/elektron-gazeta/

zehni o‘tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslarini mujassam etgan mukammal bir ma’naviy-ruhiy muhit vujudga keldi[4].

Zahiriddin Muhammad Boburning g‘azal, masnaviy, ruboiylarida yor diyori, vatan mavzui katta o‘rin tutadi. Bobur ona yurtidan uzoq bo‘lsa ham o‘zi tug‘ilib o‘sgan el-yurtlariga, vataniga bo‘lgan muhabbat, unga yetishish orzusi doimo uning qalbidan istirob tuyg‘ularini o‘chirmaydi. Bobur o‘zga yurtlarga borib, u yerlarda bog‘lar yaratdi, katta obodonchilik ishlari olib borishiga qaramasdan yurt sog‘inchi, vatanga bo‘lgan muhabbat bir zum ham uni tark etmagan. Buning yorqin dalilini quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin:

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi[5].

Boburning ulkan san’atkorligi shundaki, shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oladi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. O‘tmish adabiyot va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olimu fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

ADABIYOTLAR

[4] https://telegra.ph/Bugun-buyuk-sho%D2%B3-va-shoir-Za%D2%B3iriddin-Mu%D2%B3ammad-Bobur-tavallud-topgan-kun-02-14
[5] Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. “Sharq” nashriyoti. Toshkent., 1996. 10-bet.

1. *Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari*. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 1996. — 208 b.
2. telegra.ph // Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) [Elektron resurs]. — URL: https://telegra.ph/Zahiriddin-Muhammad-Bobur-14831530-02-14-2
3. president.uz // Rasmiy sayt materiallari [Elektron resurs]. — URL: https://president.uz/oz/lists/view/8912
4. jadid.uz // Elektron gazeta [Elektron resurs]. — URL: https://jadid.uz/elektron-gazeta/
5. telegra.ph // Bugun buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur [Elektron resurs]. — URL: https://telegra.ph/Bugun-buyuk-sho%D2%B3-va-shoir-Za%D2%B3iriddin-Mu%D2%B3ammad-Bobur
6. tafakkur.net // Zahiriddin Muhammad Bobur [Elektron resurs]. — URL: https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur

BOBUR DAVRI VA BOBURIYLAR SALTANATI: TARIXIY JARAYONLAR, SULOLA SIYOSATI VA DAVLAT TUZILISHI

Yusufzoda A.A.

TDIU

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy tezis XV–XVI asrlarda Markaziy va Janubiy Osiyoda yuz bergan muhim tarixiy jarayonlar, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati hamda u asos solgan Boburiylar saltanatining shakllanishi, siyosiy*

taraqqiyoti va davlat boshqaruv tizimini kompleks tarzda tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Boburning harbiy yurishlari, diplomatik faoliyati, sulolaviy siyosat tamoyillari hamda davlat tuzilishining asosiy xususiyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Boburiylar saltanatining Hindiston tarixidagi o‘rni va uning uzoq muddatli ijtimoiy-siyosiy ta’siri baholanadi.

Kalit so‘zlar: *Bobur, Boburiylar, sulola siyosati, davlat boshqaruvi, Temuriylar merosi, Hindiston, markazlashgan davlat, jagir tizimi.*

Аннотация. *Данный научный тезис посвящён комплексному анализу важных исторических процессов, происходивших в Центральной и Южной Азии в XV–XVI веках, в частности деятельности Захириддина Мухаммада Бабура, а также формирования, политического развития и системы государственного управления основанной им империи Бабуридов. В исследовании на научной основе освещаются военные походы Бабура, его дипломатическая деятельность, принципы династической политики и основные особенности государственного устройства. Также оценивается место империи Бабуридов в истории Индии и её долгосрочное социально-политическое влияние.*

Ключевые слова: *Бабур, Бабуриды, династическая политика, государственное управление, наследие Тимуридов, Индия, централизованное государство, система джагиров.*

Abstract. *This research thesis is devoted to a comprehensive analysis of important historical processes that took place in Central and South Asia in the 15th–16th centuries, particularly the activities of Zahiriddin Muhammad Babur and the formation, political development, and state administration system of the Mughal Empire founded by him. The study scientifically examines Babur’s military campaigns, diplomatic activity, principles of dynastic policy, and the main features of state structure. It also evaluates the role of the Mughal Empire in the history of India and its long-term socio-political impact.*

Keywords: *Babur, Mughals, dynastic policy, state administration, Timurid legacy, India, centralized state, jagir system.*

Kirish

XV–XVI asrlar chorrahasida Temuriylar davlatining inqirozi natijasida Markaziy Osiyoda siyosiy parokandalik kuchaydi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda Zahiriddin Muhammad Bobur siyosiy maydonga chiqdi. U dastlab Movarounnahr uchun kurash olib borgan bo‘lsa-da, keyinchalik Afg‘oniston va Hindiston hududlarida o‘z hukmronligini mustahkamladi. 1526-yilda Panipat jangida qozonilgan g‘alaba Boburiylar sulolasi hukmronligining boshlanishiga asos bo‘ldi.

Asosiy qism

1. Bobur davri va tarixiy jarayonlar

Bobur faoliyati murakkab siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘zining harbiy iste’dodi va siyosiy moslashuvchanligi orqali yangi davlat barpo etdi. Boburning 'Boburnoma' asari nafaqat adabiy, balki muhim tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega.

2. Sulola siyosati va vorislik

Boburiylar sulolasida hokimiyat vorislik asosida avloddan-avlodga o‘tgan. Biroq taxt uchun kurashlar siyosiy hayotning ajralmas qismi bo‘lgan. Shunga qaramay, markazlashgan boshqaruv tizimi va harbiy zodagonlarga tayanish davlat barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

3. Davlat tuzilishi va boshqaruv tizimi

Boburiylar saltanatida harbiy-ma’muriy boshqaruv tizimi ustuvor bo‘lgan. Yer-soliq munosabatlari (jagir tizimi), markaziy moliya idoralari hamda hududiy boshqaruv organlari orqali davlatning iqtisodiy va siyosiy faoliyati muvofiqlashtirilgan. Diniy va etnik bag‘rikenglik siyosati esa saltanatning uzoq muddat saqlanib qolishida muhim omil bo‘lgan.

Xulosa

Bobur davri va Boburiylar saltanati Sharq davlatchiligi tarixida o‘ziga xos siyosiy-huquqiy tajriba sifatida namoyon bo‘ladi. Bobur tomonidan asos solingan davlat modeli Hindiston tarixiy taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan hamda ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatni boshqarishning samarali namunasi bo‘lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Bobur Z. M.** *Boburnoma*. — Toshkent: Fan, 1990.
2. **Azamat Ziyo** *Bobur va boburiylar davlati*. — Toshkent: Sharq, 2005.
3. **Richards J. F.** *The Mughal Empire*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1993.
4. **Эрскин У.** *История Бабура и его потомков*. — Москва: Наука, 1981.
5. **Habib I.** *The Agrarian System of Mughal India (1556–1707)*. — Oxford: Oxford University Press, 2002.

BOBURIYLAR DAVRI MALIKALARINING ILM-FAN VA MA’RIFAT RIVOJIDAGI O‘RNI

Ziyoyeva Maxfuza Soataliyevna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Boburiylar sulolasi davrida yashab ijod qilgan malikalarning ilm-fan, adabiyot va ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil etiladi. Xususan, Gulbadanbegim, Jahonora begim va Zebunniso begimlarning ilmiy, adabiy hamda madaniy faoliyati tarixiy manbalar asosida yoritiladi.*

Maqolada Boburiy ayollarning ilm-fan homiyligi va ta'lim taraqqiyotidagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *Boburiylar malikalar, ilm-fan, ma'rifat, homiylik, ta'lim tizimi, tarixnavislik, so'fizm, ayollarning ijtimoiy mavqei.*

Abstract. *This article analyzes the contributions of the princesses of the Baburid dynasty to the development of science, literature, and enlightenment. Specifically, the scientific, literary, and cultural activities of figures such as Gulbadan Begim, Jahanara Begim, and Zebunnisa are highlighted based on primary historical sources. The article explores the role of Baburid women in the patronage of scholarship and their influence on the advancement of education.*

Keywords: *Baburid princesses, science, enlightenment, patronage, education system, historiography, Sufism, social status of women.*

Аннотация. *В данной статье анализируется вклад принцесс династии Бабуридов в развитие науки, литературы и просвещения. В частности, на основе исторических источников освещается научная, литературная и культурная деятельность таких выдающихся личностей, как Гульбадан-бегим, Джахонара-бегим и Зебуннисо-бегим. В статье раскрывается роль женщин из рода Бабуридов в покровительстве науке и прогрессе образования.*

Ключевые слова: *принцессы Бабуридов, наука, просвещение, меценатство, система образования, историография, суфизм, социальный статус женщин.*

Kirish. Boburiylar sulolasi hukmronligi siyosiy, madaniy va ilmiy jarayonlar bilan ajralib turuvchi davr sifatida tarixshunoslikda alohida o'ringa ega. Ushbu sulola tomonidan barpo etilgan davlat tizimi va ijtimoiy muhit ilmiy-ma'rifiy faoliyatning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratdi. Natijada ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik va ta'lim sohalarida sezilarli taraqqiyot yuz berdi. Boburiylar sulolasi davridagi ilmiy-ma'rifiy muhit imperiya hududlarida bilim va tafakkur yuksalishiga xizmat qilgan bo'lib, davrning sivilizatsion rivojida muhim bosqichni tashkil etdi. Shu bilan birga, ushbu davr ilmiy tadqiqotlar, madaniy homiylik va ta'lim tizimi orqali keyingi avlodlar uchun mustahkam intellektual poydevor yaratdi.

Asosiy qism. Hind tarixchilari boburiylarning Hindistonda ilm-fan va madaniyatni, shuningdek san'atning barcha turlarini rivojlantirishdagi hissalarini alohida ta'kidlaydilar. Boburiylar saltanati tarixiga oid ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, ular orasida hind tarixchisi L.P.Sharmaning "Boburiylar saltanati" asari alohida ahamiyat kasb etadi [2].

Avvalo Hindistonda ilm-fan rivojidagi boburiylar xizmatini Sharma quyidagicha bayon etadi: "Boburiylar hukmronligi davrida rejali va bir xil tizimdagi ta'lim o'choqlari tuzilgan bo'lib, yoshlarni o'qitish ishlari, asosan, yakka tartibda yoki madrasalarda olib borilardi. Mudarrislar va madrasalarga shahar sadrining tavsiyasiga ko'ra davlat tomonidan moddiy yordam va mukofotlar berilardi. Musulmon bolalari maktab va madrasalarda, hind bolalari esa "patshala" (maktab) va "vidyapist" (kollej)larda o'qir edi. Boburiylar shohlar o'zlari yaxshi savodli bo'lganliklari uchun maorif va madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor berar edilar. Ularning hammasi olimu ulamolar fozulu kiromlarni avaylab, ularga ko'p g'amxo'rlik ko'rsatardilar. Shuning uchun ham saltanatda olimlarga muhtojlik sezilmagan. Va ilmiy asarlar ham o'sha davrda ko'plab yaratilgan. Qolaversa, ilmiy, badiiy asarlar bir necha tillarda yaratilardi" [4.151].

Markaziy Osiyoda ikkinchi Renessansiga asos solgan, Samarqand va Hirotda ilmiy tadqiqot markazlari – akademiyalar tashkil etib ularni boshqargan temuriylardan bo'lmish boburiy podshohlar Hindiston zaminida o'z faoliyatlarini ilm-fan va madaniy taraqqiyotga homiylik qilishdan boshladilar. Buni hind tarixchisi quyidagicha bayon etadi: "Boburiy shohlarning birinchisi bo'lmish Boburning o'zi yirik olim edi. U Dehlida madrasa qurdirib, bu ilm dargohida geografiya, matematika, va astronomiya hamda diniy fanlar o'qitilishi ta'minlandi. Uning o'g'li Xumoyun ham Dehlida madrasa tikladi. Bu paytlarda diniy ilmlar, islom nazariyasi o'qitilishiga ko'proq e'tibor berilardi" [4.151]. Hindistonni zabt etib nihoyatda qisqa muddatda, atiga 4 yil hukmronlik qilgan Bobur Dehlida madrasa qurdirib ham tabiiy ilmiy ham diniy bilimlar olishga imkon beradigan ta'lim maskanlarini barpo etadi. Boburning vorisi Xumoyun hukmronligi davrida

Hindistonda kechgan beqaror va tahlikali, qaltis vaziyatlarda ham ilm-fan rivojiga e'tibor susaymadi.

Boburiylar sulolasi hukmronligi davrida ilm-fan va ma'rifatga bo'lgan bunday yuksak e'tibor nafaqat hukmdorlar, balki saroy muhitida faoliyat yuritgan ayollar, xususan malikalarning ham ilmiy-ma'rifiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun qulay sharoit yaratdi. Boburiylar saroyida shakllangan ilmiy va madaniy muhit malikalarning savodxon bo'lishi, ilmiy bilimlarni egallashi hamda ma'rifat homiylari sifatida yetishib chiqishiga zamin bo'ldi.

Boburiylar sulolasida malikalarga berilgan ta'lim darajasi ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilabgina qolmay, ilm-fan rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Saroy ayollari tarix, adabiyot, tasavvuf, fiqh, falsafa, xattotlik hamda bir necha tillarni, jumladan fors, arab va turkiy tillarni mukammal o'zlashtirganlar. Bu esa ularning ilmiy va adabiy asarlar yaratish, shuningdek ilm ahliga homiylik qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ayollarning jamiyatdagi mavqei Islom so'fizmida muhim o'rin tutgan. So'fizm Payg'ambar alayhissalom vafotidan taxminan 100 yildan keyin VIII asr boshlarida vujudga keldi, rivojlana boshlandi. So'fizmida ayollar to'la ravishda teng huquqlikka erishgan, hatto ba'zi barkamol ayollar "chinakkam erkak" deb ham tasvirlanadilar. 1628-1658-yillarda hukmdorlikqilgan shoh Jahonning katta qizi Fotima Jahonoro so'fiylik so'qmog'ida shunchalar muvaffaqiyatga erishadiki, uning ustozi tariqat qonunlari yo'l qo'ygan taqdirda u malikani bemalol o'zidan keyin murshidlikka taqdim etgan bo'lardi. Onasi Mumtoz begim vafotidan keyin u mamlakatdagi "birinchi xonim" ga aylandi. Jahonoro begim "Risolayi Sohibiya" (Do'stlik haqida risola) nomli asar ham yozib qoldirgani tarixdan bizga ma'lumdir. Avrangzebning qizi Zebunniso ham so'fizm hamda she'riyatga moyil bo'lgan. Islom olamining oqila, taqvodor xonimlari o'z hisoblaridan masjid, madrasalar qurdirishib dong taratganlar [5].

Boburiylar davlatida madaniy hayotga hissa qo'shgan ayollardan yana biri Gulbadanbegimdir. Zahiriddin Muhammad Bobur vafot etgan yili 1530-yili 26-aprelda Gulbadanbegim 8 yoshda edi. Onasi Dildor begim edi. Gulbadanbegim

“Humoyunnoma” asarida onasini Dildor og‘ocha deb aytib o‘tgan, “Onam hazratlari” deb ardoqlaydi. Lekin, Gulbadanbegim yoshlik chog‘ida o‘z ukasi Hindol Mirzo bilan Boburning katta xotini Mohim bonu tarbiyasiga topshiriladi. Shu tariqa Mohim bonuning vafoti(1533)ga qadar Gulbadanbegim valiahd shahzoda Humoyun Mirzo bilan birgalikda tarbiyalanadi. Gulbadanbegim ikkala onasini ham qattiq hurmat qilgan ularga mehr muhabbati cheksiz bo‘lgan. Ikkala onasiga nisbatan hamisha o‘zining nozik hislari va sevgisi sadoqati bilan mehr ko‘rsatgan.

Gulbadanbegim avval Bobur keyinchalik Humoyun podshoh (1530-1556) Akbarshoh (1556-1603) g‘amxo‘rligida umr kechirdi. Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida faqatgina Humoyun davri emas balki otasi Bobur haqida ham ma’lumotlar qisman berilgan. Qisman berilganining sababi otasi vafot etganida malika juda yosh bo‘lgan va bor ma’lumotlarni ham “Boburnoma” kitobiga suyangan holda yozgan.

“Humoyunnoma” juda ajoyib tarzda sodda va tushunarli qilib yozilgan. O‘sha zamonning mashhur shoirlari Mirxond, Binoiy, Muhammad Solih kabilar asarga yuksak baho berishgan va aynan ayol kishi yozganligini asarning o‘zgacha uslubda nazokat bilan yozilganligi ajralib turishini aytib o‘tishgan. Asar “Boburnoma”ga o‘xshash tarzda yozilgan va asar aynan “Boburnomada”gi ma’lumotlarga asoslanib yozilgan [3].

Malika fors tilini mukammal o‘rganadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Gulbadanbegim uchun faqatgana muhtaram padari buzrugvor bo‘libgina qolmay balki uning o‘rta asr sharq tarixida chiqqan yagona tarixnavis olima ayol bo‘lib yetishib chiqishida ibrat bo‘lgan ustoz hamdir. Shuning uchun ham tarixda yagona tarixchi olima sifatida nom qoldiradi.

“Humoyunnoma” Akbarshoh buyrug‘i asosida yoziladi. Asarni 83 varoqdan iborat yagona qo‘lyozmasi Britaniya muzeyida saqlanmoqda, undagi voqealar tavsifini Charlz Ryo o‘z katalogida berib o‘tadi. 1902-yilda ingliz olimasi A.S. Beverij ingliz tiliga, 1959-yilda S.Azimjonova o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Tarixchi olim Abulfazl Allomiy aynan “Akbarnoma” asarini yaratishda

“Humoyunnoma”dan keng foydalangan. Gulbadanbegim 1603-yilda Dehlida vafot etadi [1].

Xulosa qilib aytganda Boburiy malikalar hukmronligi davrida ayollarning davlat va jamiyatdagi hamda ijtimoiy hayotdagi o‘rni yuksak darajada bo‘lgan. Albatta malikalar bunga munosib bo‘lishgan va haqiqatda mamalakat tinchligi va osoyishtaligini asrashda o‘zlarini munosib ko‘rsatishgan, katta-katta me’moriy obidalar qurishda o‘z nozik didi va aql idroki bilan ajralib turishgan. Mehr va saxovati, kamtarligi bilan xalq mehrini qozonishgan. Shu tariqa turmush o‘rtoqlari va mamlakat hukmdorlari hattoki davlat ayonlarining yuksak hurmatiga sazovor bo‘lishgan. Haqiqiy ayollarga xos xislatlar bilan hamisha ezgulikka xizmat qiluvchi ulkan ishlarga bosh-qosh bo‘lishgan. Bu faxrlanarli va o‘rnak olsa arziydigan tariximiz ayollari biz uchun iftixor tuyg‘usini shakllantirishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Azamat Ziyo**. *O‘zbek ayollari tarix sahnasida*. — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti, 2008.
2. **Azizkulov A., To‘g‘izov N.** Boburiylar saltanatida ta’lim tizimi // SamDU ilmiy axborotnomasi. — B. 164–168. — URL: https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2215
3. **Gulbadanbegim**. *Humoyunnoma*. — Ma’naviyat, 1998.
4. **Sharma L. P.** *Boburiylar saltanati*; ingliz tilidan tarj. — T.: Ma’naviyat, 1998. — 168 bet.
5. **Шиммел А.** *Жонон менинг жонимда*. — Т.: Шарқ, 1999. — Б. 11–21.

«BABURNAMA» AND BABUR'S LITERARY HERITAGE: REFLECTION OF HISTORICAL EVENTS, SOCIAL LIFE, AND CULTURAL ENVIRONMENT

BOBUR SHAXSIDAGI INSONIY FAZILATLARNING BADIIY TALQINI

Abdullayev Komiljon Abdug‘anievich
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Maqolada Bobur shaxsidagi insoniy fazilatlarning badiiy talqini “Yulduzli tunlar”, Avlodlar dovoni” (P.Qodirov), “Boburiynoma” (Xayriddin Sulton), “Boburnoma” asarlaridan olingan lavhalar asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Bobur, adabiyot, kitob, “Boburnoma”, “Havoli Qutiy”, “Yulduzli tunlar”, Humoyun, ruboiy, masnu’ she’r, mehribon ota, ma’naviy jasorat.*

Аннотация: *В статье на основе фрагментов из произведений «Юлдузли тунлар», «Авлодлар довони» (П. Кодиров), «Бобурийнома» (Хайриддин Султон), «Бобурнома» рассматривается художественная интерпретация человеческих качеств в личности Бобура.*

Ключевые слова: *Бабур, литература, книга, «Бабурнаме», «Хаволи Кутий», «Звёздные ночи», Хумаюн, рубаи, масну-стих, заботливый отец, духовное мужество.*

Abstract: *The article reveals the artistic interpretation of human virtues embodied in the persona of Bobur on the basis of selected excerpts from the works “Yulduzli tunlar”, and “Avlodlar dovoni” by P.Qodirov, “Boburiynoma” by Khayriddin Sultan, and “Boburnoma”. These literary sources reveal Bobur’s moral qualities, personal character, and spiritual strength through artistic representation.*

Key words: *Babur, literature, book, “Baburnama”, Havoli Qutiy, “Yulduzli tunlar”, Humayun, rubai, masnuʿ poem, a kind father, spiritual courage.*

Kirish. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib

buyuk adabiyot yaratishimiz uchun hamma sharoitlarni yaratamiz" [2, 1], "Adabiyot masalasi – bu ma'naviyat masalasidir" [3, 23], "Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi" [4, 3].

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, yoshlar ongini yuksaltirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, Vatanni sevish, ardoqlash, kezi kelsa, uning obro'si, osoyishtaligi, ravnaqi yo'lida jon fido eta olish xislatlarini tarbiyalashning ulkan vositalaridan biri badiiy adabiyotdir.

Shoh va shoir, adabiyotshunos olim, buyuk tarixchi, Ibrohim G'ofurov ta'biricha, "Bir odamda butun bir xalqning xususiyatlari jamlanishi va yuzaga chiqishi mumkin deb o'ylanaman ba'zan. Masalan, Gyote nemis xalqining, Dostoevskiy ruslarning, Shekspir inglizlarning mujassam timsoli bo'lib ko'rinadi menga. O'zbeklarning shunday odami bormi? Bor, deyman o'zimga-o'zim. U – Bobur. O'zbeklarning, qolaversa, barcha turkiy qavmlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'z shaxsida jamlashtirgan siymolardan biri" Bobur tabarruk siymosi, betakror shaxsi, boy adabiy merosi ma'naviy kamolotga erishish va o'zlikni anglashda bebaho xazina vazifasini o'tab kelmoqda. Ana shu xazina sirlaridan bahramand bo'lish, o'zgalarni ham bahramand etish biz, ulug' bobolarimiz avlodlarining, muqaddas burchimizdir.

Asosiy qism. Buyuk alloma shaxsi, taqdiri, yuksak insoniy fazilatlari va ijodidagi insoniy g'oyalarning badiiy asarlardagi talqinini kuzatar ekansiz, hayratlanmaslikning iloji yo'q.

1. Temuriylar (Boburning otasi Umarshayx mirzo esa, temuriylar avlodidan bo'lgan (Amir Temur – Mirzo Mironshoh – Sulton Muhammad Mirzo – Sulton Abusaid Mirzo – Sulton Umarshayx Mirzo – Zahiriddin Muhammad Bobur) saroyi muhitida yuqori saviyali murabbiylardan bilim olgan Zahiriddinning favqulotda zehnliligi, milliy an'ana va qadriyatlar asosida tarbiyalanganliligi uning kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lgan desak, mubolag'a bo'lmaydi, aslo. 6-8 yoshlardagi yosh shahzoda harbiy mashqlardagi merganlik mahorati, ismi jismiga monandligi, kattalarga – otasiga hurmati, taqlidi "Yulduzli tunlar" romanida quyidagicha tasvirlangan:

“Chorbog‘ ichida o‘n ikki yoshlik Bobur mirzo chavandozlik mashqlari o‘tkazmoqda. U chorbog‘ chetidagi yalanglikdan bo‘z otni choptirib chiqdi-yu, birdan jilovni qo‘yib yubordi. Kamonga chapdastlik bilan o‘q o‘rnatdi va chopib borayotgan ot ustidan nishonga otdi. Yoy o‘qi nishon yog‘ochiga “taq” etib urilgani baralla eshitildi.

Bir to‘p otliqlar mashqni chinor soyasida turib kuzatmoqda edilar. Qora otliq Mazidbek nishonga birinchi bo‘lib yaqinlashdi. U Boburning bek atkasi – “hali balog‘atga yetmagan mirzolarga homiylik qilish uchun podshoh tomonidan tayin etiladigan mas’ul bek” edi. Bobur otini qaytarib kelayotganda, Mazidbek unga:

– Mo‘ljalni andak balandroq olibsiz, – dedi. – Ammo zarbingiz behad yaxshi.

– Mazidbek sopiga sadaf qadalgan yoy o‘qini nishondan avaylab sug‘urib oldi-da, qanchalik chuqur botganini barmog‘i bilan o‘lchab ko‘rdi:

– Bilagingizda kuch ko‘p, amirzodam! Sherpanjasiz. Podshoh hazratlari sizni Bobur deb ataganlari bejiz emas. Bobur arabcha sher demakdir!

Bobur mirzoning navkarlari, yaroqbardor, tengdosh – ko‘kaldosh (bir onani emgan bolalar) mulozimlari ham nishon atrofida yig‘ildilar. Ular Boburning hali yosh o‘spirin ekanini, qo‘lidagi kamon bo‘yi bastiga mos qilib kichraytirib ishlanganini bilar edilar. Shuni o‘ylab, Bobur maqtovni o‘ziga olgisi kelmadi.

– Sherpanja deb otamni aytsinlar. Men ko‘rganmen, zarblari bundan o‘n hissa ortiq. Musht ursalar, eng zo‘r yigitni ham yiqiturlar.

– Kamina ham aytmoqchi edimki, amirzodamning sherpanjaliklari podshoh otangizga tortganligingizdan nishonadir!” [8, 37-38]

2. 12 yoshlaridayoq el nazari – e’tibori va e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

Ayni shu yoshida taxtga chiqadi: “Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shafoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati birlan seshanba kuni, ramazon oyining beshida, tarix sekkiz yuz to‘qson to‘qqizda Farg‘ona viloyatida o‘n ikki yoshta podshoh bo‘ldum” [6, 64].

3. Markazlashgan davlat tuzishdek yagona maqsadi o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtda emas, balki ancha olisda – Hindistonda amalga oshdi:

Hijron g‘amidin zaif jonim so‘ldi,
G‘urbat alami birla ichim qon to‘ldi.
Hijron qafasida jon qushi ram qiladur,
G‘urbat bu aziz umrni kam qiladur...

4. Xalqparvarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi yuksak g‘oyalarni ulug‘lagan, targ‘ib qilgan va ularni amalga oshirishda haqiqiqiy shaxsiy namuna ko‘rsatib, el o‘rtasida obro‘ qozongan:

Bobur 1507-yil qishida o‘zining kichik beklari bilan tog‘ yo‘li orqali Hirotdan Qobulga borayotganda juda qalin qor va bo‘ron hujumiga duch keladi. Ana shu qorli dovonni bir hafta davomida bosib o‘tishga to‘g‘ri keldi. Bobur boshliq 15-20 kishi oldinda borib, tayoqlar, belkuraklar bilan qorni tepkilab yo‘l ochadilar va odamlar qadamma-qadam ilgari siljiydilar. Bu haqda, shoir “Boburnoma”da shunday yozadi: “Bir haftacha yovuq qor tepib, kunda bir shar’iy (taxminan, 3 kilometr), bir yarim shar’iydan ortiq ko‘chulmas edi. Qor tepar kishi men edim, o‘n-o‘n besh ichki bila va yana Qosimbek edi ikki o‘g‘li bila... [5, 192].

To‘rt-besh kun shu tariqa yo‘l bosib, Bobur va odamlari “Havoli Qutiy” degan g‘orga yetib keladilar. Ko‘pchilik odamlar g‘orga darhol kiradilar. Bir qancha odamlar tashqarida qoladilar. Bobur ko‘pchilik tashqarida bo‘lganda mening ichkariga kirishim insofdan va vijdondan emas degan xayol bilan g‘or yonida qorni kovlab o‘ziga pana joy yasaydi, qor devoriga suyanib dam ola boshlaydi. Kuchli bo‘ron bilan qor yog‘moqda edi. Bir-ikki soatda boshida va yelkasida qalin qor yuki hosil bo‘ladi. Fop ichidagilar “joy keng, hammaga yetadi” deb qayta-qayta qichqirganlaridan so‘nggina ichkariga kiradi va tashqarida qolgan odamlarni ham olib kiradi. Shu kunlarda ba’zi odamlar qo‘lini yoki oyog‘ini sovuqqa oldiradi. Bobur esa ushbu kecha qulog‘iga sovuq ta’sir qilganini keyinchalik “Boburnoma”da qayd qiladi [5, 193].

5. Boburning dono podshoh, mehribon ota bo‘lganligi quyidagi parchadan juda ishonarli tasvirlangan: “ – Humoyun, jigarbandim! – dedi u hamma eshitadigan

tovush bilan, – Sening betoqatlig‘ingga men toqat keltiray. Sening shu dardingni xudo sendan olib menga bersin!

Behush yotgan Humoyun bu gaplarni eshitmas, lekin bemorning xobgohidagi ayollar, mulozimlar, tabiblar, ruhoniylar – hammasi Boburga quloqlarini ding qilib qarab turardilar.

Bobur umumiy jimlikda Humoyunning boshidan uch marta aylandi-yu:

– Ey parvardigor! – deb iltijo qildi. – Menki Boburman, agar jon berish mumkin bo‘lsa, umri jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroyil mening jonimni olsinu xudo Humoyunga shifo bersin!” [8, 556.]

6. Raqiblariga, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z dushmanlariga munosabatlari hayratlanarli va ibratli: “… Bizni zaharlab o‘ldirmoqchi bo‘lgan bu makkor xonim uchun eng og‘ir jazo shuki, biz mana, tirikmiz! Bu xonimning o‘zi-yu o‘g‘li qilolmagan ishlarni biz qilmoqdamiz!... Malika bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko‘rsin. Yomonlikka yaxshilik mard kishining qo‘lidan kelishiga amin bo‘lsin. Agar malikada vijdon bo‘lsa, o‘g‘li qilmay ketgan ishlarni biz qilganimizni ko‘rib vijdoni azoblansin. Agar vijdoni bo‘lmasa, ichida faqat baxillik chayonlari bo‘lsa, bu chayonlar o‘zini chaqib yotaversin. Malikaga bundan o‘zga jazo munosib emasdir!” [8, 527-528.]

7. Bobur “Boburnoma” – qomusiy asar:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoe’”ni o‘qir, bilgaygim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g‘amlar ko‘rdum.

8. O‘zbek adabiyotida juda kam uchraydigan masnu’ she’r namunasi so‘z san’atkori ijodida alohida o‘rin tutadi:

Yetti meni / o‘lturg‘ali / **oxir** / hijron /,
O‘lturg‘ali / qo‘yma / **meni qutqar** / ey jon /.
Oxir / meni qutqar / **bu firoq** / asru yomon /,
Hijron / ey jon / **asru yomon** / ohu fig‘on /.

9. Bobur haqida “Yulduzli tunlar”, Avlodlar dovoni” (P.Qodirov), “Boburiynoma” (Xayriddin Sulton) va xorijda 30 tadan ortiq roman mavjud.

10. Bobur hayotining so‘nggi kunlari – oila a’zolari bilan vidolashuvi “Yulduzli tunlar” romanida juda ta’sirli ifodalangan:

Bobur (o‘g‘li Humongan):

– Temuriylarning ko‘pchiligi... fidoyilikni unutib... yo‘q bo‘lib ketdi. O‘g‘il otani o‘ldirdi. Og‘a iniga xiyonat qildi... Oqibatda... bari razolatning qurboni bo‘ldi... Undan ko‘ra... yaxshilikning fidosi bo‘lgan afzal emasmi?..Mana ammang Xonzoda begim... Samarqandda meni qutqarib o‘zini asoratga soldi. Bu fidoyilik meni hamisha... shunday bo‘lishga undab keldi... Sen ham endi inilaringu... avlodlaringni mardlikka... fidoyilikka o‘rgatgin.

... “Sendan iltimosim, – deb davom etdi Bobur. – Buni (“Vaqoi’” – “Boburnoma” ni) avlodlaring ham o‘qisin... Xatolarimni takror etmanglar. Yaxshi ishlarim... oz bo‘lsa, ko‘paytiringlar. By kitobdan nusxalar ko‘chirtirib, Samarqandga... Toshkentga... Andijonga... munosib odamlarga yuborgin... Men tug‘ilgan yurt bilan aloqani uzmanglar. Shoyad men bitgan kitoblar... ikki oradagi aloqaning rishtalari bo‘lsa...” [8, 560].

Xulosa qilib aytganda, tarixiy, ilmiy, badiiy asarlarda ifodalangan ulug‘ bobomiz – Bobur shaxsidagi bu kabi oliyjanob insoniy fazilatlar zamondoshlari uchun ham, uning avlodlari uchun ham, ibrat, namuna maktabi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. daryo.uz // Toshkentda adiblar xiyoboni ochildi (foto) [Elektron resurs]. — URL: https://daryo.uz/k/2020/05/20/toshkentda-adiblar-xiyoboni-ochildi-foto/
2. **Каримов И.** *Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор*. — Т.: Ўзбекистон, 2009. — 40 б.
3. **Каримов И.** *Ватан ва халқ мангу қолади*. — Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.

4. **Bobur Zahiriddin Muhammad** *Boburnoma*. — T.: O‘qituvchi NMIU, 2017. — B. 192–193.
5. **Заҳириддин Муҳаммад Бобур** *Бобурнома*. — Т.: Шарқ, 2002. — 367 б.
6. **Султон Хайриддин** *Бобурийнома (Матн). Маърифий роман*. — Т.: Маънавият, 2019. — 464 б.
7. **Қодиров П.** *Юлдузли тунлар: Бобур: Роман*. — Т.: O‘qituvchi НМИУ, 2018. — 568 б.

«BOBURNOMA» VA BOBUR ADABIY MEROSI: TARIXIY VOQEALAR, IJTIMOIY HAYOT VA MADANIY MUHIT AKS ETISHI

Abduraxmanov Shavkatjon Ashurovich
Karimova A’loxon Abdullajon qizi
Namangan davlat universiteti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘rta asr Sharq adabiyoti va tarixnavisligidagi noyob o‘rni nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Asarning avtobiografik-memuar xususiyati, tarixiy voqealarning batafsil va sabab-oqibat bog‘lanishlariga asoslangan tasviri, ijtimoiy hayotning turli qatlamlari – etnik munosabatlar, gender masalalari, iqtisodiy tuzum va feodal ierarxiyaning empirik kuzatuvlar orqali yoritilishi hamda madaniy muhitning ko‘p qirraliligi – Timuriylar davri adabiy gullashi, tabiat tasvirlari, islom-hindu madaniyatlari sintezi va falsafiy mulohazalar chuqur o‘rganiladi. Boburning ochiq, tanqidiy va ilmiy yondashuvi asarni zamonaviy tarixshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik uchun bebaho manbaga aylantirishi*

ta'kidlanadi. Maqola "Boburnoma"ning o'zbek milliy adabiy merosi va estetik tafakkuridagi muhim rolini ochib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Boburnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot, madaniy muhit, Timuriylar davri, avtobiografik memuar, o'zbek adabiyoti, etnik munosabatlar, gender masalalari, madaniy sintez, falsafiy mulohazalar.*

Аннотация: *В данной статье проводится анализ произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» с точки зрения его уникального места в средневековой восточной литературе и историографии. Рассматриваются автобиографическо-мемуарный характер произведения, детальное и причинно-следственное описание исторических событий, эмпирическое освещение различных слоёв общественной жизни — этнические отношения, гендерные вопросы, экономическая структура и феодальная иерархия, а также многогранность культурной среды - расцвет тимуридской литературы, описания природы, синтез исламской и индуистской культур, глубокие философские размышления. Подчёркивается, что открытый, критический и научный подход Бабура делает «Бабур-наме» бесценным источником для современной историографии, литературоведения и культурологии. Статья направлена на раскрытие важной роли «Бабур-наме» в формировании узбекского национального литературного наследия и эстетического мышления.*

Ключевые слова: *Бабур-наме, Захириддин Мухаммад Бабур, исторические события, общественная жизнь, культурная среда, эпоха Тимуридов, автобиографический мемуар, узбекская литература, этнические отношения, гендерные вопросы, культурный синтез, философские размышления.*

Abstract: *This article analyzes Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama" from the perspective of its unique position in medieval Eastern literature and*

historiography. The autobiographical-memoir character of the work, the detailed and cause-and-effect description of historical events, the empirical depiction of various layers of social life ethnic relations, gender issues, economic structure and feudal hierarchy as well as the multifaceted nature of the cultural environment the flourishing of Timurid literature, descriptions of nature, the synthesis of Islamic and Hindu cultures, and profound philosophical reflections are thoroughly examined. It is emphasized that Babur's open, critical, and scholarly approach turns "Baburnama" into an invaluable source for modern historiography, literary studies, and cultural studies. The article aims to reveal the significant role of "Baburnama" in the formation of Uzbek national literary heritage and aesthetic thought.

Keywords: *Baburnama, Zahiriddin Muhammad Babur, historical events, social life, cultural environment, Timurid era, autobiographical memoir, Uzbek literature, ethnic relations, gender issues, cultural synthesis, philosophical reflections.*

Kirish

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari o'rta asr Sharq adabiyoti va tarixnavisligida o'ziga xos o'rin egallagan avtobiografik-memuar janrining eng muhim namunalaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu yodnoma nafaqat muallifning shaxsiy hayot yo'li va siyosiy faoliyatini yoritibgina qolmay, balki XV–XVI asrlarning ikkinchi yarmida Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindiston hududlarida ro'y bergan murakkab tarixiy jarayonlarni, ijtimoiy tuzumning xususiyatlarini hamda madaniy muhitning o'zaro ta'sir dinamikasini chuqur va ko'p qirrali tarzda aks ettiradi.[6]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda: "Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti".[7] Bu so'zlar Bobur merosining bugungi kunda ham milliy g'urur va ma'naviy qadriyatlar manbai ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

[6] Rahmonov A. Boburnoma va uning tarixiy ahamiyati. Toshkent: Fan, 2005. – 256 b.
[7] Shavkat Mirziyoyev. "Bog'i Bobur" istirohat bog'i bilan tanishuvdagi so'zlar. 2017.

Prezidentning bir qator nutqlarida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning buyuk sarkarda, mutafakkir va ijodkor sifatidagi o‘rni alohida ta’kidlangan: masalan, “Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan” degan misollar orqali uning harbiy dahosi va strategik fikrlashi zamonaviy avlod uchun ibrat ekanligi qayd etilgan.[8] Shu bilan birga, Bobur merosini asrab-avaylash va targ‘ib etish masalasi Yangi O‘zbekiston siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu “Boburnoma” asarining jahon madaniy merosi doirasidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Bobur o‘z asarida tarixiy hodisalarni shaxsiy tajribasi, empirik kuzatuvlari va tanqidiy mulohazalari orqali talqin qilgan holda, o‘rta asrlar Sharq jamiyatining siyosiy, ijtimoiy va madaniy qiyofasini rekonstruksiya qilish imkonini beruvchi noyob manba yaratgan. Asar o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy yodgorlik sifatida baholanib, unda muallifning ko‘p qirrali shaxsiyati – shoh, shoir, olim va tabiatshunos – yaqqol namoyon bo‘ladi, bu esa o‘zbek adabiyotshunosligida keng tadqiqotlar obyektiga aylangan. Boburning yozuv uslubi, ochiqligi va empirik aniqligi asarni nafaqat tarixiy hujjat, balki badiiy nasrning yuqori namunasiga aylantirgan, unda voqealar zanjiri falsafiy mulohazalar va shaxsiy his-tuyg‘ular bilan boyitilgan. Shu bilan birga, “Boburnoma” o‘zbek adabiy tilining XV–XVI asrlardagi rivojlanishini aks ettiruvchi bebaho yodgorlik sifatida ham qadrlanadi, chunki unda chig‘atoy tilining boy lug‘ati, grammatik tuzilishi va badiiy uslubi yuqori darajada namoyon bo‘ladi.[9]

Asosiy qism

Asarda tarixiy voqealar tasviri hronologik izchillik va sabab-oqibat bog‘lanishlariga asoslangan holda yoritilgan bo‘lib, bu yondashuv Boburning tarixiy tafakkurining ilmiy xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Muallif o‘zining Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494), Samarqandni qayta-qayta egallashga qilingan muvaffaqiyatsiz urinishlari, Shayboniy xon bilan to‘qnashuvlari, Qobulni bosib

[8] Shavkat Mirziyoyev. Xavfsizlik kengashi yig‘ilishidagi nutq. 2020.

[9] Erkinov S. Bobur va uning davri madaniyati. Toshkent: Universitet, 2012. – 320 b.

olishi (1504) va nihoyat, Hindistonda Boburiylar imperiyasini barpo etishi (1526-yildagi Birinchi Panipat jangi) kabi muhim siyosiy voqealarni batafsil bayon etadi. Ushbu hodisalar faqat faktlar ro‘yxati sifatida emas, balki harbiy strategiyalar, ittifoqlarning mo‘rtligi, feodal nizolar, tasodifiy omillar va shaxsiy qarorlarning o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Masalan, Bobur artileriya va zamburak kabi yangi harbiy texnologiyalarning jang maydonidagi hal qiluvchi rolini ta’kidlab, o‘sha davr harbiy san’atidagi innovatsiyalarni ochib beradi. Shu bilan birga, asarda Timuriylar imperiyasining parchalanish jarayoni, Markaziy Osiyodagi siyosiy beqarorlik va o‘zbek xonliklarining yuksalishi keng yoritilgan bo‘lib, bu voqealar nafaqat muallifning shaxsiy mag‘lubiyatlari va g‘alabalarini, balki mintaqa siyosiy landshaftidagi o‘zgarishlarni ham aks ettiradi. Bobur o‘zining harbiy yurishlarini tasvirlashda, masalan, 1507-yildagi Herat yurishi va 1519-yildagi Hindiston bosqinchiligiga tayyorgarlikni batafsil bayon etib, qo‘shin tashkilotchiligi, logistika va diplomatik munosabatlarning murakkabligini ochib beradi. Bundan tashqari, asarda davlat boshqaruvi, soliq tizimi va harbiy islohotlar haqidagi mulohazalar orqali Boburning davlatchilik falsafasi va amaliy tajribasi chuqur tahlil etiladi, bu esa uni nafaqat shaxsiy memuar, balki siyosiy traktat sifatida ham baholash imkonini beradi.[10] Shu tariqa, “Boburnoma” o‘rta asrlar Sharqining siyosiy tarixini shakllantiruvchi omillarni – ichki parchalanish, tashqi bosqinlar va davlat qurilishidagi shaxsiy omilni – kompleks tarzda yoritadi, bu esa asarni zamonaviy tarixshunoslikda muhim manba qiladi.

Ijtimoiy hayotning aks etishi asarning eng muhim qirralaridan biri bo‘lib, Bobur jamiyatning turli qatlamlari, etnik guruhlar va ijtimoiy normalarni empirik kuzatuv asosida tahlil etadi. Movarounnahr va Farg‘onada turkiy va forsiy tilli aholi, ularning bog‘dorchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullanishi, feodal ierarxiya va oilaviy munosabatlar batafsil tasvirlanadi. Qobul va Hindiston qismlarida esa afg‘on, hind va turli etnik jamoalarning urf-odatlari, kasta tizimi,

[10] Hayitov M. O‘rta asrlar Sharq jamiyatida ayollar o‘rni. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 240 b.

diniy taqsimot va iqtisodiy qatlamlashuv tanqidiy nuqtai nazardan yoritiladi. Bobur nafaqat jamiyatning yuqori qatlamlarini – hukmdorlar, sarkardalar va olimlarni, balki oddiy aholining turmush tarzi, kasb-hunarlari va ijtimoiy psixologiyasini ham e'tiborga oladi. U xalqlarning sadoqati va xiyonati, ijtimoiy adolat masalalari, shuningdek, ayollarning oilaviy va ijtimoiy o'rnini qayd etib, o'sha davr ijtimoiy tuzumining murakkabligini ochib beradi. Masalan, Bobur o'zining opa-singillari va qizlarining hayotini tasvirlashda, oilaviy nikoh urf-odatlarini va ayollarning jamiyatdagi cheklangan rolini tanqidiy baholaydi, bu esa feodal jamiyatdagi gender munosabatlarini yoritadi.[11] Shu bilan birga, asarda iqtisodiy holatni, masalan, savdo yo'llari, soliq tizimi va qishloq xo'jaligining rivojini tasvirlash orqali, jamiyatning moddiy asoslari va sinfiy qatlamlashuvi ko'rsatilgan. Bobur hind xalqlarining qashshoqligi va Lodiy sulolasining ijtimoiy adolatsizligini ochiq ta'kidlab, bu kamchiliklarni o'z imperiyasining islohotlari uchun saboq sifatida ishlatadi. Bu kuzatuvlar sotsiologik va etnografik jihatdan qimmatli bo'lib, jamiyatdagi o'zgarishlarning siyosiy jarayonlarga ta'sirini empirik asosda ko'rsatadi, shu orqali asar o'zbek adabiyotshunosligida ijtimoiy-tarixiy tahlilning noyob namunasiga aylanadi. Bundan tashqari, Bobur asarda etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy mobillik masalalarini ham yoritib, o'sha davr jamiyatining ko'p qirrali dinamikasini ochib beradi.

Madaniy muhitning yoritilishi "Boburnoma"da Boburning o'zi madaniyat homiysi va intellektual shaxs sifatida namoyon bo'lishi bilan ajralib turadi. Asar o'zbek adabiy nasrining ilk namunalaridan biri sifatida, tilning boyligi, uslubning ochiqligi va tasvirning aniqligi bilan ajralib turadi. Bobur Alisher Navoiy va boshqa zamondosh adiblarning ta'sirini ta'kidlab, Timuriylar davridagi adabiy gullashni yoritadi. U she'riyat, musiqa, tasviriy san'at va bog'dorchilik san'atiga qiziqishini batafsil bayon etib, saroy madaniyati va ilm majlislarini tasvirlaydi. Qobul va Ag'ra madaniy muhitida mahalliy urf-odatlar, hind me'morchiligi, musiqa va islom-hindu madaniyatlari sintezi tahlil etiladi.[12] Boburning tabiat, flora va faunani poetik va

[11] To'rayev B. Timuriylar davri madaniyati. Toshkent: Sharq, 2003. – 368 b.
[12] Jo'rayev A. Bobur ijodida falsafiy mulohazalar. Toshkent: Ma'naviyat, 2014. – 272 b.

ilmiy aniqlikda tasvirlashi asarga geografik-etnografik qimmat qo‘shadi. Masalan, u Farg‘ona vodiysining mevalari, Hindistonning tropik o‘rmonlari va Afg‘oniston tog‘larini batafsil yoritib, bu tasvirlarni shaxsiy his-tuyg‘ular bilan boyitadi, bu esa madaniy muhitni ekologik kontekstda ko‘rsatadi.[13] Shu bilan birga, Bobur o‘zining she’riy asarlarini, ruboiy va g‘azallarini asarga kiritib, adabiy merosining uzviyligini ta’kidlaydi, bu esa uning shaxsiyatini ko‘p qirrali shoir va faylasuf sifatida ochib beradi. Ushbu madaniy kuzatuvlar falsafiy chuqurlikka ega bo‘lib, inson tabiatini, taqdir va erkin irodani mulohaza qilish orqali gumanitar mazmunni boyitadi, shu orqali asar jahon adabiyotida madaniy sintezning noyob namunasiga aylanadi. Boburning madaniy merosi nafaqat Sharq, balki G‘arb adabiyoti uchun ham muhim manba bo‘lib, uning tasvirlari keyingi asrlarda ko‘plab adiblar ijodiga ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-ilmiy merosining cho‘qqisi sifatida, tarixiy voqealarni ijtimoiy hayot va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liqlikda yoritgan noyob manba hisoblanadi. Asar o‘rta asrlar Sharq jamiyatining murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy dinamikasini rekonstruksiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, etnografiya va madaniyatshunoslik tadqiqotlarida muhim o‘rin tutadi. Boburning yozuv uslubidagi ochiqlik, empirik aniqlik va tanqidiy yondashuv asarni ilmiy nuqtai nazardan yuqori darajadagi manbaga aylantirib, unda nafaqat voqealar zanjiri, balki insoniy tajribaning chuqur falsafiy talqini ham mujassam etilgan. Shu orqali, “Boburnoma” o‘zbek adabiy merosining milliy madaniyat va estetik tafakkur shakllanishidagi rolini ta’kidlaydi, bu esa uni bugungi kunda ham dolzarb tadqiqot obyektiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. **Mirziyoyev Shavkat** “Bog‘i Bobur” istirohat bog‘i bilan tanishuvdagi so‘zlar. — 2017.

[13] Muminov I. Boburnoma va o‘zbek milliy tafakkuri. Toshkent: Fan, 2020. – 344 b.

2. **Mirziyoyev Shavkat** Xavfsizlik kengashi yig‘ilishidagi nutq. — 2020.
3. **Rahmonov A.** *Boburnoma va uning tarixiy ahamiyati*. — Toshkent: Fan, 2005. — 256 b.
4. **Erkinov S.** *Bobur va uning davri madaniyati*. — Toshkent: Universitet, 2012. — 320 b.
5. **Hayitov M.** *O‘rta asrlar Sharq jamiyatida ayollar o‘rni*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. — 240 b.
6. **To‘rayev B.** *Timuriylar davri madaniyati*. — Toshkent: Sharq, 2003. — 368 b.
7. **Jo‘rayev A.** *Bobur ijodida falsafiy mulohazalar*. — Toshkent: Ma’naviyat, 2014. — 272 b.
8. **Muminov I.** *Boburnoma va o‘zbek milliy tafakkuri*. — Toshkent: Fan, 2020. — 344 b.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING «BOBURNOMA» ASARIDAGI IJTIMOIY-AXLOQIY QARASHLARI

Ismoilova Gulrux Ulug‘bekovna

Andijon iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosida aks etgan ijtimoiy va axloqiy qarashlar, ayniqsa uning tarixiy xotirasi hisoblangan “Boburnoma” asari misolida tahlil qilinadi. Matn va kontekstual tahlil orqali tadqiqot Boburning axloqiy tamoyillari, dunyoqarashi hamda asarlarida tilga olingan tarixiy shaxslarga bergan baholarini o‘rganadi. Boburning do‘stlik,*

sadoqat va shaxsiy halollik haqidagi qarashlariga alohida e'tibor qaratiladi; bu fazilatlar u tomonidan faqat individual xislatlar sifatida emas, balki muhim ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari Boburning axloqiy mas'uliyat, adolat va samimiyat g'oyalarini ham badiiy mulohazalar, ham shaxsiy namunasi orqali izchil targ'ib qilganini ko'rsatadi. Hukmdor, mutafakkir va yozuvchi sifatidagi faoliyati Boburga siyosiy yetakchilikni axloqiy tarbiya bilan uyg'unlashtirish imkonini bergan va shu orqali axloqiy boshqaruv modelini shakllantirgan. Maqolada, shuningdek, Boburning pand-nasihat, maslahat va ibratli xulq-atvorni jamiyatga ta'sir ko'rsatishning samarali vositalari sifatida qo'llagan didaktik yondashuvi yoritiladi. Bobur asarlarini tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qilish orqali uning ijtimoiy va axloqiy g'oyalarining Markaziy va Janubiy Osiyo intellektual tarixidagi barqaror ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *Movarounnahr, Xuroson, Eron, Hindiston, "Boburiya" "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Voqeoti Boburiy", N.I.Ilminskiy*

Abstract: *This article explores the social and moral views reflected in the literary heritage of Zahiriddin Muhammad Babur, with particular emphasis on his historical memoir Baburnama. Through textual and contextual analysis, the study examines Babur's ethical principles, worldview, and assessments of historical figures mentioned in his works. Special attention is given to Babur's interpretation of friendship, loyalty, and personal integrity, which are presented not merely as individual virtues but as essential social and moral values. The research demonstrates that Babur consistently promotes moral responsibility, justice, and sincerity through both narrative reflection and personal example. His role as a ruler, thinker, and writer allowed him to combine political leadership with ethical instruction, thereby shaping a model of moral governance. The article also highlights Babur's didactic approach, emphasizing guidance, advice, and exemplary conduct as effective means of influencing society. By analyzing Babur's works within their historical and cultural context, the study reveals the enduring*

significance of his social and ethical ideas in the intellectual history of Central and South Asia.

Keywords: *Mawarannahr, Khorasan, Iran, India, Baburid Dynasty, Baburnama, Tuzuk-i Baburi, Vaqeoti Baburi, N. I. Ilminsky.*

Аннотация:*В статье анализируются социально-нравственные взгляды, отражённые в литературном наследии Захириддина Мухаммада Бабура, с особым вниманием к его мемуарному произведению «Бабур-наме». На основе текстологического и исторического анализа рассматриваются моральные принципы, мировоззрение автора, а также его оценки исторических личностей, упомянутых в произведениях. Особое место в исследовании занимает концепция дружбы, которая в трудах Бабура осмысливается как важная социальная и этическая ценность. Показано, что Бабур последовательно пропагандирует идеи нравственной ответственности, справедливости и искренности, опираясь как на собственный жизненный опыт, так и на примеры из истории. Его деятельность как правителя и мыслителя свидетельствует о стремлении соединить политическое руководство с нравственным воспитанием общества. Автор подчёркивает дидактический характер наследия Бабура, в котором наставление и личный пример выступают ключевыми средствами морального воздействия. Исследование подтверждает актуальность социально-этических идей Бабура в истории культуры Центральной и Южной Азии.*

Ключевые слова: *Мавераннахр, Хорасан, Иран, Индия, Бабуридская династия, «Бабур-наме», «Тузук-и Бабури», «Вакеоти Бабури», Н. И. Ильминский.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘ringa ega adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga, yirik davlat arbobi sifatida ham o‘chmas nom qoldirdi. Serjilo o‘zbek tilida yozilgan,

Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlarining tarixi yoritilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning buyuk tarixnavis, axloqshunos olimlari qatoridan joy oldi. Asarning asl nomi “Boburiya” bo‘lsa-da, uni “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Voqeoti Boburiy” deb ataydilar, keyinchalik asar “Boburnoma” degan nom bilan mashhur bo‘lib ketdi[14]. Tarix, geografiya, musiqa, harb ilmi kabi fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Boburning ma’naviy merosida yoshlarni bilim olishga, odobli, axloqli bo‘lishga da’vat etish g‘oyasi ustun turadi.

Bu asarning mavjud to‘liq matni 1857-yilda turkolog N.I.Ilminskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo‘li bilan o‘zining to‘rt betlik nashr uslublarini ko‘rsatgan ruscha so‘zboshisi bilan bosilgan[15]. Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Bobur, barcha temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Bobur kishilarni birodarlikka, inoqlikka, shafqatli, insofli bo‘lish, Vatanni e’zozlashga chaqirdi. Uning ma’rifatparvarligi, axloqiy g‘oyalari o‘z davrida katta ahamiyat kasb etdi.

Boburning ijtimoiy-axloqiy qarashlari uning “Boburnoma” asarida aks ettirilgan. U kishilar xulqini uning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etadi. U har qanday kimsani emas, balki haqiqiy insonni qadrlaydi, uning mehnat faoliyati va xulq-atvorini madh etadi. Shoir kishilarning tashqi ko‘rinishlari ularning ichki dunyosini ifodalashini yaxshi anglaydi va bunda tasvirga alohida e’tibor beradi. “Boburnoma” asarida 80 dan ortiq shaxsning nomi tilga olinib, 50 dan ortiq zamondoshining xulq-odobi, insoniyligi, nasabi, kasbi, ijodi va fanga qo‘shgan hissasi haqida to‘xtaladi, ularga adolatli baho beradi, o‘z munosabatini bildiradi. Jumladan: Sulton Husayn mirzoning o‘n to‘rt ming yakka yigiti bor ekandur va qirq ming yasoqliq yigitlari g‘ul ekandur. Va yasoqliqqa taalluqli ishlar xandaq to‘ldirmoqku (?) qozmoq va yo‘l yasamoq va o‘tin, samon xossaga yetkurmoqdur[16].

[14] Zahiriddin Muhammad Bobur/Boburnoma:-T.:”IJOD-PRESS”, 2020 yil, 3- bet.
[15] Zahiriddin Muhammad Bobur/Boburnoma:-T.:”IJOD-PRESS”, 2020 yil, 4- bet.
[16] Zahiriddin Muhammad Bobur/Boburnoma:-T.:”IJOD-PRESS”, 2020 yil, 232- bet

“Boburnoma”da o‘sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o‘z yurti Farg‘ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, shuningdek, O‘rta Osiyoning yirik shaharlari — Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahririsabz, O‘sh, Urganch, O‘ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida ham nihoyatda nodir ma’lumotlar keltirgan. Unda Qobul ulusining yirik shaharlari Qobul, G‘azna va ular ihtiyoridagi ko‘pdan-ko‘p tumanlar, viloyatlar, shimoliy Hindiston haqida ma’lumotlarni uchratish mumkin[17].

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida do‘stlik g‘oyasi keng ma’noda ifodalangan. Shoir do‘stlikni millatlar, ellar do‘stligi va birga faoliyat ko‘rsatayotgan lashkarlar yelkadoshligi, oila a’zolari, olim, shoir hamda ulamolar hamkorligi kabi insoniy fazilatlar, deb tushundi, do‘stman deb, dushmanning ishini qilgan shaxslardan nafratlandi[18]. Bobur faoliyatida ibrat, namuna ko‘rsatish yo‘l i bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lish va nasihat qilish yaqqol ko‘zga tashlanadi. U farzandlari, qo‘l ostidagi beklar va lashkarlaridan har bir ish o‘z vaqtida bajarilishini talab etgan. E’tiborlisi shundaki, ibrat ko‘rsatish yoki amalda namuna bo‘lish urush sharoitida, issiq-sovuqqa bardosh berishda, oz sonli kuch bilan g‘alaba qozonishda, ayniqsa, berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishni talab qilishda asqatar edi. Xalq urf-odatlari, rasm-rusumlari, umuminsoniy sifatlar bo‘lmish mehr-muhabbat, rahm-shafkat yunalishidagi odatlar asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib boraveradi. Chunki xalq ijobiy udumlari davrning madaniyatli, ma’rifatli kishilari tomonidan katta bir meros sifatida o‘rganiladi va keng targ‘ib etiladi. Bobur asarlarida ham O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Eron, Xindiston xalqlari udumlari, rasm-rusumlari kabi madaniy-ma’naviy meroslari o‘sha xalqlarning ijobiy fazilatlari tarzida badiiy aks ettirilgan.

Bugungi kunda Bobur va Boburiylar merosi nafaqat tarixiy, balki ma’naviy va madaniy qadriyat sifatida ham o‘rganilmoqda. Ularning ilm-fan, me’morchilik va san’atga qo‘shgan hissasi zamonaviy madaniyat rivojiga ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Toj Mahal, Humoyun maqbarasi kabi obidalar jahon madaniy

[17] Zahiriddin Muhammad Bobur/Boburnoma:-T.:”IJOD-PRESS”, 2020 yil, 417-418- betlar

[18] Vahob Raxmonov/Turkiy adabiyot durdonalari:-T.: “O‘zbekiston”, 2022 yil, 56-bet

merosining nodir namunalaridir. Shuningdek, Boburning adabiy merosi milliy o‘zlikni anglash, ona tiliga hurmat va madaniy merosni asrash g‘oyalarini targ‘ib etadi. Zamonaviy O‘zbekiston va boshqa turkiy xalqlar uchun Bobur siymosi tarixiy xotira va ma’naviy tiklanish timsoli hisoblanadi.

Fikrimcha, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar merosi bugungi yosh avlod uchun faqat tarixiy bilim manbai bo‘lib qolmasdan, balki hayotiy ibrat maktabi hamdir. Boburning murakkab taqdirga qaramay, ilm-fan va adabiyotdan voz kechmagani, maqsad sari qat’iyat bilan intilgani hozirgi zamon yoshlari uchun muhim saboq bo‘la oladi. Ayniqsa, uning vatandan yiroqda bo‘lsa ham milliy o‘zligini, tilini va ma’naviy qadriyatlarini asrab qolishga intilgani e’tiborga loyiqdir. Shuningdek, Boburiylar davlatida olib borilgan bag‘rikenglik siyosati va turli xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash tamoyillari bugungi globallashuv davrida juda dolzarb deb hisoblayman. Chunki hozirgi kunda jamiyatlararo kelishmovchiliklarni bartaraf etishda tarixiy tajribaga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boburiylar merosi bizga kuch faqat qurol bilan emas, balki adolat, bilim va madaniyat orqali ham mustahkamlanishini ko‘rsatadi[19].

Boburiylar davlati tajribasi zamonaviy davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan ham ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, Akbarshoh davrida olib borilgan diniy bag‘rikenglik siyosati, turli millat va konfessiya vakillariga nisbatan murosaga asoslangan munosabat bugungi globallashuv sharoitida dolzarb bo‘lgan ijtimoiy barqarorlik masalalariga tarixiy yechim sifatida qaralishi mumkin. Bu tajriba hozirgi ko‘p millatli jamiyatlarda tinchlik va hamjihatlikni ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Boburning adabiy merosi, ayniqsa “Boburnoma” asari, tarixiy manba sifatida katta ilmiy qiymatga ega bo‘lib, unda muallifning siyosiy qarashlari, jamiyatga munosabati va inson omiliga bergan bahosi yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu asarni zamonaviy tarix, adabiyot va

[19] Mualliflik yondashuvi

madaniyatshunoslik fanlari doirasida kompleks o‘rganish, undan ta’lim jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, Bobur va Boburiylar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va ularni zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan qiyosiy tahlil qilish lozim. Ikkinchidan, ushbu mavzuni umumta’lim va oliy ta’lim muassasalari dasturlarida chuqurroq yoritish orqali yosh avlodda tarixiy ong va milliy o‘zlikni mustahkamlash mumkin. Uchinchidan, Boburiylar davriga oid madaniy meros ob’ektlarini targ‘ib qilish va ularni xalqaro miqyosda tanitish madaniy diplomatiya rivojiga xizmat qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar merosi bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun boy manba bo‘lib qolmoqda. Ushbu merosni chuqur o‘rganish va zamonaviy kontekstda talqin etish jamiyatning ma’naviy yuksalishi, tarixiy xotirani asrash hamda kelajak taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasi tomonidan yaratilgan siyosiy, madaniy hamda ma’naviy meros Sharq va jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Bobur shaxsiyati misolida davlat boshqaruvi, harbiy strategiya, adabiyot va tarixiy tafakkurning uyg‘unlashganini ko‘rish mumkin. Uning faoliyati va ijodi shuni ko‘rsatadiki, kuchli davlat faqat harbiy qudrat bilan emas, balki ilm-fan, adolat va ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda barqaror rivojlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Zahiriddin Muhammad Bobur**. *Boburnoma*. — T.: IJOD-PRESS, 2020.
2. **Pirimqul Qodirov**. *Avlodlar dovoni*. — T.: Yangi nashr, 2019.
3. **Vahob Raxmonov**. *Turkiy adabiyot durdonalari*. — T.: O‘zbekiston, 2022.

BOBUR SHAXSIDA ILM, SIYOSAT VA ADABIYOTNING FALSAFIY UYG‘UNLIGI

Kayumova Lobar Zayniddin qizi
O‘zabekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsida ilmiy tafakkur, siyosiy boshqaruv madaniyati va badiiy ijodning o‘zaro uyg‘unlashuvi badiiy-asosli yondashuv bilan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy hujjat, balki Boburning ichki dunyosi, qarashlari va ijodiy tafakkurini ochuvchi manba sifatida ko‘rib chiqildi. Bobur shaxsidagi ilm, siyosat va adabiyot uyg‘unligi uning zamonaviy shaxslar uchun ham ibratli model ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Bobur, ilmiy tafakkur, siyosiy strategiya, adabiy meros, “Boburnoma”, temuriylar, integrativ shaxs.*

Annotation: *This article analyzes the harmony of scientific thinking, political strategy, and literary creativity in the personality of Zahiriddin Muhammad Babur with a literary-analytical approach. The “Baburnama” is studied not only as a historical document but also as a source revealing Babur’s inner world, perspectives, and creative thinking. Babur’s integration of knowledge, politics, and literature serves as a model for contemporary personality development.*

Keywords: *Babur, scientific thinking, political strategy, literary heritage, Baburnama, Timurids, integrative personality.*

Аннотация: *В статье рассматривается гармония научного мышления, политической стратегии и литературного творчества в личности Захириддина Мухаммада Бабура с художественно-аналитической точки зрения. «Бабурнаме» изучается не только как исторический источник, но и как отражение внутреннего мира и творческого мышления Бабура.*

Интеграция науки, политики и литературы в личности Бабура является примером для формирования современных целостных личностей.

Ключевые слова: *Бабур, научное мышление, политическая стратегия, литературное наследие, Бабурнаме, тимуриды, интегративная личность.*

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat tarixiy shaxs, balki ilm, siyosat va adabiyot uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan noyob shaxsiyatdir. Mening fikrimcha, Bobur shaxsining tarixi shunchaki siyosiy voqealar bilan emas, balki uning ilmiy tafakkuri, badiiy qarashlari va ma’naviy dunyosi orqali ham o‘rganilishi lozim. Har bir voqea, har bir hukmronlik qarori yoki harbiy yurish — u shaxsiy kuzatuvlar, ichki mulohazalar va falsafiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilgan. Shu jihat meni, shaxsiy fikrimcha, Boburni nafaqat sarkarda yoki davlat arbobi, balki o‘z davrining yorqin mutafakkiri sifatida qadrlashga majbur qiladi.

Bobur hayoti Markaziy Osiyo siyosiy manzarasida o‘ziga xos davrni ifodalaydi. U Movarounnahr va Farg‘ona vodiysi siyosiy murakkabliklarida shakllangan, Hindistonga yurishlarida esa o‘zining davlat boshqarish konsepsiyasini, strategik va taktika bilimlarini namoyon qilgan. Menimcha, Boburning siyosiy yetukligi va strategik fikrlash qobiliyati uning ilmiy va badiiy tafakkuridan mustahkam asos topgan.

Shuningdek, Bobur nafaqat tarixiy voqealarni qayd qilgan, balki ularning ma’nosini, insoniy va ma’naviy jihatlarini ham o‘rganishga harakat qilgan. O‘ylashimcha, aynan shu xususiyat uni boshqa sarkardalar va hukmdorlardan ajratib turadi. Bobur o‘z yurishlari, boshqaruv qarorlari va she’riy ijodi orqali nafaqat o‘z davrining, balki keyingi asrlarning ham siyosiy, ilmiy va badiiy merosini shakllantirgan.

Bugungi kunda ajdodlarimiz merosini o‘rganish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so‘zlariga qaraganda, “Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va ma’naviy meros milliy taraqqiyotimizning mustahkam poydevoridir”[1. Sh.M. Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b].

Mening fikrimcha, aynan shu nuqtai nazardan, Bobur shaxsini integrativ yondashuv bilan o‘rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar uchun ham ahamiyatlidir.

Shu tadqiqot orqali men quyidagilarni aniqlashga harakat qilaman: Bobur shaxsida ilm, siyosat va adabiyotning uyg‘unligi qanday namoyon bo‘lgan, uning shaxsiy kuzatuvlari va badiiy tafakkuri davlat boshqaruvi va madaniyat rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatgan. O‘ylashimcha, ushbu tadqiqot Bobur shaxsini yanada chuqurroq anglashga va uning merosini zamonaviy yoshlar uchun ibrat sifatida taqdim etishga xizmat qiladi.

O‘ylashimcha, Boburnoma asarini shunchaki tarixiy manba sifatida emas, balki Boburning ichki dunyosi va ijodiy tafakkurini o‘rganish manbai sifatida tahlil qilish mumkin.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalandim:

- ✓ Tarixiy-tahliliy metod: Bobur faoliyatini Temuriylar davri kontekstida o‘rganish
- ✓ Manbashunoslik: “Boburnoma”ni fakt va tafakkur nuqtai nazaridan tahlil qilish
- ✓ Adabiyotshunoslik: Bobur she’riyati va nasriy badiiy tafakkurini o‘rganish

Mening mulohazam shuki, ushbu metodlarning uyg‘un qo‘llanishi Bobur shaxsini to‘liqroq tushunishga yordam beradi. Bobur nafaqat shoh, balki adabiyot sohasiga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomadir. Barchamiz yaxshi bilganimizdek, Bobur hayotlik chog‘ida “Boburnoma” asarini yozgan. “Boburnoma” faqat xotiralar to‘plami emas, balki geografik, tabiiy va etnografik kuzatuvlarni o‘z ichiga olgan manbadir [2. Z.M. Bobur “Boburnoma” – T.: Yangi asr avlodi, 2019].

O‘ylashimcha, Bobur Hindiston tabiatini tasvirlashda o‘zining kuzatuvchanligi va analitik tafakkurini namoyon qilgan. U iqlim farqlarini Movarounnahr bilan qiyoslaydi, suv va o‘simlik resurslarini aniqlab yozadi. Bu esa uning ilmiy tafakkurga ega ekanini tasdiqlaydi.

Adabiyotshunoslar fikricha, “Boburnoma” qomusiy xarakterga ega bo‘lib, ilmiy va badiiy qiymatni birlashtiradi [3. Valixo‘jayev B. “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” – T.: O‘qituvchi, 2010 – 156-b].

Mening qarashimcha, Boburning ilmiy kuzatuvchanligi uning shaxsiyati va siyosiy qarorlariga ham ta’sir qilgan. Bobur siyosiy faoliyatini Movarounnahrdagi murakkab sharoitda boshlagan. O‘ylashimcha, bu unga uzoqni ko‘ra bilish, strategik fikrlash va muloqot qobiliyatini shakllantirgan. Hindistonda markazlashgan davlat barpo etishi uning siyosiy yetukligini ko‘rsatadi. Menimcha, u nafaqat kuch bilan hukmronlik qilgan, balki adolat va tartibni asosiy mezon qilgan. Shu jihat uni shunchaki zabt etuvchi emas, balki tarixiy lider sifatida ajratib turadi [4. S. Hasanov “Bobur va uning davri” – T.: Fan, 2008. – 74-b].

Bobur she’riyati samimiylik va realizm bilan ajralib turadi. Mening fikrimcha, uning g‘azal va ruboiylarida vatan sog‘inchi, insoniylik va hayot falsafasi o‘z aksini topadi. Adabiy tafakkur Boburning siyosiy qarashlariga ham ta’sir qilgan. U davlatni hududiy birlik sifatida emas, balki madaniy va ma’naviy makon sifatida tasavvur qilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Bobur shaxsida ilm, siyosat va adabiyot bir-birini boyituvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy kuzatuvchanlik siyosiy boshqaruvni mustahkamladi, badiiy tafakkur esa insoniylik va madaniyatni yuksaltirdi. Mening qarashimcha, Bobur integrativ shaxs modeli sifatida nafaqat tarixiy, balki bugungi davr uchun ham ibrat bo‘la oladi.

Bobur shaxsida ilm, siyosat va adabiyot uyg‘unligi tarixiy va ma’naviy jihatdan asoslangan. Mening fikrimcha, u nafaqat tarixiy davlat arbobi, balki ilmiy tafakkurga ega mutafakkir va yuksak didli ijodkor sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan. Bobur timsoli bugungi yoshlar uchun barkamol shaxs modeli bo‘la oladi. Demak, Bobur merosi ilmiy, siyosiy va badiiy jihatdan bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qadrlanishi lozim va bu meros nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ma’naviy va madaniy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Mirziyoyev Sh. M.** *Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz*. — T.: O‘zbekiston, 2017. — 488 b.
2. **Bobur Z. M.** *Boburnoma*. — T.: Yangi asr avlodi, 2019.
3. **Valixo‘jayev B.** *O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. — T.: O‘qituvchi, 2010. — 156 b.
4. **Hasanov S.** *Bobur va uning davri*. — T.: Fan, 2008. — 74 b.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING MA’NAVIY-MA’RIFIY QARASHLARI

Komilova Zulfiyaxon Poziljonova

University of economics and pedagogy

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi, shoir, tarixchi va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy hamda estetik qarashlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bobur merosida inson kamoloti, ilm-fanga munosabat, axloqiy tarbiya, mehnat va iroda masalalari hamda badiiy tafakkurning o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, Boburnoma asarining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari Bobur qarashlarining zamonaviy tarbiya va ta’lim jarayonlari uchun metodologik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, ma’rifat, axloq, shaxs kamoloti, tarbiya, ilm-fan, estetik tafakkur, meros.*

Аннотация. *В данной статье на научно-теоретической основе анализируются духовно-просветительские, нравственные и эстетические*

взгляды великого государственного деятеля, поэта, историка и мыслителя Захириддина Мухаммада Бабура. В наследии Бабура раскрываются вопросы совершенствования личности, отношения к науке и образованию, нравственного воспитания, труда и воли, а также роль художественного мышления. Кроме того, обосновывается духовно-просветительское значение произведения «Бабурнаме». Результаты исследования показывают методологическую значимость взглядов Бабура для современных процессов воспитания и образования.

Ключевые слова: *духовность, просвещение, нравственность, развитие личности, воспитание, наука, эстетическое мышление, наследие.*

Abstract. *This article provides a scientific and theoretical analysis of the spiritual-educational, ethical, and aesthetic views of the great statesman, poet, historian, and thinker Zahiriddin Muhammad Babur. The study reveals issues of human development, attitudes toward science, moral education, labor and willpower, and the role of artistic thinking in Babur's heritage. It also substantiates the spiritual and educational significance of the Baburnama. The research findings demonstrate the methodological importance of Babur's ideas for modern educational and upbringing processes.*

Keywords: *spirituality, enlightenment, ethics, personal development, upbringing, science, aesthetic thinking, heritage.*

O‘zbek xalqining ma’naviy-madaniy tarixida jahon miqyosida e’tirof etilgan buyuk siymolar alohida o‘rin egallaydi. Ana shunday tarixiy shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘lib, uning serqirra faoliyati nafaqat siyosiy va harbiy sohada, balki adabiyot, madaniyat, ilm-fan hamda ma’naviyat rivojida ham muhim iz qoldirgan. Bobur shaxsida hukmdorlik salohiyati bilan ijodkorlik iste’dodi, real siyosiy tafakkur bilan chuqur falsafiy mushohada uyg‘unlashgan. Bugungi globallashuv jarayonlari, madaniy va ma’naviy qadriyatlar tizimining yangilanishi sharoitida tarixiy merosni qayta anglash, milliy tafakkur taraqqiyotiga hissa qo‘shgan mutafakkirlar qarashlarini zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq

etish dolzarb ilmiy vazifalardan hisoblanadi. Shu jihatdan Bobur merosini o‘rganish nafaqat tarixiy zarurat, balki ma’naviy-ma’rifiy ehtiyoj hamdir.

Bobur ijodi va faoliyati inson, jamiyat, axloq, ilm, go‘zallik kabi universal tushunchalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning qarashlari bugungi ta’lim va tarbiya tizimi uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Boburning lirik me’rosi “Qobul devoni” ga, 1528-1529 yillarda “Xind devoni”ga jamlangan. To‘liq devon tuzgani haqida ma’lumot bor. She’rlarning umumiy xajmi 400dan ortadi. Shundan 119 g‘azal, 231 ruboiy va tuyuq, qit’a, fard, manaviy kabi janrlarda asarlar yaratgan. She’rlarini mavzu jixatidan oshiqona, ta’limiy, tasavvufiy, xasbi xol kabi turlarga ajratish mumkin. Bobur she’riyati intelektual qalb izhori sifatida ardoqlidir. Bobur ruboiy janrini turk adabiyotida dunyoga olib chiqqan shoirdir[1].

Boburning ulug‘ asari “Boburnoma” bo‘lib, uni «Vaqoi” deb ham nomlaydilar. Buyuk me’morial asarda 1494-1529 yillari Markaziy va Kichik Osiyoda, Yaqin va O‘rta sharq mamlakatlarida kechgan voqealar bayon etilgan. “Boburnoma”ning o‘ndan ortiq qo‘l yozma nusxalari bor. Asarni Qozonda N. I. Lminskiy, Londonda Beverij xonim nashr etgan. O‘zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928-yilda asardan parchalar e’lon qildi. «Boburnoma”ning 1948-1949 yillarda ikki jildli; 1960,1989 yillarda tuzatilgan, 2002 yilda to‘ldirilgan qayta nashri amalga oshirildi[2].

“Boburnoma” asari nafaqat tarixiy voqealar bayoni, balki muallifning hayotiy tajribasi, falsafiy mushohadalari va axloqiy xulosalarini ham o‘zida mujassam etgan noyob manbadir. Asarda inson tabiati, jamiyat munosabatlari, adolat, davlat boshqaruvi kabi masalalar keng yoritilgan. Asarning ma’naviy ahamiyati shundaki, u o‘quvchini fikrlashga, mushohada qilishga va voqelikni teran anglashga undaydi. Bu jihatdan asar tarbiyaviy va ma’rifiy qiymatga ega.

Bobur qarashlarining markazida inson shaxsi, uning qadr-qimmati va ma’naviy kamoloti masalasi turadi. Mutafakkir insonni jamiyat hayotining faol subyekti sifatida talqin etadi. Uning fikricha, insonning haqiqiy qadri uning nasabi yoki ijtimoiy mavqei bilan emas, balki axloqiy fazilatlari, bilim darajasi va jamiyat

oldidagi mas'uliyati bilan belgilanadi. Bobur asarlarida insoniylik, adolat, vijdon, or-nomus kabi tushunchalar ustuvor axloqiy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxsning ma'naviy yetukligini jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko‘radi. Mazkur yondashuv Sharq falsafiy tafakkuriga xos bo‘lgan insonparvarlik g‘oyalari bilan hamohangdir. Bobur qarashlarida hayotning mazmuni, insonning jamiyatdagi o‘rni, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi munosabat masalalari chuqur falsafiy talqin qilinadi. Mutafakkir insonni doimo o‘zini anglashga, ma'naviy o‘sishga va axloqiy mukammallikka intilishga chorlaydi.

Yangi alifbo – "Xatti Boburiy"ni kashf qildi. Unda she'rlar va Qur'on ko‘chirtirildi. Boburning soliq ishlari xaqida ma'lumot beruvchi "Mubayinul - zakot", aruz vazni haqidagi "Risolai aruz kabi asarlari bor. "Aruz risola"sida turkiy aruzning tabiati, taraqqiyoti va she'riy asarlardagi ko‘rinishlari; aruzning 272 vazni va 21 baxriga ilmiy sharxlar berilgan. Boburning "Xarb ishi", "Musiqa ilmi" nomli asarlar yaratgani haqida ham ma'lumot bor. Ammo ular topilgan emas[3].

Boburning asarlaridagi axloqiy va estetik g‘oyalari hamda ma'naviy-ma'rifiy qarashlarida, inson do‘stlikni, hayotni, uning har bir fursatini qadrlashi, qayg‘u-hasrat bilan emas, xulq-atvori bilan yoshlarga ibrat bo‘lishi, chinakam insoniy fazilatlarni tarkib topishi xususan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan axloqiy va pedagogik g‘oyalarni ilgari surgan.

1.Kishida hayotga va vatanga muhabbat, ilm-fanga va ma'rifatga intilish inson ma'naviy qiyofasining asosidir.

2. Fan va ma'rifatni yuqori qadrlagan inson adabiyot, san'at va ilm ahli bilan yaqin munosabatda bo‘ladi hamda donolar o‘gitidan to‘g‘ri foydalanadi.

3. Har kimdan yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa, aning birla amal qilmoq kerak. Yomon ot birla tirilgandin, yaxshi ot bilan o‘lgan yaxshiroq.

4. Kishining hayotdagi eng asosiy burchi hamma joyda ham o‘zini tuta bilishidan va yaxshi xulq-atvorli bo‘lishdan iboratdir.

5. Mehnat qilgan va mashaqqat chekkan kishilardagina chinakam insoniy fazilatlar tarkib topadi

Xulosa. Boburning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari insonparvarlik, ilm-fanga hurmat, axloqiy yetuklik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Uning merosi bugungi kunda ham ma’naviy tarbiya, ta’lim va shaxs kamoloti masalalarida muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Bobur qarashlarini o‘rganish yosh avlodni ma’naviy barkamollik, milliy qadriyatlarga sadoqat va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. uza.uz // Zahiriddin Muhammad Bobur: eng sara ruboiylar [Elektron resurs]. — URL: https://uza.uz/oz/posts/zahiriddin-muhammad-bobur-eng-sara-ruboiylar_688195
2. uza.uz // Boburnoma va jahon [Elektron resurs]. — URL: https://uza.uz/uz/posts/boburnoma-va-zhahon_565262
3. **Xodjayev B.** *Umumiy pedagogika*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
4. **Ahmedov B. A.** *Temuriylar davri madaniyati va ma’naviyati*. — Toshkent: Fan, 1996.
5. **Imomnazarov M.** *Milliy ma’naviyatimiz asoslari*. — Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
6. **Hasanov S.** *Sharq mutafakkirlari axloqiy qarashlari*. — Toshkent: Fan, 2003.

«BOBURNOMA» VA BOBUR ADABIY MEROSI: TARIXIY VOQEALAR, IJTIMOIY HAYOT VA MADANIY MUHIT AKS ETISHI

Mamatqulova Maftuna Hayitmurod qizi

Sharof Rashidov tumani MMTB ga qarashli 19-maktab

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburn- ing "Boburnoma" asari va uning badiiy-adabiy merosi tarixiy manba va adabiy yodgorlik sifatida tahlil qilinadi. Asarda muallif guvoh bo'lgan siyosiy jarayon- lar, harbiy yurishlar va diplomatik munosabatlar bilan bir qatorda kundalik tur- mush, ijtimoiy qatlamlar, urf-odatlar, shahar madaniyati, ilm-fan va san'at muhiti haqida muhim ma'lumotlar jamlangan. Tadqiqotda "Boburnoma"dagi voqeaband- lik, tasviriy detal, geografik-etnografik kuzatuvlar hamda muallifning estetik qarash- lari badiiy tafakkur taraqqiyoti nuqtai nazaridan yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Bobur, Boburnoma, memuar, tarixiy manba, ijtimoiy hayot, madaniy muhit, adabiy meros.*

Аннотация. *В статье анализируются «Бабур-наме» Захириддина Мухаммада Бабура и его литературное наследие как уникальный синтез историческо свидетельства и художественного текста. Показано, что наряду с описанием*

политических событий, военных походов и дипломатии Бабур фиксирует социальны быт, стратификацию общества, городскую культуру, обычаи, а также сведения

о науке и искусстве своей эпохи. Особое внимание уделяется повествовательной стратегии, роли детали, географо-этнографическим наблюдениям и эстетическим взглядам автора.

Ключевые слова: *Бабур, Бабур-наме, мемуары, исторический источник, социальна жизнь, культурная среда, литературное наследие.*

Abstract. *This paper examines Zahiriddin Muhammad Babur's Babur-*

nama and his literary heritage as a rare combination of first-hand historical tes- timony and artistic narrative. Along with political developments, military cam- paigns, and diplomacy, Babur records everyday social life, social strata, urban culture, customs, and observations on science and the arts. The study highlights the narrative structure, the use of vivid

detail, geographic and ethnographic de- scriptions, and the author's aesthetic outlook.

Keywords: *Babur, Baburnama, memoir, historical source, social life, cultural mi- lieu, literary heritage.*

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) nomi Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida davlat arbobi sifatida, adabiyot tarixida esa nozik didli shoir hamda yirik memuarist sifatida mustahkam o‘rin egallaydi. Uning *“Boburnoma”* asari turkiy (chig‘atoy) adabiyotida memuar janrining eng mukammal namunalardan biri bo‘lib, muallifning shaxsiy tajribasi, siyosiy qarashlari va estetik didi uyg‘unlashgan manba sifatida baholanadi. “Boburnoma”ning ahamiyati shundaki, u faqat hukmdorlar tarixi yoki harbiy yur- ishlar bayoni bo‘lib qolmaydi: Bobur voqealar orasida inson xarakteri, shaharlar ruhiyati, tabiat manzaralari, muhitning madaniy qiyofasi, xalq hayotining mayda ko‘rinishlarini ham tasvirlaydi. Shu jihatdan asar tarixchi, filolog, etnograf, madaniy- atshunos hamda adabiyotshunos uchun birdek qimmatli.

Ushbu maqolaning maqsadi “Boburnoma” va Bobur adabiy merosida (she’riy de- von, lirika va boshqa yozma manbalar doirasida) tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot hamda madaniy muhitning aks etish xususiyatlarini tizimli ravishda yoritishdir.

“Boburnoma” ko‘pincha memuar, tarixiy-xotira, sayohatnoma va badiiy-publitsistik asar xususiyatlarini birlashtirgan murakkab janrli matn sifatida tavsiflanadi. Mual- lif bayoni bir tomondan shaxsiy “men”ga tayanadi: ko‘rgan-bilganini, sezganini, baholaganini yozadi. Ikkinchi tomondan esa voqealarni xronologik ketma-ketlikda, sabab-oqibat aloqalarini izohlab, joy nomlari va shaxslar doirasini aniq ko‘rsatib beradi. Manbashunoslik nuqtai nazaridan “Boburnoma”ning kuchli tomoni — kuzatuvchan- lik va tafsilotga e’tibor. Bobur ko‘pincha jang natijasini yoki

siyosiy qarorni bir- gina jumla bilan emas, balki unga olib kelgan omillar (ichki nizolar, ittifoqlar, resurs, geografik sharoit, qo‘shin kayfiyati) bilan birga ko‘rsatadi. Bunday uslub keyingi tadqiqotlarda voqeani rekonstruksiya qilishga imkon beradi.

Badiiylik nuqtai nazaridan esa asarda xarakter yaratish, portret berish, muhitni “jonlantirish” kabi elementlar ustuvor. Bobur tasvirlayotgan shaxslar ko‘pincha bir-ikki muhim xususiyati orqali esda qoladi: ularning jasorati, murosasizligi, sax- ovati yoki aksincha, hiylasi, beqarorligi muallif nigohida baholanadi. Bu esa asarni faqat tarixiy hujjat emas, balki badiiy tafakkur mahsuli sifatida o‘qishga undaydi.

“Boburnoma”ning katta qismi siyosiy kurashlar va harbiy harakatlar bilan bog‘liq. Asarda Movarounnahrdagi taxt uchun kurashlar, Samarqand va Andijon atrofidagi ziddiyatlar, Xurosondagi vaziyat, keyinchalik Afg‘oniston va Hindiston tomon yo‘nalgan yurishlar izchil yoritiladi. Bobur ko‘pincha g‘alaba va mag‘lubiyatlarni faqat kuch bilan emas, boshqaruvdagi xatolar, ittifoqchilarning beqarorligi, aholi kayfiyati, ob-havo, yo‘l-yo‘riq masalalari bilan ham tushuntiradi.

Diplomatik munosabatlar masalasida ham muallif ko‘plab kuzatuvlar beradi: elchi- lar yuborish, kelishuvlar tuzish, qarindoshlik va siyosiy nikohlar, sovg‘a-salomlar, odatdagi protokol qoidalari haqida yozadi. Bular davlat boshqaruvi va siyosiy madaniyatning amaliy tomonlarini ko‘rsatadi. Tarixiy voqealarni yoritishda muhim jihat — muallifning halollikka intilishi: Bobur o‘z qarorlaridagi xatolarni, ayrim yurishlarning muvaffaqiyatsiz yakunini ham yashir- masdan qayd etadi. Shuningdek, raqiblarni ham biryoqlama yomonlamay, ularn- ing kuchli tomonlarini tan olishi ko‘pincha seziladi. Bu xolislik darajasi asarni tarixiy ishonchlilik mezoni bo‘yicha ham yuqori pog‘onaga ko‘taradi.

“Boburnoma”da ijtimoiy hayotning ko‘plab bo‘laklari uchraydi: aholi yashash tarzi, qishloq va shahar muhitidagi farqlar, bozorlardagi savdo-sotiq, hunarmand- chilik, soliq va ta’minot masalalari, harbiy intizom, saroy

ichki tartibi va marosim- lar. Bobur o‘quvchini voqea markazida turgan hukmdor sifatida emas, ba’zan oddiy kuzatuvchi sifatida ham ergashtiradi. Jamiyat qatlamlari tasvirida saroy ahli, amirlar va lashkarboshilar bilan bir qa- torda, oddiy xalqning kayfiyati va roli ham ko‘rinadi. Masalan, shaharlarning taslim bo‘lishi yoki qarshilik ko‘rsatishi, aholi migratsiyasi, oziq-ovqat taqchilligi, urushning tinch hayotga ta’siri kabi masalalar bevosita yoki bilvosita qayd etiladi. Ijtimoiy hayotning yana bir muhim tomoni — axloqiy-me’yoriy munosabatlar: do‘stlik va vafodorlik, xiyonat, adolat, saxovat, jazo va mukofot tizimi. Bobur ko‘pincha biror hodisani hikoya qilar ekan, uning “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri”ligini ham baholaydi. Bunday baho shaxsiy dunyoqarash bilan birga davrning siyosiy- axloqiy me’yorlarini ham yoritadi.

Bobur madaniy muhitni yoritishda juda keng qamrovli: shaharlarning obodligi, me’moriy qiyofasi, bog‘lar, suv inshootlari, mahalliy hunar va mahsulotlar, adabiy majlislar, olim va shoirlar, musiqiy an’analar haqida to‘xtaladi. Uning shaharlar tasvirida “madaniyat mezonlari” seziladi: obodonchilik, bog‘sozlik, suv ta’minoti, adabiyot va ilm ahlining mavjudligi muhim ko‘rsatkich sifatida ko‘riladi. “Boburnoma”dagi tabiat manzaralari oddiy dekorativ tasvir emas; ular muallifn- ing tafakkuri va estetik didini namoyon etadi. Geografik tafsilotlar (daryo, tog‘, yo‘l, iqlim) ko‘pincha tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liq: qaysi yo‘ldan yurish mumkin, qayerda qo‘shin to‘xtaydi, qaysi faslda qaysi hudud xavfli yoki qulay. Demak, tabiat tasviri badiiylik bilan birga pragmatik ma’lumot vazifasini ham ba- jaradi.

Madaniy muhitga oid yozuvlarda etnografik elementlar ham uchraydi: turli hudud- lar aholisi urf-odatlari, marosimlari, taomlari, kiyinish uslubi, til va lahja farqlari haqida qaydlar. Bunday ma’lumotlar hozirgi madaniyatshunoslik va antropologiya uchun ham muhim. Boburning adabiy merosi, avvalo, uning she’riyati bilan chambarchas bog‘liq. Lirik asarlarda shaxsiy kechinmalar, vatan sog‘inchi, sadoqat, do‘stlik, vaqt va taqdir, g‘urbat, davlat va mas’uliyat kabi mavzular keng aks etadi. “Boburnoma”da

huk- mdor va sarkarda sifatida ko‘ringan muallif she’riyatda ko‘pincha insoniy, nozik ruhiy holatlar bilan namoyon bo‘ladi. Bu ikki qirra bir-biriga zid emas: aksincha, Bobur matnlarida tarixiy ong bilan shaxsiy “men” uyg‘unlashadi. Memuarda aniq voqea, lirikada esa o‘sha voqealarning ichki aks-sadosi ko‘rinadi. Natijada Bobur merosi davr ruhiyati va madaniy at- mosferasini ikkita o‘lchovda — fakt va hissiyot, tashqi voqelik va ichki kechinma orqali berishga xizmat qiladi. Til va uslub jihatidan Bobur matnlarida aniqlik va soddalik ustuvor: ortiqcha beza- kdan ko‘ra ma’no va kuzatuv muhim. Bu esa uning asarlarini keng o‘quvchi doirasi uchun o‘qilishi yengil, tadqiqotchilar uchun esa tahlilga qulay qiladi.

“Boburnoma”dan olingan ma’lumotlar bir necha yo‘nalishda tadqiqotlarga asos bo‘la oladi:

- **Tarixshunoslik:** siyosiy voqealar xronologiyasi, shaxslararo munosabatlar, harbiy strategiya va boshqaruv amaliyoti.
- **Manbashunoslik:** muallif nigohi, bayon uslubi, ishonchlilik, tahrir masalalari va matnning turli nusxalari bilan ishlash.
- **Madaniyatshunoslik:** shahar hayoti, urf-odatlar, marosimlar, san’at va adabiy muhit.
- **Geografiya va etnografiya:** tabiiy sharoit, yo‘llar, iqlim, mahalliy aholi tavsifi va kundalik turmush detallari.

Shu bilan birga, asardan foydalanishda metodik ehtiyotkorlik zarur: muallif har qanday holatda ham o‘z davrining farzandi va siyosiy kurashlarning faol ishtirokchi- sidir. Demak, ayrim baholar subyektiv bo‘lishi mumkin; ammo subyektivlikning o‘zi ham davr mentaliteti va muallif pozitsiyasini anglashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, *“Boburnoma”* Bobur davridagi siyosiy jarayonlarni bir- inchi shaxs nigohi bilan yoritib beradigan noyob tarixiy manba bo‘lish bilan birga, yuksak badiiy qiymatga ega memuar asardir. Unda tarixiy voqealar aniq tafsilotlar bilan, ijtimoiy hayot turli qatlam va muhit ko‘rinishlari bilan, madaniy muhit esa shaharlar, ilm-fan, san’at

hamda tabiat tasvirlari orqali jonli aks ettiriladi. Boburn- ing lirik merosi esa ushbu tarixiy makon va zamonning ruhiy-psixologik man- zarasini to‘ldiradi; natijada Bobur ijodi fakt va hissiyot, siyosat va madaniyat, shaxs va jamiyat uyg‘unligini ko‘rsatadigan yaxlit adabiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Bobur Z. M.** *Boburnoma*. — Toshkent: Ijod Press, 2020.
2. **Qayumov A.** *Bobur va uning adabiy merosi*. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1998.
3. **Karomov N.** *O‘zbek adabiyoti tarixi: mumtoz davr*. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2005.
4. **Beveridge A. S.** *The Baburnama in English*. — London: Luzac & Co., 1922.

ZAHRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODINING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Mirsidikova Aziza Mirvohidovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda Bobur shaxsining shakllanishiga ta’sir etgan tarixiy sharoit, uning irodaviy fazilatlari, hissiy kechinmalari hamda adabiy merosida aks etgan ichki dunyosi yoritiladi. Tadqiqot*

natijasida Bobur kuchli iroda sohibi, nozik qalbli shoir va chuqur tafakkur egasi sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, shaxs psixologiyasi, psixologik tahlil, tarixiy sharoit, irodaviy fazilatlar, hissiy kechinmalar, ichki dunyo, adabiy meros, shoir shaxsi, tafakkur va ruhiyat.*

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические особенности жизни и творчества Zahiriddin Muhammad Bobur. Освещаются исторические условия формирования его личности, волевые качества, эмоциональные переживания и внутренний мир, отражённый в литературном наследии. В результате исследования обосновывается, что Бабур проявляется как сильная личность, тонко чувствующий поэт и глубокий мыслитель.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, психология личности, психологический анализ, исторические условия, волевые качества, эмоциональные переживания, внутренний мир, литературное наследие, личность поэта, мышление и духовность*

Annotation. *This article analyzes the psychological characteristics of the life and works of Zahiriddin Muhammad Bobur. It examines the historical conditions that shaped his personality, his strong will, emotional experiences, and inner world reflected in his literary heritage. The study concludes that Babur appears as a strong-willed leader, sensitive poet, and profound thinker.*

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, personality psychology, psychological analysis, historical conditions, volitional qualities, emotional experiences, inner world, literary heritage, poet’s personality, cognition and spirituality.*

Kirish

Sharq uyg‘onish davrining yirik namoyandasi bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) nafaqat sarkarda va davlat arbobi, balki teran tafakkur sohibi, nozik didli shoir sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Uning serqirra faoliyati va boy adabiy merosi shaxs psixologiyasi nuqtai nazaridan ham katta ilmiy

ahamiyatga ega. Ayniqsa, Boburnoma asari orqali Boburning ichki dunyosi, ruhiy holatlari va hayotga munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ulug‘ shoh Bobur Mirzo Hindistonda davlat ishlari bilan bir qatorda o‘zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Bobur Mirzoning butun jahon ommasiga mashhur bo‘lgan shoh asari “Boburnoma”dir. Ma’lumki, unda Bobur Mirzo yashagan davr oralig‘ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi-XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni; ikkinchi qismi – XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg‘onistonda ro‘y bergan voqealarni; uchinchi qismi-XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag‘ishlangan. ”Boburnoma”da o‘sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o‘z yurti Farg‘ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O‘sh, Urganch, O‘ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma’lumotlar keltirilgan. Unda Qobul ulusining yirik shaharlari Qobul, G‘azna va ular ixtiyoridagi ko‘pdan-ko‘p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma’lumotlarni uchratish mumkin.

“Boburnoma”ni varaqlarkanmiz, ko‘z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlariga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o‘sha davrdagi hayot muammolari, Bobur Mirzo davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to‘liq manzarasi namoyon bo‘ladi. “Boburnoma”da keltirilgan bu tarzdagi ma’lumotlar Bobur Mirzo davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif ”Boburnoma”da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug‘bek va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi.

“Boburnoma”-Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks ettirgan bo‘lsa ham, shu bilan birga juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug‘rofiy mavqei, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari — hindlar ibodatxonalari va musulmonlarning masjidlari, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o‘zida qamrab olgan shoh asardir. Shuning uchun ”Boburnoma” tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda.

Uzoq yillar davomida G‘arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari “Boburnoma” mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko‘rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J. Leyden, V. Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, germaniyalik Yu. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R.R.Art va N. I.Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg‘onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. ”Boburnoma”ni o‘rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar.

Ma’lumki, ulug‘ alloma Bobur Mirzoning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish va ommalashtirishda O‘zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N.Ilminskiy, O.Senkovskiy, M.Salye, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V.Zohidov, Ya.G‘ulomov, R. Nabiyev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa’y-harakatlari bilan “Boburnoma” bir necha bor rus va o‘zbek tillarida chop etildi, ularga so‘zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma’naviy mulkiga aylantirildi, uning she’rlari ham bir necha bor nashr etildi.

Asosiy qism

1. Bobur shaxsining shakllanishida tarixiy sharoitning ta’siri

Bobur yoshligidan murakkab siyosiy muhitda voyaga yetgan. Otasining vafotidan so‘ng 12 yoshida taxtga o‘tirishi unda erta mas’uliyat hissini shakllantirdi. Doimiy kurashlar, mag‘lubiyat va g‘alabalar almashinuvi uning ruhiyatini chiniqtirdi. Psixologik jihatdan bu holat shaxsda:

yuqori darajadagi chidamlilik,

qat’iyat,

stressga bardoshlilik

kabi sifatlarning rivojlanishiga olib kelgan.

2. Irodaviylik va maqsadga intiluvchanlik

Bobur hayoti davomida ko‘plab sinovlarni boshdan kechirgan bo‘lsa-da, o‘z maqsadidan voz kechmagan. Movarounnahrni qo‘lga kirita olmagach, yangi yo‘l tanlab, Hindistonda qudratli davlat barpo etdi. Bu uning kuchli motivatsiya va strategik tafakkur egasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

3. Hissiylik va vatan sog‘inchi

Bobur shaxsiyatining muhim jihatlaridan biri — uning chuqur hissiyotga boyligi. U uzoq yurtlarda yashagan bo‘lsa ham, tug‘ilib o‘sgan diyorini sog‘inib yashagan. Asarlarida tabiat tasviri, bolalik xotiralari va vatanga muhabbat tez-tez uchraydi. Bu holat emigratsiya psixologiyasiga xos bo‘lgan nostalgiya tuyg‘usini ifodalaydi.

4. Ijodida samimiylik va o‘zini tahlil qilish

Bobur o‘z davri hukmdorlariga xos bo‘lmagan tarzda o‘z hayotini ochiq bayon qilgan. U o‘z xatolari, qo‘rquvlari va shaxsiy kechinmalarini yashirmagan. Bu o‘z-o‘zini anglash va refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarga xos xususiyatdir.

5. Lirik dunyoqarash va estetik did

Bobur she’riyati inson ruhiyati, muhabbat, do‘stlik va hayotning o‘tkinchiligi kabi mavzularni qamrab oladi. Uning lirik qahramoni ko‘pincha nozik qalbli, mulohazali va hayot mazmuni haqida o‘ylovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik Hususiyatlari

Yoshligidan mas'uliyat hissi Bobur 12 yoshida taxtga chiqib, juda erta katta mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Bu uning ruhiy pishiq, qat'iyatli va bardoshli bo'lishiga sabab bo'ldi.

Ijodiy sezgirlik va estetik did Bobur she'riyatda nafis g'azal va ruboiylar yaratgan. Bu uning nozik ruhiy sezgirligi, go'zallikka intilishi va ichki dunyosining boyligini ko'rsatadi.

Realizm va kuzatuvchanlik "Boburnoma" asarida tabiat, odamlar, siyosiy voqealar juda aniq va real tasvirlangan. Bu Boburning kuchli kuzatuvchanligi va voqealarni xolis baholash qobiliyatidan dalolat beradi.

Intellektual kenglik U nafaqat shoir, balki tarixchi, geograf va tilshunos sifatida ham ijod qilgan. Bu uning tafakkur kengligi va ilmga chanqoqligini ko'rsatadi.

U nafaqat shoir, balki tarixchi, geograf va tilshunos sifatida ham ijod qilgan. Bu uning tafakkur kengligi va ilmga chanqoqligini ko'rsatadi.

Kurashchanlik va iroda kuchi Hayoti davomida ko'plab siyosiy va harbiy kurashlarda qatnashgan. Bu uning psixologik jihatdan bardoshli, iroda kuchi yuqori shaxs bo'lganini ko'rsatadi.

Ijodidagi Psixologik Ranglar

She'rlarda ichki kechinmalar – Bobur ko'pincha g'urbat, sog'inch, vatanga muhabbat kabi tuyg'ularni ifodalagan.

Tarixiy asarlarda xolislik – "Boburnoma"da o'zining yutuq va kamchiliklarini ham ochiq yozgan. Bu o'zini tanqid qila oladigan, halol shaxs sifatida psixologik yetukligini ko'rsatadi.

Ilmiy risolalarda tartib va mantiq – Aruz haqidagi risolalari, "Mubayyin" kabi asarlari uning tafakkurida mantiqiylik va tizimlilik kuchli bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi shuni ko‘rsatadiki, u tarixda nafaqat buyuk sarkarda, balki murakkab va boy ichki dunyoga ega shaxs sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Uning psixologik portreti quyidagi fazilatlar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi:

kuchli iroda va qat’iyat

hissiy sezgirlik

vatanparvarlik

optimizm va sabr

o‘zini anglash qobiliyati

Bobur fenomeni shaxs psixologiyasi, adabiyotshunoslik va tarix fanlari kesishgan nuqtada o‘rganilishi lozim bo‘lgan noyob hodisadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Zahiriddin Muhammad Bobur** *Boburnoma*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
2. **Zahiriddin Muhammad Bobur** *Devon*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2008.
3. **Pirimqul Qodirov** *Yulduzli tunlar*. — Toshkent: Sharq, 2011.
4. **Vohid Abdullayev** *O‘zbek adabiyoti tarixi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
5. *O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. — Toshkent: O‘ME nashriyoti, 2000–2005.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATI VA IJODINING XALQARO MIQYOSDA O’RGANILISHI VA UNING AHAMIYATI

Murotova Muxlisa Yorqin qizi
Buxoro davlat Pedagogika instituti

Yod etmas emish kishini mehnatta kishi
Shod etmas emish ko'ngulni g'urbatta kishi
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi hech
G'urbatta sevunmas emish,albatta kishi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiyati, siyosiy faoliyati va ijodi o'rganiladi. Boburning shoh sifatidagi davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va Hindistondagi boburiylar sulolasini barpo etishi, shuningdek, mumtoz adabiyot, tilshunoslik, etnografiya va san'at sohalaridagi xizmatlari tahlil qilinadi. Maqolada Hindiston va Bangladeshdagi Bobur merosining xalqaro miqyosda qadrlanishi misollar bilan ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, boburiylar sulolasi, Boburnoma, Hindiston tarixi, mumtoz adabiyot, xalqaro meros*

Abstract: *This article explores the personality, political activity, and literary work of Zahiriddin Muhammad Babur. It analyzes Babur's governance, military campaigns, and the establishment of the Mughal dynasty in India, as well as his contributions to classical literature, linguistics, ethnography, and arts. The paper also illustrates the international recognition of Babur's legacy in India and Bangladesh.*

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, Mughal dynasty, Baburnama, history of India, classical literature, international heritage*

Аннотация: *В данной статье рассматривается личность, политическая деятельность и литературное наследие Zahiriddin Muhammad Бабура. Анализируются управление государством, военные кампании и создание династии Моголов в Индии, а также его вклад в классическую литературу, языкознание, этнографию и искусство. Приводятся примеры международного признания наследия Бабура в Индии и Бангладеш.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, династия Бабуридов, Бабурнаме, история Индии, классическая литература, международное наследие*

Har bir xalqning tarixiy,madaniy-milliy qiyofasini aniq belgilovchi ulug' shohlari,buyuk olimlari,yirik adib va shoirlari bo'ladi.Masalan: O'zbek mumtoz adabiyoti va davlatchiligi tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning o'rni alohida. Uning shaxsiyati va ijodi xalqning madaniy va tarixiy merosini aks ettiradi. Kishilik tarixida Boburchalik iqtidor va fazilatlari beqiyos kishilar juda kam uchraydi.[20]

Chindan ham Bobur-buyuk podshoh,mumtoz shoir,adabiyotshunos,tilshunos,etnograf,san'atshunos,hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'pqirrali faoliyat va ijod sohibi edi.Buni uning ''Boburnoma'' asaridan ham bilib olishimiz mumkin.

Bundan tashqari mashhur hind arbobi Javohirla'l Neru o'zining ''Hindistonning ochilishi'' va ''Jahon tarixiga bir nazar''asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida samimiyatga to'liq ushbu fikrlarni izhor etgan: ''Bobur-dilbar shaxs.Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir.U mard va tadbirkor odam bo'lgan.Bobur o'ta madaniyatli va jozibador insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi.U mansabparastlik kabi illatlardan va mutaassiblikdan yiroq edi...Bobur san'at va ayniqsa adabiyotni sevar edi.''[21]

Bobur,birinchi navbatda shoh,boburiylar sulolasining asoschisi.Bizga ma'lumki,u podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu,zafarlarning ulug'vor nashidalarini surishni ko'p marotoba o'z boshidan kechirgan.Xususan Farg'onadan keyin Samarqandga oshiqqan,lekin u yerda Shayboniyxondan yengilib,Kobulga keldi va keyin Hindistondek bepayon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi.Buyuk shoh Bobur Hindistonda ham temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'analarini davom ettirdi:muhtasham qasrlar

[20] Vahob Rahmonov ''Bobur shoh va shoir''.O'zbekiston adabiyoti va san'ati''gazetasining 2013-yil 36-sonidan.

[21] ,Javoharla'l Neru ,,Hindistonning kashf etilishi" O'zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil.

tiklash,ariq-kanallar qazish,bog'-rog'lar bunyod etish,adabiyot,ilm-fan rivojiga homiylik qilish,elni adolat bilan boshqarish singari ezgu ishlari keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi.

Bugungi kunda ham Hindistonning Panipat shahriga borgan kishi Zahiriddin Muhammad Boburning Sulton Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan tarixiy muzaffarona jangi manzaralarini shaharning ochiq osmoni ostidagi muzeyda ko'rarkan,ulug' hind xalqining Boburga nisbatan hurmat-ehtiromi kuchliligiga amin bo'ladi.

Yoki Bangladeshning poytaxti Dakka shahrini kezgan kishi ''La'lbog'-qal'a'' tarixiy muzeyiga kirib Bobur va boburiylarga bag'ishlangan xonalarni kezarkan,Bobur va uning vorislariga tegishli kiyimlar,uy-ro'zg'or buyumlari,harbiy qurol-aslahalar,dubulg'a,ot kejimlari xullas o'sha davrning odamlarini o'z kiyimlarida tomosha qilgan kishi Hindiston va Bangladesh xalqlarining Bobur va boburiylarga bo'lgan hurmatlarini yorqin tasavvur eta oladi.Bundan ko'rinib turibdiki,Hindiston va Bangladeshda Bobur va uning saltanati shunchalik qadrlanishidan Bobur va vorislarining podsholiklari bu yurtlarda xayrli chuqur iz qoldirilganligiga guvoh bo'lamiz.[22]

Buyuk tarixiy siymo sifatida Bobur shaxsi Yevropa va AQSH sharqshunos-tarixchi olimlari diqqat e'tiborini o'ziga jalb qilgan.Masalan,ingliz tarixchisi Eduard Holden,avvalo,Boburni mashhur Yuliy Sezar bilan qiyoslashni lozim topadi: ''Bobur fe'l-atvoriga ko'ra Sezarga qaraganda arzigulikdir.Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan''.

Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o'smirlik yillari haqida roman yozgan, ''Boburnoma''ning ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podsholariga nisbatan shunday baholaydi: ''Saxovatliligi va mardligi,iste'dodi,ilm-fan va san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi''.[23]

[22] Vahob Rahmonov "Bobur shoh". ''Ma'rifat"gazetasi 2008-yil.

[23] Uilyam Erksin.''Bobur Hindistonda''.Toshkent.71-72-bet.

Bobur shuhratda daho Alisher Navoiyning yonida turadigan mumtoz so'z san'atkori,shoir va adibdir.Badiiy adabiyot bobida birorta ham o'zbek shoh va shoiri Bobur bilan bellasha olmaydi.Buning ustiga uning mumtoz she'riyatga dadil kiritgan tarjimayi hollik xususiyati ham Bobur she'riyatini alohida nurlantirib turadi.Aynan ana shu keyingi xususiyat shoirning vatanparvarlik tuyg'ulariga jon bag'ishlaydi.U ona shahri,Vatani sog'inchlarini she'rda ifodalar ekan quyidagi satrlar orqali o'ziga jalb qiladi:

Ne yerda bo'lsang,ey gul,andadur chun joni Boburning
G'aribingg'a tarahhum aylagilkim,andijoniydur.

Shoirona yurtsevarlik,vatanfidoiylik Bobur shaxsida shunchalik tantana qiladiki,buyuk hukmdor Bobur endi Andijondan yiroqlikni,garchi bu martaba Hindiston taxti bo'lsa ham ,qismatdagi yuz qarolig',deb hisoblaydi:

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin,ne yuz qarolig' bo'ldi.[24]

Bundan ko'rinib turibdiki,hech bir shoir vatandan yiroqlik fojeasini Boburchalik ko'ptomonlama va ta'sirchan ifodalay olmasa kerak.

Zahiriddin Muhammad Bobur fiqh ilmida ham salohiyatga ega edi.U bir umr shariatpanoh hukmdor bo'lib yashadi;shariatga amal qildi;shar'iy hukmlar berdi va fiqhga oid ''Mubayyin''nomli asar yozdi.

Bundan tashqari, ''Boburnoma''ning oxirgi varog'idagi kotib ilovalariga e'tibor berilsa,Boburning yana bir nechta kitoblar yozgani haqida ma'lumot olish mumkin.

Musiqaga oid ayrim kitoblarda Boburning ''Musiqa sirlari'' nomli risolasi tilga olinadi.Afsuski,bu asarni izlash hozirgacha ijobiy natija bermayapti.

[24] ."Boburnoma".Toshkent.1960-yil.46-47-betlar.

Lekin tan olish kerakki,yozgan barcha asarlari ichida "Boburnoma"ning o'rni bo'lakcha.Bu Boburning Shoh asari deb aytishimiz mumkin.

‘’Boburnoma’’-avvalo,yetuk,badiiy asar.Asardagi voqea-hodisalar muayyan ma’noda uning qismat sarguzashtlariga chambarchas tutashib ketgan.Shuning uchun ham ushbu asarni boshidan oxirigacha o’qigan kitobxon o’smir Boburni,yigit shahzoda Boburni,oshiq Boburni,umrbod jangovor lashkarboshi Boburni,podshoh va mutafakkir,mehribon ota Boburni,barcha zafaru mag’lubiyatlari,fazilatlariyu nuqsonlari bilan ravshan tasavvur eta oladi.

Agar ‘’Boburnoma’’yozilmasa,bizning Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy hayotlari,faoliyatlari va ijodlari,xususan shaxslari haqidagi tasavvurlarimiz anchayin yuzaki bo’lib qolgan bo’lardi.[25]

“Boburnoma’’da tarixiy voqea-hodisalarning yuz berishi sabab va oqibatlari o’ta puxtalik,teranlik bilan o’z talqinini topgan.Bu asar kitobxon uchun go’yo ko’pseriyali film.Bu ulug’ ko’zguda deyarli 50 yillik Movorounnahr,Xuroson,Hindiston va ularga yondosh mamlakatlarda kechgan voqea-hodisalar tizilishib kitobxon ko’z o’ngida birma bir namoyon bo’ladi.

Shu bilan birgalikda “Boburnoma”ni ajoyib voqeiy tarixiy roman deyishimiz ham o’rinli.Chunki jang-jadallar tarixiy asarlardagidek hisobot-axborot tarzida emas, balki,badiiy asarga xos yuz xil qiyofali,fe’l-atvorli kishilar faoliyati tasviri orqali ko’rsatiladi.

“Boburnoma”undagi tarixiy shaxslarning ko’pligi,sulolalar va saltanatlar taraqqiysi va tanazzulini yorqin namoyon etuvchi badiiy-ilmiy hujjat,urushlar tarixi,jang qurol-yarog’lari,jangga saf tortish va jang usullari,davlatlararo va shohlar aro munosabatlar yilnomasi sifatida qimmatli tarixiy manbadir.

Bu asar juda qimmatli manbaki,butun jahon e’tiborini tortgan va bir qancha tillarga tarjima qilingan.Xususan,fransuz tiliga tarjima qilgan Pave de Kurteyl Boburga quyidagicha haqqoniy baho beradi: ”Har qanday sinovga bardosh bera

[25] Bobur.Tanlangan asarlar. T.:1958; Bobur.Asarlar.Uch jildlik.-T.:fan,1965-1966; Bobur.”Boburnoma”. – T.:1960,1989; Bobur.Muxtasar.Toshkent,1971-yil

oluvchi,iroda va matonatni mujassamlashtirgan bu zot o'zida harbiy hiyla va jasoratni uyg'unlashtira olar,zarur bo'lganda jazolashga ham,avf etishga ham qodir edi; u iste'dodli harbiy arbob va ishning ko'zini biladigan,qo'shinlarni mohirlik bilan boshqara oladigan,ularning ishonchini qozona olgan sarkarda edi..."

Bundan tashqari,ingliz boburshunos olimi Leyn Puul ham aynan manashu asar haqida juda qimmatli mulohazalar berib o'tgan:"Boburning xotiralari bir askarning harbiy yurish va chekinishlari haqidagi oddiy kundalik daftar emas;bu xotiralarda Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan,nozik va bilimdon kuzatuvchi,odamlarni sinchiklab o'rganadigan,ular haqida xolis va odil fikr yurita oladigan go'zal bir qalb egasining dunyo haqidagi shaxsiy taassurotlari va fikrlari berilgan..."

Hozirgi kunda yurtimizda Bobur fondi tashkil qilingan va uning raisi Zokirjon Mashrabov.U boshchiligidagi ekspiditsiya o'z safarlari davomida Bobur qadamjolari bo'lgan va boburiylarga daxldor muzeylar,shaharlar va odamlar haqida yigirma beshta kino va video-filmlar yaratishga muyassar bo'lgan.[26]

Bobur fondi xalqaro Bobur mukofotini ham ta'sis etdi.Bu mukofot jahon olimlari,rassomlari,adib va shoirlari,kinosanatkorlarning Bobur va boburiylar haqidagi eng yaxshi ishlariga beriladi.Hozirgacha bu mukofotga Hindistondan Qamar Rais,Afg'onistondan Shafiqa Yorqin,Yaponiyadan Eyji Mano,O'zbekistondan Pirimqul Qodirov,Sabohat Azimjonova va boshqalar sazovor bo'lishgan.

Ayni damlarda ham Bobur hayoti va ijodi bilan jahon olimlari muntazam shug'ullanmoqdalar.Xalqaro Bobur fondi jamoasi esa Andijonda o'ziga xos Bobur akademiyasini barpo etishga sidqidildan harakat qilmoqda.[27]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinkii, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va merosi nafaqat o‘zbek xalqi, balki jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o‘rin egallaydi. Uning siyosiy faoliyati, bunyodkorlik an'analari va betakror ijodi Sharq

[26] Bobur Xalqaro Fondi:"Zahiriddin Muhammad Bobur" –T.: "SHARQ" n-2008-yil

[27] Zahiriddin Muhiddinov: "Bobur Mirzo" –Andijon.: :ANDIJON NASHRIYOT –MATBAA"n-2005-yil.

va G‘arb madaniyatlarini bog‘lovchi mustahkam ko‘prik vazifasini bajargan. Bobur tomonidan yaratilgan “Boburnoma” esa tarix, adabiyot va madaniyatni uyg‘unlashtirgan nodir ilmiy-manbaviy asar sifatida bugungi kunda ham xalqaro miqyosda o‘rganilmoqda. Shu bois Bobur merosini chuqur tadqiq etish va yosh avlod ongiga singdirish milliy o‘zlikni anglash hamda umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. **Vahob Rahmonov** «Bobur shoh va shoir» // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. — 2013. — 36-son.
2. **Javoharla’l Neru** *Hindistonning kashf etilishi*. — O‘zME, 1-jild. — Toshkent, 2000.
3. **Vahob Rahmonov** «Bobur shoh» // Ma’rifat gazetasi. — 2008.
4. **Uilyam Erksin** *Bobur Hindistonda*. — Toshkent. — B. 71–72.
5. *Boburnoma*. — Toshkent, 1960. — B. 46–47.
6. **Bobur** *Tanlangan asarlar*. — T., 1958;

Bobur *Asarlar. Uch jildlik*. — T.: fan, 1965–1966;

Bobur *Boburnoma*. — T., 1960, 1989;

Bobur *Muxtasar*. — Toshkent, 1971.

7. *Zahiriddin Muhammad Bobur*. — T.: SHARQ, 2008.
8. **Zahiriddin Muhiddinov** *Bobur Mirzo*. — Andijon: Andijon nashriyot-matbaa, 2005

TARIXIY HAQIQAT VA BADIIY NIGOH MASALASIDA BOBUR VA SHAYBONIYXON OBRAZLARI

Pirmatova Durdona Egamberdi qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Аннотация: *В статье анализируется проблема художественной интерпретации исторических личностей в узбекском романоведении периода независимости на примере романа Джовли Хушбока «Мухаммад Шайбани-хан». Освещается изображение образа Захириддина Мухаммада Бабура через призму восприятия Шайбанихана, а также с научной точки зрения рассматриваются взаимоотношения двух великих исторических личностей в новом ракурсе.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, Мухаммад Шайбани-хан, узбекское романоведение периода независимости, исторический роман, историко-биографическое произведение, художественная интерпретация, «Бабурнаме», образ исторической личности.*

Annotation: *This article analyzes the issue of artistic interpretation of historical figures in Uzbek novel-writing of the independence period, based on Jovli Xushboq’s novel “Muhammad Shaybanikhan.” The study examines the portrayal of Zahiriddin Muhammad Babur through the perspective of Shaybani Khan and provides a scholarly interpretation of the relationship between these two great historical figures from a new angle.*

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, Muhammad Shaybani Khan, independence period Uzbek novel-writing, historical novel, historical-biographical work, artistic interpretation, “Baburnama”, image of a historical figure.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida tarixiy shaxslarni badiiy talqin etish masalasi Jovli Xushboqning “Muhammad Shayboniyxon” romani misolida tahlil qilinadi. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur obrazining Shayboniyxon nigohi orqali berilishi, ikki buyuk tarixiy siymo o‘rtasidagi munosabatlarga yangicha rakursdan qarilishi ilmiy jihatdan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon, mustaqillik davri romanchiligi, tarixiy roman, tarixiy-biografik asar, badiiy talqin, “Boburnoma”, tarixiy shaxs obrazi.*

Kirish. “Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi, eng avvalo, insonga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, olam va odam munosabatlarini boshqa rakursdan turib tasvirlashga urinish nuqtayi nazaridan o‘tgan davr adabiyotidan farq qiladi”[3; 3]. Negaki, aynan yaqin yillar o‘zbek tarixiy va tarixiy-biografik romanlarida tasvirlanayotgan buyuk siymolar orasida Shayboniyxon obrazi ham paydo bo‘ldi.

Yozuvchi hamda tanqidchi Jovli Xushboq tomonidan yozilgan “Muhammad Shayboniyxon” romani bugungi kun romanchiligida yangi tarixiy siymolarni badiiy talqin qilishdagi ulkan qadamlardan biri bo‘ldi. Shunisi e’tiborliki, yillar davomida bir-biriga taqqoslab kelingan ikki buyuk tarixiy shox va shoirga nisbatan yozuvchining yosh taxt vorisi Zahiriddin Muhammad Boburga Shayboniyxonning nigohidan qaralganligini va unga nisbatan berilgan fikrlarni ham ko‘rish mumkin.

Romandagi voqealar haqida yozishdan oldin, ayrim mulohazalarni aytib o‘tish joizdir. “Boburnoma”da fikr yuritilgan tarixiy hukmdorlardan biri, albatta, Shayboniyxon hisoblanadi. Chunki davr taqozosi bilan Boburning Movarounnahr sahnasidan ketishi va qaysidir manoda “Hind sori yuzlanish”iga sabab bo‘lgan shaxsni o‘z asarida keltirmaslikning ham iloji yo‘q edi. Bobur o‘zining memuarida Shayboniyxon shaxsiyati va qilgan amallari haqida so‘z yuritar ekan uni temuriylar hukmronligi, madaniyati, tarixi va shuhratiga putur yetkazgan shaxs sifatida tasvirlab beradi.

Bu borada Dilafruz Sayipovaning[4;18] dissertatsiyasidan quyidagi fikrlarni ham keltirish mumkin: “Asarda Bobur bu shaxsning g‘ayriinsoniy xislatlari, janglarda, davlat boshqaruvida ba’zan hiyla-nayrang ishlatishi, har qanday qabihlikdan ham qaytmasligi kabi jihatlariga ko‘proq urg‘u beradi. Shayboniyxon xarakteridagi johillik va berahmlik kabi illatlariga e’tibor qaratgan Bobur uning san’at va adabiyotga qiziqishi borligini, ijod bilan shug‘ullanib, bir devon tuzganligini ham ta’kidlaydi. Bobur asarining boshidayoq aytgan “rostbayonlikka” amal qilgan holda Shayboniyxon shaxsiyatiga baho beradi: “Men Samarqandni ikkinchi navbat olg‘onda, bovujudkim, Shayboniyxondek kishi birla Saripulda chiqib urushub, onchakim imkoni bor edi sa’y va ehtimomdin taqsir qilmaduk... shikast topib kelib, besh oy qal’adorliq qildim, qal’adorliq zabti va istehkomi va

sardorliqda taqsir bo‘lmadi. Atrof va javonibdag‘i podshohlar va beklardin hech nav’ madad va muovanat bo‘lmadi, ma’yus bo‘lub so‘lib chiqtim”[6; 38].

Vaholanki, ularning bir-biriga dushmandek qarashlari va Boburning yoshlik davrida aytilgan yuqoridagi fikrlari tabiiy hol edi. Chunki ikkalasi ham taxtga da’vogar, ikkalasi ham taxtga munosib bo‘lgan. Lekin davr taqazosi bilan kuch kim tomonda bo‘lgan bo‘lsa saltanat ham unga nasib qilgan edi. Qolaversa, Boburning o‘sha paytda harbiy jihatdan kuchi ham ozchilikni tashkil qilgan bo‘lsa, yosh va harbiy tajriba ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan edi.

Asosiy qism. Keyingi yillarda bu ikki bobokalonimizning bir-biriga bo‘lgan munosabati va aloqalari haqida berilgan ko‘plab haqiqatlarni, boshqacha qilib aytganda, tarixiy xatolarni to‘g‘irlashga uringan tanqidiy fikrlarni kuzatamiz. Zamiraxon Isaqova o‘zining “Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon munosabatlariga yangicha yondashuv” nomli maqolasida Vamberining quyidagi fikrlarini keltirib o‘tadi: “Temuriy sulolasining yulduzi so‘nayotgandi va o‘n to‘qqiz yoshli Bobur Mirzo uni to‘xtatishga qodir emasdi. Chingizxon avlodi, Jo‘ji ulusi (Oltin O‘rda) vakili Shayboniy Muhammadxon temuriylarning o‘zaro urushi alanga olayotgan va bosib olish uchun qulay fursat yuzaga kelayotgan lahzada ko‘p sonli o‘zbek otliq askarlari sharofati bilan allaqachon Movarounnahrning ko‘plab muhim nuqtalarini amalda egallab olgandi. Bu omadli jangchi Temuriylar hukmronligiga nuqta qo‘ydi. Bobur va Shayboniyxonning davlatni asrab qolish va mustahkamlash borasida harakatlari ikki tomondan borar edi. Bobur Ismoil Safaviydan yordam so‘rab, hatto, shia mazhabini qabul qilishga ham rozi edi, lekin taxtda o‘tirgan Shayboniyxon eronliklarga qarshi o‘z kuchi bilan qarshi tura olayotgan edi”[1; 2].

Tarixdan bizga ma’lumki, Shayboniyxon Samarqandni egallashga urunganda Bobur va uning tarafdorlari, oila a’zolari bilan birgalikda yetti oy davomida qal’a ichida jon saqlash urunganlar. Jovli Xushboq muallifligidagi “Muhammad Shayboniyxon” romaninining “Eshak, sichqon go‘shtini yeyishga majbur bo‘lishyaptimi?” deb nomlangan qismida aynan Samarqand fadhi voqeasi aks ettirilgan bo‘lib, qamalda qolganlar va qamal qilganlarning bir-biriga munosabati,

xususan, Shayboniyxonning Bobur haqidagi tasavvurlari, fikrlari ko‘rsatib berilgan. Bu qamal voqealari qalandar qiyofasida yuborilgan xufya Mustafoqul qo‘ng‘irot tomonidan xonga ma’lumotlar yetkazish barobarida oydinlashib boradi. Uning keltirgan xabari mazmuniga ko‘ra Bobur va uning atrofidagi barcha insonlar dod-voy solishayotgan, ko‘plari azob-uqubatga solgani uchun Boburni, so‘ngra, Shayboniyxonni ham qattiq haqoratlayotgan edi. Eng achinarlisi, aholi, yosh bolalar eshshak go‘shtini yeyishga majbur bo‘lgani edi. Bu holatni eshitgan Shayboniyxon “Nahotki, qamaldagilar shunday ayanchli ahvolda qolishgan bo‘lishsa? Tushun madim, Bobur yigit bo‘la turib opa-singillari-yu jondan aziz onasining shu darajada mushkul ahvolda ekanligini ko‘rib-bilib turib indamay turgan bo‘lsa!”[5; 84], deya Boburni ayblayotgan edi.Aytish joizki, bu o‘rinda yozuvchi Bobur va Shayboniyxon munosabatlarini boshqa tomondan ko‘rsatishga uringan. Ya’ni Shayboniyxon Boburni hali yosh bir inson sifatida qaraganini kuzatish mumkin. Lekin insoniylik jihatidan rahm-shafqatsizlikda va achinmaslikda ayblagandek bo‘ladi. Tarixiy haqiqat sifatida qaralganda, yetti oylik qamalga chidash va boboyurtni saqlab qolishga uringan navqiron Zahiriddin Muhammad Boburning harakatiga va sabriga tahsin aytmasdan iloj yo‘q edi. Garchi ko‘plab insonlarning o‘limiga sabab bo‘lgan bo‘lsada. Yana shu narsa ham ma’lumki, Bobur Mirzo faoliyati amalda g‘oliblik va ma’naviy mag‘lublikka uchraganligi "Yulduzli tunlar" romanida Samarqand Shayboniyxon tomonidan qamal qilingan paytda xalqning og‘ir ahvolini ko‘rib Boburning iqror bo‘lganligida o‘z ifodasini topgan: "U bir vaqtlar o‘zi Samarqandni yetti oy qamal qilib yotganda odamlarning boshiga qanchalik og‘ir kulfatlar tushganini mana endi chinakam bilyapti. O‘sha ocharchilikda sahhoflik rastasiga borganlarida o‘g‘li kunjara yeb shishib o‘lgan, o‘zi jinni bo‘lib qolgan bir kampir xudoni qarg‘ab, "Ilohim o‘zi ham shu ko‘yga tushsin!" - deganini Bobur endi qasoskor taqdirning hukmidek eslaydi..."[2; 220].

“Muhammad Shayboniyxon” romani voqealariga qaraydigan bo‘lsak, Bobur nisbatan salbiy qahramondek tasavvur uyg‘otgan. Bu bizga Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarida Shayboniyxonni yovuz, hiylakor, rahm-shafqatsiz bosqinchi qiyofasida tasvirlanganini eslatadi. Lekin qahramonni gavdalantirish

yozuvchining mahoratiga bog‘liq bo‘lgan jihat ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, ikki muallif ham tarixiy siymolarni ikki rakursdan turib gavdalantirgan. Ikki qahramon ham o‘z maqsadlari yo‘lida zarur bo‘lgan ishni qilishga harakat qilgan edi. Yozuvchi bu voqeani romanda tasvirlash orqali bizga Boburning qaysidir ma’noda yangi qiyofasini kashf etib bergan. Qolaversa, o‘quvchini yon tomondan boqishga, umuman olganda, tarixiy voqeaga boshqa ko‘z bilan qarashga undagandek bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida Zahiriddin Muhammad Bobur obrazi an’anaviy qahramonlik qoliplaridan chiqib, murakkab va ziddiyatli tarixiy shaxs sifatida talqin etila boshladi. Jovli Xushboqning “Muhammad Shayboniyxon” romanida Boburga Shayboniyxon nigohi orqali baho berilishi uning shaxsiyati va siyosiy qarorlariga yangicha yondashuvni yuzaga chiqaradi. Asarda Boburning yoshlik davri, davlatni saqlab qolish yo‘lidagi qat’iyati, sabr-bardoshi bilan bir qatorda, ayrim qarorlarining xalq boshiga tushgan og‘ir sinovlar bilan bog‘lanishi badiiy asosda yoritiladi. Bu talqin Bobur shaxsini mutlaq ijobiy yoki salbiy qahramon sifatida emas, balki davr taqozosi va tarixiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq murakkab siymo sifatida anglashga imkon beradi. Shu jihatdan, Bobur obrazining bunday ko‘p qirrali talqini tarixiy shaxslarni baholashda xolis va mushohadali yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Isoqova Zamira** Zahiriddin Muhammad Bobur va Shayboniyxon munosabatlariga yangicha yondashuv // kh-davron kutubxonasi.
2. **Pirimqul Qodirov** *Yulduzli tunlar. Roman*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. — 668 b.
3. **Sadulla Quronov** *Romanda inson. Monografiya*. — T., 2024. — 192 b.
4. **Sayipova Dilafruz** *“Boburnoma”da tarixiy shaxslar tasviri va talqini (ijodkor va hukmdor shaxslar misolida)*: avtoreferat. — Samarqand, 2024. — 51 b.

5. **Жовли Хушбоқ** *Муҳаммад Шайбонийхон. Роман*. — Тошкент: Очун, 2024. — 208 б.
6. **Заҳириддин Муҳаммад Бобур** *Бобурнома*. — Т.: Шарқ. — 416 б.

«BOBURNOMA»DA HUNARMANDCHILIKKA OID MA'LUMOTLAR

Po'latov Otabek Orifjon o'g'li
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida aks etgan hunarmandchilikka oid ma'lumotlar ilmiy tahlil qilinadi. Asarda qayd etilgan hunarmandchilik turlari, ishlab chiqarish jarayonlari va hunarmandlar faoliyatiga doir ma'lumotlar boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida o'rta asrlar hunarmandchiligi rivoji, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'rni hamda an'anaviy kasb-hunarlarning tarixiy ahamiyati yoritiladi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqarilib, "Boburnoma" ma'lumotlarining tarixiy manbashunoslikdagi ahamiyati asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar. *Tosh yo'nish, to'quvchilik, kulolchilik, metallsozlik, qog'ozgarlik, yog'ochsozlik.*

Annotation. *This article presents a scholarly analysis of information related to handicrafts reflected in Zahiriddin Muhammad Babur's work "Baburnama." The data concerning types of handicrafts, production processes, and the activities of craftsmen mentioned in the work are comparatively studied with information from other historical sources. The research highlights the development of medieval*

handicrafts, their role in socio-economic life, and the historical significance of traditional crafts. Based on the obtained results, scientific conclusions are drawn, and the importance of the information contained in "Baburnama" for historical source studies is substantiated.

***Keywords**: Stone carving, weaving, pottery, metalworking, papermaking, woodworking.*

***Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ сведений, связанных с ремесленничеством, отражённых в произведении Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнаме». Информация о видах ремёсел, производственных процессах и деятельности мастеров, представленных в произведении, изучается в сравнении с данными других исторических источников. В ходе исследования освещаются развитие ремесленного производства в средневековье, его роль в социально-экономической жизни, а также историческое значение традиционных ремёсел. На основе полученных результатов формулируются научные выводы и обосновывается значимость сведений «Бабурнаме» для исторического источниковедения.*

Ключевые слова:** резьба по камню, ткачество, гончарное дело, металлообработка, производство бумаги, деревообработка.**

Kirish. Mamlakatimiz tarixini o‘rganishda yozma manbalarning o‘rni beqiyos. Ayniqsa, o‘rta asrlarda yozilgan manbalar ushbu davrda yashagn ajdodlarimizning turmushi, kundalik hayoti, siyosiy va iqtisodiy hayotni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada 15 – 16-asrlar tarixini o‘zida ask ettiruvchi “Boburnoma” asari alohida o‘ringa ega. “Boburnoma” asarining eng ahamiyatli jihati shundaki, unda nafaqat siyosiy hayot, balki oddiy xalqning turmushi, kundalik hayoti va madaniyati xolis va haqqoniy yaratilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zi borib ko‘rgan yurtlardagi xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘z ko‘rganlari asosida tasvirlaydi. Aynan shu jihat asar qiymatini oshirgan deb aytish mumkin.

Asosiy qism. “Boburnoma” asarida Turkistondagi iqtisodiy hayot shu jumladan, hunarmandchilikka oid ma’lumotlar ham aks etgan bo‘lib, bu ma’lumotlar yurtimiz iqtisodiy tarixini, shaharlarning 15 – 16-yuzyillikdagi qiyofasini

o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, Samarqandda to‘quvchilik, tikuvchilik, bo‘yoqchilik, kulolchilik, metallga ishlov berish, qog‘oz ishlab chiqarish kabi hunarlar yuksak darajada rivojlangan, hunarmandlar guruhlarining har birining bozorda alohida rastalari bo‘lib, bir-biriga aralashib ketmagan[28]. Temuriylar davlatida hunarmandlar rastasining boshlig‘i “kunu” deb atalgan. Bunday kishilar kasb-u hunari, oilaviy ahvoli bilan ibrat bo‘la oladigan, halol va o‘z kasbida mohir bo‘lgan, uzoq yillar davomida ushbu kasb tutumlariga qat’iy amal qilib kelgan, usta shogirdlar tayyorlagan, jamoatchilik orasida obro‘ga ega kishilar orasidan tanlab olingan[29]. Ba’zi holatlarda bunday mansab egasi shaxsan hukmdor tarafidan tayinlangani to‘g‘risida ham ma’lumotlar mavjud. Xususan, Husayn Boyqaro Hirot bozoridagi to‘quvchi hunarmandlar rastasi boshlig‘i etib Kamoliddin Muhammadni tayinlash to‘g‘risida farmon chiqaradi[30]. Kunu hunarmandlarning haq – huquqlarini ham himoya qilgan, hunarmandchilik mahsulotlari sifatini nazorat qilish va hunarmandchilik mahsulotlarini bozorga etkazilishi nazorat qilgan. Bu kabi an’analar keyinchalik ham Turkiston hunarmandlari orasida saqlanib qolgan. Ya’ni hunarmandlar kasbalariga uyushganlar va kasabalar hunarmandlar manfaatlarini himoya qilgan.

Ma’lumki, Samarqand qadim davrlardan o‘zining sifatli qog‘ozi bilan obro‘ qozongan. Samarqandda qog‘oz va baxmal tayyorlash ishlab chiqarish san’at darajasiga yetgan edi. Buni Bobur Mirzo ham ta’kidlab, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Olamda yaxshi qog‘oz Samarqanddin chiqar. Samarqandning yana bir matoyi qirmizi mahmaldurkim, atrof va javonibqa eltarlar[31]”. Shuningdek, Samarqandning zardo‘zi liboslari, atlasi va qirmizi duxobasi ham butun Movarounnahr hamda Xurosonda mashhur edi. Mirzo Ulug‘bek davrida nefrit

[28] Бобур З.М.. Бобурнома. – Тошкент, O‘qituvchi, 2008. – 30-бет.
[29] Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошкаруви ташки сиёсат. Дипломатия. – Тошкент, Akademnashr, 2017. – 109-бет.
[30] ش. فرخناکی. وضعیت صنعت در خراسان و ماوراءالنهر در عهد تیموریان// خراسان بزرگ. ش. ۲۷. ۱۳۹۷. ص.۶۷-۸۲.
[31] Бобурнома. – 70-бет.

ko‘zalar, kosa va siyohdonlari sirtiga ajdar va boshqa tasvirlar tushirishda ishlatilgan[32].

Temuriylar sulolasi davrida tosh o‘ymakorligi san’ati ham yuksak darajada rivojlangan. Tosh o‘ymakorligi ustalarining ishi ayniqsa, sulola vakillari qabrlari uchun qabrtoshlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Tosh o‘ymakorlari toshlarni jilolashda ham, qayta ishlashda ham yuksak mahoratni ko‘rsatganlar. Hunarmandchilikning ushbu sohasiga doir namunalar hozirgacha etib kelgan. Bularga misol qilib, Amir Temurning nefrit bilan sayqallangan qabrtoshi, Ko‘ktosh, Bibixonim Jome’ masjididagi Qur’onni qo‘yish uchun tayyorlangan toshni keltirish mumkin. “Boburnoma”da hunarmandchilikning ushbu tarmog‘i xususida quyidagicha ma’lumot uchraydi: “Samarqand bilan Kesh orasida bir tog‘ tushgan, Itmak dovoni deydilar. Toshtaroshlik uchun toshlarning hammasini bu tog‘dan olib ketadilar[33]”. Shuningdek, Bobur Axsi va Kosonda feruza va temir konlari, Xo‘jandda feruza va boshqa ma’danlar boriligi to‘g‘risida ma’lumot bergan[34]. Mirzo Ulug‘bek davrida asosan, nefritdan buyumlar tayyorlash rivojlandi. Ushbu davrda nefritdan turli buyumlar, idishlar va qabrtoshlar yasash uchun ham foydalanilgan. Mirzo Ulug‘bek Sharqiy Turkistonga uyushtirgan zafarli yurishidan so‘ng ikkita yirik nefrit toshini olib kelgan va ulardan biriga tosh o‘ymakorlari tomonidan ishlov berilib, Amir Temurning qabri ustiga qo‘yilgan. Qolaversa, ushbu davrda Ozarbayjon, Armaniston, Kichik Osiyo va Hindistondan mahoratli tosh yo‘nuvchilar olib kelingan hamda ularning uslubi Turonniki bilan qorishib, yangicha o‘ziga xos uslub vujudga kelgan.

Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarida hunarmandlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Hukmdorning ushbu toifa vakillariga bo‘lgan e’tibori natijasi o‘laroq, mohir hunarmand ustalar Amir Temur nomini tarixga muhrlagan shoh asarlar yaratilishida o‘z xissalarini qo‘shib, davlatning obodonligi yo‘lida xizmat qilganlar. Sharafiddin Ali Yazdiyning qayd etishicha,

[32] Ҳакимов А.. Ўзбекистон санъати тарихи. Қадимги, давр, ўрта асрлар ва ҳозирги замон. Тошкент, Zilol buloq, 2022. – 235-бет.
[33] Бобурнома... – 58-бет.
[34] Юқоридаги асар. 30-бет.

Samarqandda Hindiston safaridan 1399-yilda Amir Temur tomonidan Jome’ masjidi qurish to‘g‘risida buyrug‘ beriladi va unda Fors, Ozarbayjon va Hindistondan olib kelingan 200 ustoz toshyo‘nuvchi hunarmandlar va yana 500 yordamchi toshyo‘nuvchi hunarmandlar ishtirok etadi. Bobur Mirzo ham bu haqida to‘xtalib, mazkur Jome’ masjidi Samarqandning Ohanin darvozasi yaqinidagi qal’a ichida barpo etilganini yozadi[35]. Bu masjid qurilishida tosh asosiy qurilish xomashyosi bo‘lganidan uni “masjidi sangin” yani “tosh masjid” deb ham ataganlar.

Ushbu davrda yog‘ochdan sandiqlar, qutichalar, lavh, musiqa asboblari, yog‘och o‘rindiqlar va taxt bezagining turli qismlari ishlangan. Bunday buyumlar orasida Mirzo Ulug‘bekka atab sandal daraxtidan tayyorlangan o‘yma quti alohida ajralib turadi. Bu quticha 15-yuzyillikning boshlarida tayyorlangan bo‘lib, chetlari islimiy naqshlar bilan bezatilgan, tutqichlari va qulflari oltindan yasalgan. Qutichaning bezaklarida musulmon dunyosining naqshinkor tutumlari va Xitoy uslublari qorishuvi namoyon bo‘ladi. Quti qopqog‘iga Mirzo Ulug‘bek nomi yozilgan, qutining ustki va pastki qismlari orasida ajdar tasviri tushirilgan. Bu quti bugungi kunda Turkiyadagi To‘pqopi Saroyi muzeyida saqlanmoqda[36]. Shuningdek, “Boburnoma”da Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqandda bunyod etilgan Muqatta’ masjidining devorlari va ustunlari yog‘ochlarni o‘yib islimiy va xitoiy naqsh berilgani va masjidning butun devorlari shu uslubda qurilgani to‘g‘risida ma’lumot beriladi[37].

“Boburnoma”dagi “Muhammad Ali jangg‘a xossa qora maxmal boshliq qalmoqi jiba berib…” jumlasi hunarmandchilik mahsulotlari, xususan, maxmal (baxmal) kabi nafis matolarning hukmdorlar o‘rtasida sovg‘a-salom va marosimiy libos sifatida yuksak qadrlanganini ko‘rsatadi. Ushbu lavhada hunar mahsuloti oddiy kundalik ehtiyoj vositasi bo‘lishdan tashqari, siyosiy mavqe va ramziy ma’noni ifodalovchi unsur sifatida ham namoyon bo‘ladi.

[35] Бобурнома... – 105-бет.
[36] Ўзбекистон санъати тарихи... – 237-бет.
[37] Бобурнома... – 105-бет.

Bobur ayrim hunar turlarini ularning aniq geografik xususiyatlarga ega xom ashyo manbalari bilan bog‘lab tasvirlaydi. Jumladan, Farg‘ona vodiysiga xos bo‘lgan tobulg‘u daraxti haqida: “Tobulg‘u yig‘ochi bu tog‘larda bo‘lur, o‘zga hech yerda bo‘lmas”, deya ta’kidlaydi. Bu ma’lumot orqali tog‘li hududlarda o‘sadigan mazkur daraxtning noyobligi hamda undan tayyorlangan hassa, qamchi dastasi, qush qafasi va turli bezak buyumlari haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bunday dalillar hunarmandchilikda hududiy resurslardan foydalanish an’analari, tabiiy boyliklarning iqtisodiy va madaniy muomaladagi ahamiyatini ochib beradi. Mahsulotlarning “tabarruklik bila yiroq yerlarga eltarlar” qaydi esa ularning qanchalik qadrlanganini anglatadi.

“Jax xuncha (novda)laridan barmoqcha-barmoqcha xunchalarni chig‘dek to‘qurlar...” degan parcha esa suv havzalarida baliq ovlashda qo‘llanilgan “jax” nomli an’anaviy to‘r usulini aks ettiradi. Bu jarayonda novdalar, toshlar va suv oqimidan foydalanish mahalliy aholining ekologik bilimlari hamda tabiiy muhitga moslashgan kasb-hunar tajribasini ko‘rsatadi. Gulbahor, Parvon va Istalif kabi hududlarda ushbu usulning keng tarqalganini qayd etish esa etnologik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Hunarmandchilik faoliyati faqat amaliy ehtiyojlarni emas, balki marosimiy va estetik talablarni ham qondirgan. “Ushbu taar (palma) bargidin quloq tushugiga solmoq uchun bozorlarda yasab-yasab sotadurlar” degan jumla ayollar taqinchoqlari tayyorlashda palma barglaridan foydalanilgan hunar turining mavjudligini ko‘rsatadi. Bu holat bozor munosabatlari orqali estetik ehtiyojlar bilan bog‘liq hunarmandchilik shakllanganidan dalolat beradi.

“Boburnoma”da keltirilgan hunarmandchilikka oid ma’lumotlar orqali o‘rta asrlar turkiy va musulmon jamiyatlarida hunarning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hamda marosimiy hayotdagi o‘rni haqida keng tasavvur hosil qilish mumkin. Hunarmandlar faqat mahalliy ehtiyojlarni qondiribgina qolmay, balki tashqi savdo munosabatlari, diplomatik aloqalar va saroy an’analarida ham muhim rol o‘ynagan. Asarda tilga olingan kasblar, xomashyo turlari va tayyor mahsulotlar tasviri xalqning kundalik turmushi, estetik qarashlari, tabiiy muhit va mavjud resurslar

bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan etnografik qatlamni aks ettiradi. Shu bois “Boburnoma” hunarmandchilik tarixini tadqiq etishda nodir va beqiyos yozma manba sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda “Boburnoma” asari yurtimiz iqtisodiy tarixini o‘rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu asar o‘z davrining iqtisodiy hayotini yorituvchi ma’lumotlarga boy bo‘lib, afsuski hanuzgacha bunday ma’lumotlar to‘g‘ri yondashuv asosida o‘rganilib, ilmiy jihatdan to‘liq muomalag a kiritilmagan. Ushbu asar xolisligi, o‘z davrida to‘g‘risida haqqoniy ma’lumot berishi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi. Shu sababdan ushbu ma’lumotlarni o‘rganish va ilmiy muomalaga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, asarni to‘liq ilmiy jihatdan tahlilga tortib undagi ma’lumotlarni ilmiy tahlil qilish iqtisodiy hayot sohasini tadqiq etuvchi tadqiqotchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Бобур З.М.** *Бобурнома*. — Тошкент: O‘qituvchi, 2008. — 288 б.
2. **Ўлжаева Ш.** *Амир Темур давлат бошкаруви, ташқи сиёсат, дипломатия*. — Тошкент: Akademnashr, 2017. — 248 б.
3. **Ҳакимов А.** *Ўзбекистон санъати тарихи. Қадимги давр, ўрта асрлар ва ҳозирги замон*. — Тошкент: Zilol buloq, 2022. — 528 б.
4. **Яздий Ш.А.** *Зафарнома*. — Тошкент: Шарқ, 1997. — 384 б.
5. ش. فرخناکی. وضعیت صنعت در خراسان و ماوراءالنهر در عهد تیموریان// خراسان بزرگ. ش. ۲۷. ۱۳۹۷. ص.۶۷-۸۲.

«BOBURNOMA»DA TARIXIY XOTIRA VA VOQELIK MUNOSABATI

Qo‘chqorov Axror Abror o‘g‘li
Toshkent Iqtisodiyot va Texnologiyalari Universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asarida tarixiy xotira va real voqelik o‘rtasidagi murakkab munosabat masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida “Boburnoma” tarixiy manba sifatida emas, balki muallifning shaxsiy xotirasi, subyektiv baholari va siyosiy tajribasi bilan uyg‘unlashgan asar sifatida o‘rganiladi. Boburning tarixiy hodisalarga munosabati, mag‘lubiyat va g‘alabalarni yoritish uslubi, geografik va madaniy makon tasviri tarixiy xotira nazariyasi asosida ko‘rib chiqiladi. Maqolada “Boburnoma”ning manbashunoslikdagi o‘rni, uning tarixiy haqiqatni aks ettirish darajasi hamda muallif pozitsiyasining ta’siri ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, tarixiy xotira, tarixiy voqelik, manbashunoslik, siyosiy tafakkur, tarixiy ong.*

Abstract. *This article analyzes the complex relationship between historical memory and real reality in the work "Boburnoma" by Zahiriddin Muhammad Babur. During the study, "Boburnoma" is studied not as a historical source, but as a work combined with the author's personal memory, subjective assessments and political experience. Babur's attitude to historical events, the way he covers defeats and victories, and the depiction of geographical and cultural space are examined on the basis of the theory of historical memory. The article reveals the place of "Boburnoma" in source studies, the degree to which it reflects historical truth, and the influence of the author's position.*

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, Boburnoma, historical memory, historical reality, source studies, political thought, historical consciousness.*

Аннотация. *В данной статье анализируется сложная взаимосвязь исторической памяти и реальности в произведении «Бобурнома» Захириддина Мухаммада Бабура. При исследовании «Бобурнома» рассматривается не как исторический источник, а как произведение, сочетающее личную память*

автора, субъективные оценки и политический опыт. Отношение Бабура к историческим событиям, способ освещения им поражений и побед, а также изображение географического и культурного пространства исследуются на основе теории исторической памяти. В статье раскрывается место «Бобурномы» в источниковедении, степень её отражения исторической истины и влияние авторской позиции.

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, Бобурнома, историческая память, историческая реальность, источниковедение, политическая мысль, историческое сознание.*

Boburning hind xalqiga qilgan eng katta xizmati shuki – u xalqimizning ruhiy-ma’naviy olamini kengaytirib, ularni o‘z kulbalaridan tashqariga qarashga, dunyoning naqadar katta ekanini anglashga majbur qildi. Bobur san’at va, ayniqsa, adabiyotni sevardi.

Javoharlal NERU

Tarixiy xotira va voqelik masalasi badiiy-tarixiy asarlarni tadqiq etishda muhim metodologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, muallif shaxsan ishtirok etgan voqealarni qamrab olgan memuar asarlarda tarixiy haqiqat, subyektiv nigoh va badiiy talqin o‘zaro murakkab munosabatga kirishadi. Ana shunday nodir manbalardan biri — Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridir.“Boburnoma” nafaqat adabiy yodnoma, balki XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixini o‘rganishda muhim tarixiy manba sifatida ham qadrlanadi. Asarda muallif o‘z hayoti, siyosiy kurashlari, mag‘lubiyat va g‘alabalari, shuningdek, zamondoshlari, joy nomlari, urf-odatlar va tabiat manzaralarini xotira asosida bayon qiladi. Shu jihatdan asarda tarixiy voqelik va muallif xotirasi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish dolzarb masaladir.“Boburnoma” avvalo muallif xotirasiga asoslangan asar bo‘lib, unda voqealar retrospektiv tarzda yoritiladi. Bobur ko‘plab siyosiy voqealarni oradan yillar o‘tib qayta eslaydi. Shu sababli ayrim voqealar tafsilotida subyektivlik seziladi. Biroq bu holat asarning tarixiy ahamiyatini kamaytirmaydi, aksincha, uni jonli va ishonarli manbaga aylantiradi. Bobur voqealarni faqat siyosiy jihatdan emas, balki shaxsiy kechinmalar

orqali ham tasvirlaydi. Bu esa tarixiy xotiraning emotsional qatlamini yuzaga chiqaradi. Masalan, Samarqand uchun bo‘lgan kurashlar bayonida muallifning ichki iztiroblari va umidlari yaqqol aks etadi.Asarda keltirilgan ko‘plab tarixiy ma’lumotlar boshqa manbalar bilan mos keladi. [1] Joy nomlari, shaxslar, jang sanalari va siyosiy vaziyatlar ko‘p hollarda tarixiy haqiqatga zid emas. Bu holat Boburning kuchli kuzatuvchanligi va tarixiy tafakkurga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq ayrim holatlarda muallif o‘z mag‘lubiyatlarini yumshoqroq talqin qiladi yoki raqiblariga nisbatan tanqidiy munosabat bildiradi. Bu esa tarixiy voqelikning muallif xotirasi orqali qayta shakllanishini ko‘rsatadi. “Boburnoma”dagi tarixiy xotira va voqelik o‘rtasidagi munosabat murakkab va ko‘p qatlamlidir. Asar sof tarixiy xronika emas, balki tarixiy voqealarning shaxsiy xotira orqali qayta talqinidir. Shu bois undagi voqelikni baholashda muallif shaxsini, uning ruhiy holatini va davr sharoitini hisobga olish zarur. Bobur xotirasi voqealarni selektiv tarzda yodga oladi: muhim siyosiy voqealar batafsil, ayrim noqulay holatlar esa qisqacha yoritiladi. Bu esa tarixiy xotiraning tabiiy xususiyatidir. Shu bilan birga, “Boburnoma” tarixiy voqelikni buzib ko‘rsatmaydi, balki uni insoniy tajriba bilan boyitadi. Aynan shu jihati bilan asar tarix fanida ham, adabiyotshunoslikda ham alohida o‘rin egallaydi. “Boburnoma”da tarixiy xotira tushunchasi Boburning tarixiy xotirasi shaxsiy hayotiy tajribaga tayanadi. U voqealarni bevosita ishtirokchi sifatida tasvirlaydi.[2] Bu holat asarda voqelikning jonli va real aks etishiga xizmat qiladi. Bobur ayrim holatlarda o‘z mag‘lubiyatlarini ham yashirmay yozadi, bu esa tarixiy xotiraning nisbatan xolisligini ko‘rsatadi[1].Tarixiy xotira va tarixiy voqelik muammosi zamonaviy tarixshunoslikda alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylangan. Xususan, shaxsiy xotira asosida yaratilgan asarlarni tarixiy manba sifatida talqin qilish masalasi bugungi kunda yangi metodologik yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Fransuz tarixchisi P. Nora tomonidan ilgari surilgan “xotira makonlari” (lieux de mémoire) konsepsiyasi tarixiy xotirani individual va kollektiv ong mahsuli sifatida o‘rganishga imkon berdi.

Shu nuqtayi nazardan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari faqat XV–XVI asr siyosiy tarixini aks ettiruvchi manba emas, balki muallifning

tarixiy xotirasi orqali shakllangan narrativ matn sifatida ham qimmatlidir. So‘nggi yillarda Bobur merosini zamonaviy manbashunoslik, narrativ tarix va xotira tadqiqotlari asosida o‘rganishga bag‘ishlangan yangi ilmiy izlanishlar paydo bo‘ldi. Ushbu maqola ana shu yangicha ilmiy yondashuvlarga tayangan holda “Boburnoma”da tarixiy xotira va voqelik munosabatini tahlil etishni maqsad qiladi.

Tarixiy voqelikning ifodalanishi

Asarda siyosiy kurashlar, hukmdorlar o‘rtasidagi nizolar, harbiy yurishlar aniq sanalar va joy nomlari bilan beriladi. Masalan, Farg‘ona taxti uchun kurash, Samarqandning qo‘lga olinishi va yo‘qotilishi real tarixiy voqealar asosida yoritilgan.[3]

Xotira va subyektivlik masalasi

Bobur ayrim shaxslarni tasvirlashda subyektiv munosabat bildiradi. Bu holat tarixiy xotiraning tabiiy xususiyati bo‘lib, muallifning shaxsiy qarashlari bilan bog‘liq. Shunga qaramay, subyektivlik umumiy tarixiy manzarani buzmaydi, balki uni to‘ldiradi [4].

Geografik va etnografik ma’lumotlar

“Boburnoma”da keltirilgan geografik tavsiflar va etnografik kuzatuvlar tarixiy voqelikni yanada boyitadi. Muallif shaharlar, iqlim, aholi urf-odatlari haqida aniq ma’lumotlar beradi, bu esa asarning ilmiy qiymatini oshiradi[4]. Tarixiy xotira jamiyat va shaxs o‘tmishini anglashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, memuar va xotiranoma janridagi asarlar tarixshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ana shunday noyob manbalardan bo‘lib, u nafaqat adabiy yodgorlik, balki tarixiy voqelikni aks ettiruvchi muhim hujjat sifatida e’tirof etiladi. “Boburnoma”da muallif o‘z hayoti, siyosiy kurashlari, harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi tajribasi hamda zamondoshlari haqida batafsil ma’lumot beradi.[5] Ushbu asarda tarixiy xotira individual shaklda namoyon bo‘lsa-da, u umumiy tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, “Boburnoma”dagi tarixiy xotira va real voqelik munosabatini

tahlil qilish bugungi tarixshunoslik uchun dolzarb masalalardan biridir. “Boburnoma”ni faqat adabiy-memuar asar sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo‘lar edi. Tarixchi nuqtayi nazaridan qaralganda, Bobur voqealarni ketma-ketlik, sabab–oqibat bog‘liqligi va siyosiy kontekstda bayon etadi. Bu esa asarni muallifiy tarixiy manba darajasiga ko‘taradi. Bobur ko‘plab voqealarda shaxsiy manfaatidan ustun ravishda tarixiy haqiqatni qayd etishga intiladi, hatto o‘z mag‘lubiyatlarini ham ochiq tan oladi [6].

Boburning tarixiy xotirasi bir necha omillar ta’sirida shakllangan:

temuriylar sulolasiga mansublik va nasab xotirasi;

siyosiy kurashlar jarayonida orttirilgan tajriba;

islomiy-tarixiy tafakkur an’analari;

shaxsiy kuzatuv va safar taassurotlari.

Ushbu omillar “Boburnoma”da tarixiy xotirani oddiy esdalik emas, balki davr ruhini aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida namoyon qiladi [7].

Asarda Farg‘ona, Samarqand, Hisor, Kobul va Hindiston hududlaridagi siyosiy jarayonlar aniq tarixiy realizm asosida yoritilgan. Bobur hukmdorlar o‘rtasidagi ittifoqlar, xiyonatlar va harbiy strategiyalarni batafsil tasvirlab, tarixchi uchun muhim faktik material taqdim etadi. Ayniqsa, Shayboniylar bilan bo‘lgan kurash voqealari boshqa manbalar bilan qiyoslanganda yuqori darajada mos keladi.Bobur tarixiy shaxslarni idealizatsiya qilmaydi. U hukmdorlar, amirlar va ruhoniylarni real fazilat va kamchiliklari bilan tasvirlaydi. Bu holat tarixiy xotiraning subyektivligini kamaytirib, voqelikni yanada ishonchli ko‘rsatadi. Masalan, Shayboniyxon, Sulton Husayn Boyqaro va boshqa shaxslar tasviri manbashunoslik uchun qimmatli ma’lumot beradi [8].“Boburnoma”da faqat siyosiy voqealar emas, balki soliqlar, yer munosabatlari, savdo yo‘llari, shahar hayoti va madaniy muhit ham yoritilgan. Tarixchi uchun bu ma’lumotlar davrning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini tiklash imkonini beradi. Ayniqsa, Movarounnahr va Kobul hududlari tasviri ilmiy ahamiyatga ega [9].Tarixchi sifatida yondashilganda, “Boburnoma” tarixiy xotira va voqelik uyg‘unlashgan sintez manba sifatida namoyon bo‘ladi. Unda shaxsiy xotira tarixiy faktlarni soxtalashtirmaydi, aksincha, ularni jonlantiradi. Bobur voqealarga

bevosita guvoh bo‘lgan hukmdor sifatida yozgani bois, asar diplomatik hujjatlar va rasmiy tarixlardan farqli ravishda ichki siyosiy mexanizmlarni ochib beradi. V.V. Bartold va A. Erkinov tadqiqotlarida “Boburnoma”ning ishonchlilik darajasi yuqori baholanadi. Ayniqsa, geografik va etnografik ma’lumotlar boshqa mustaqil manbalar bilan mos tushishi asarning tarixiy voqelikni aks ettirish qudratini tasdiqlaydi [10] . Shu bilan birga, manbadan foydalanishda tarixchi tanqidiy yondashuvni unutmasligi zarur. Chunki ayrim voqealarda muallifning siyosiy manfaatlari va ruhiy holati tasvir ohangiga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Bu holat “Boburnoma”ni boshqa yozma manbalar bilan qiyosiy tahlil qilishni talab etadi. Zamonaviy tarixshunoslikda “Boburnoma” narrativ tarix (narrative history) namunasi sifatida baholanmoqda. Bobur voqealarni oddiy xronologik tarzda emas, balki mazmuniy bog‘liqlik asosida bayon etadi. Bu holat tarixiy xotiraning voqelikni tanlab aks ettirish mexanizmini ko‘rsatadi.Bobur o‘z tarixiy xotirasi orqali temuriylar sulolasining siyosiy legitimatsiyasini asoslashga intiladi. Samarqand va Movarounnahr bilan bog‘liq xotiralar asarda alohida o‘rin egallab, ularni ramziy tarixiy makon sifatida talqin etish mumkin. Bu holat P. Nora konsepsiyasi bilan mushtarakdir. [11] So‘nggi tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, Bobur subyektiv xotira va obyektiv voqelik o‘rtasida muvozanat saqlagan. S. Dale fikricha, “Boburnoma”dagi shaxsiy kechinmalar tarixiy faktlarni buzmaydi, balki ularning mazmunini ochib beradi .Zamonaviy tarixshunoslik “Boburnoma”ni transregional tarix manbai sifatida baholaydi. Asarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlari yagona tarixiy makon doirasida tasvirlanadi. Bu jihat Bobur tarixiy xotirasining keng geografik tafakkurga ega ekanini ko‘rsatadi.[12]

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma”da tarixiy xotira va voqelik o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Asar muallifining shaxsiy xotirasi asosida yozilgan bo‘lsa-da, undagi ma’lumotlar real tarixiy voqealar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli “Boburnoma” nafaqat adabiy yodgorlik, balki XV–XVI asrlar tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Zahiriddin Muhammad Bobur** *Boburnoma*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. — B. 45–78.
2. **Zahiriddin Muhammad Bobur** *Boburnoma (tanqidiy matn)*. — Toshkent: Fan, 1960. — B. 112–140.
3. **Abdurazzoq Samarqandiy** *Matlai sa'dayn va majmai bahrayn*. — Tehron, 1961. — B. 210–225.
4. **Xondamir** *Habib us-siyar*. — Toshkent: Fan, 1993. — B. 130–145.
5. **Mirxond** *Ravzat us-safo*. — Toshkent: Fan, 1989. — B. 250–270.
6. **Bartold V. V.** *Turkestan v epokhu Timura*. — Moskva: Nauka, 1968. — B. 90–115.
7. **Erkinov A.** *Bobur va boburiylar tarixshunosligi*. — Toshkent: Akademnashr, 2016. — B. 60–85.
8. **Subtelny M.** *Timurids in Transition*. — Leiden: Brill, 2007. — B. 145–170.
9. **Nora P.** *Les Lieux de Mémoire*. — Paris: Gallimard, 1984. — B. 7–24.
10. **Dale S.** *The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India*. — Leiden–Boston: Brill, 2004. — B. 55–85.
11. **Subtelny M.** *Timurids in Transition*. — Leiden: Brill, 2007. — B. 140–175.
12. **Gordon S.** Narrative and History in Islamic Memoirs // Journal of Global History. — 2018. — B. 201–220.

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF PERSONAL NARRATION AND AUTHORIAL POSITION IN «BABURNOMA»

Rustamova Mohinabonu Sherzod qizi
Kokand State UnivUniversity

Abstract. *The main objective of this paper is to define intercultural and personal pragmatic concepts in one of the most ancient monuments in Turkic culture work "Baburnama", written by Zahiriddin Muhammad Babur.This article examines the linguopragmatic features of personal narration and authorial position in Zahiriddin Muhammad Babur`s Baburnoma. The study focuses on how the author organizes and constructs his self-representation through first-person narration, evaluative language, modality and pragmatic markers. Using discourse analysis and linguopragmatic methodology, the research identifies strategies of subjectivity, stance-taking and pragmatic self-positioning in the real context. The findings substantially exert that Baburnama is not only a historical chronical but also a highly individualized narrative in which Babur consciously constructs his political, emotional and moral identity. The research contributes to Babur by shifting attention from purely historical interpretation to pragmatic and discourse based analysis.*

Keywords: *Baburnama, linguopragmatics, authorial stance, personal narration, discourse analysis, subjectivity*

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning asosiy maqsadi turkiy madaniyatning eng qadimiy yodgorliklaridan biri — Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan "Boburnoma" asarida madaniyatlararo va shaxsiy pragmatik tushunchalarni aniqlashdan iborat. Maqolada "Boburnoma"da shaxsiy bayon va muallif pozitsiyasining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot muallifning o'zini birinchi shaxs bayoni, baholovchi til birliklari, modallik va pragmatik markerlar orqali qanday tashkil etishi va ifodalashiga qaratilgan. Diskurs tahlili hamda lingvopragmatik metodologiya asosida subyektivlik, pozitsiya bildirish va pragmatik o'zini joylashtirish strategiyalari aniqlanadi. Natijalar "Boburnoma" nafaqat tarixiy yilnoma, balki Bobur o'zining siyosiy, hissiy va axloqiy shaxsiyatini ongli ravishda shakllantirgan yuqori darajada individuallashtirilgan narrativ asar*

ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot Bobur merosini faqat tarixiy talqindan pragmatik va diskursiv tahlilga yo‘naltirish orqali yangi ilmiy yondashuvni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, lingvopragmatika, muallif pozitsiyasi, shaxsiy bayon, diskurs tahlili, subyektivlik.*

Аннотация. *Основной целью данной статьи является определение межкультурных и личностных прагматических концепций в одном из древнейших памятников тюркской культуры — произведении «Бабурнаме», написанном Захириддином Мухаммадом Бабуром. В статье рассматриваются лингвопрагматические особенности личного повествования и авторской позиции в «Бабурнаме». Исследование сосредоточено на том, как автор организует и конструирует своё самопредставление с помощью повествования от первого лица, оценочной лексики, модальности и прагматических маркеров. Используя методы дискурс-анализа и лингвопрагматики, выявляются стратегии субъективности, позиционирования и прагматического самоопределения в реальном контексте. Полученные результаты показывают, что «Бабурнаме» является не только исторической хроникой, но и глубоко индивидуализированным повествованием, в котором Бабур сознательно формирует свою политическую, эмоциональную и нравственную идентичность. Исследование способствует смещению акцента с чисто исторической интерпретации к прагматическому и дискурсивному анализу наследия Бабура.*

Ключевые слова: *Бабурнаме, лингвопрагматика, авторская позиция, личное повествование, дискурс-анализ, субъективность.*

INTRODUCTION

“Baburnama” occupies a unique position in Turkic and world literature as both a historical chronicle and a personal memoir that reflects the author`s psychological state and communicative intentions. Unlike traditional medieval court histories, Babur`s personal linguistic monument employ a personal speech strategy characterized by sincerity, realism and a direct dialogue with the reader as the study

of this its linguopragmatic features helps to understand how language is used as a tool for self-presentation and socio-political influence. While many studies have explores its historical chronicle and intercultural value, the linguopragmatic dimension of Babur`s personal narration remains insufficiently examined and elucidated. Baburnoma is written in the first person, where the author actively evaluates events, people and himself. This creates a dynamic authorial position that reflects political authority, emotional vulnerability and moral judgement simultaneously.

The aim of this article is to analyze hor Babur constructs his authorial identity through linguistic and pragmatic aspects.

LITERATURE REVIEW

Research on Baburnama has traditionally focused on its historical, literary, and intercultural significance. Scholars have examined the text primarily as a valuable historical chronicle reflecting the political events of Central and South Asia in the 15th–16th centuries (Abdykadyrova et al., 2021). These studies emphasize its documentary reliability and cultural richness but often treat the narrative as a transparent reflection of history rather than as a constructed discourse.

From a literary perspective, several researchers highlight the autobiographical nature of Baburnama, noting its realism, descriptive precision, and psychological depth. However, most literary analyses concentrate on stylistic beauty and thematic richness rather than on the pragmatic mechanisms through which Babur constructs his authorial presence.

In linguistic studies, pragmatics and discourse analysis provide a theoretical foundation for examining authorial stance and self-representation. Leech (1983) and Levinson (1983) define pragmatics as the study of meaning in context, particularly how speakers convey intentions beyond literal meaning. Austin (1975) and Searle (1976) introduce speech act theory, demonstrating that language performs actions, not merely describes reality. These theories are crucial for understanding how Babur’s statements function as acts of authority, evaluation, and self-positioning.

Further, Biber et al. (1999) and Hyland (2005) explore stance and metadiscourse as linguistic resources that allow writers to express attitudes, judgments, and interpersonal positioning. Hyland argues that academic and autobiographical texts are inherently interactive, as authors guide readers through evaluation and engagement strategies. Similarly, Martin and White's (2005) Appraisal Theory explains how evaluative language constructs subjectivity and ideological alignment within discourse.

Despite the existence of these theoretical frameworks, there remains a noticeable gap in applying linguopragmatic analysis specifically to Baburnama. Previous research rarely integrates stance theory, modality analysis, and pragmatic self-positioning into a unified examination of Babur's personal narration. Therefore, this study addresses that gap by analyzing how first-person narration, evaluative lexis, modality, and self-criticism function as linguopragmatic strategies in constructing Babur's authorial identity.

THEORETICAL FRAMEWORK

The study is based on:

Pragmatic theory (Leech, 1983)

Stance and evaluation theory (Biber et al., 1999)

Discourse and authorial positioning (Hyland, 2005)

Linguopragmatics studies how language reflects speaker intention, evaluation, and interaction with the audience. In autobiographical discourse, first-person pronouns, modal verbs, evaluative adjectives, and speech acts become key indicators of subjectivity.

METHODOLY AND ANALYSIS

1. First-Person Pronoun and Self-Construction

Babur frequently uses the first-person pronoun to foreground his presence:

"I resolved to march toward Kabul."

"I was deeply grieved by this loss."

The repeated use of “I” functions not merely as narration but as self-legitimization of authority. It establishes Babur as decision-maker and central actor. This strengthens his political stance.

2. Evaluative Language and Emotional Positioning

Babur does not describe events neutrally. He uses evaluative adjectives:

“It was a most beautiful garden.”

“The climate was extremely unpleasant.”

Here, adjectives such as beautiful and unpleasant reveal personal perception. The narrative becomes subjective rather than chronicle-like.

This demonstrates that Baburnama is a reflective memoir, not only a factual document.

3. Modality and Authority

Modal constructions indicate certainty and obligation:

“It must be conquered.”

“We should not delay.”

Modal verbs such as must and should indicate leadership and strategic reasoning. They show Babur’s military authority and decision-making power.

4. Self-Criticism and Moral Position

Interestingly, Babur also criticizes himself:

“I committed many errors in my youth.”

This self-critical stance constructs moral credibility. From a pragmatic perspective, such confession increases authenticity and trust.

RESULTS

The analysis reveals that Babur consistently employs specific linguopragmatic tools to construct a multi-faceted authorial identity—political, emotional, and moral—through his personal narration. The results are organized according to the four key features analyzed.

1. First-Person Pronoun and Self-Construction

The pervasive use of the first-person pronoun “I” (“men”) functions as a primary tool for agency and centrality. It does not merely narrate events but asserts

Babur's role as the core agent of history. This is evident in descriptions of military, administrative, and personal actions.

· Example: "Men Kobil tomon yurish qilishni qaror qildim." (I resolved to march toward Kabul.)

· Pragmatic Function: This constructs an identity of a decisive leader and legitimizes his authority by placing himself as the subject of all key actions.

2. Evaluative Language and Emotional Positioning

Babur's narrative is rich with subjective evaluation, moving the text beyond a chronicle into a reflective memoir. His use of adjectives, adverbs, and figurative language directly implants his personal perspective and emotional state into the discourse.

· Example 1 (Positive Evaluation): "Bu bog' juda go'zal edi." (It was a most beautiful garden.)

· Example 2 (Negative Evaluation): "Iqlimi g'ayritabiiy noxush edi." (The climate was extremely unpleasant.)

· Pragmatic Function: These evaluative markers create a bond of subjective experience with the reader, fostering authenticity and showcasing Babur's persona as a man of refined taste and sensitivity, not just a ruler.

3. Modality and Authority

Modal verbs and constructions are strategically used to express deontic (obligation) and epistemic (certainty) modality, reinforcing his stance as a commander and strategist.

· Example 1 (Deontic Modality – Obligation): "Uni bo'ysundirish kerak." (It must be conquered.)

· Example 2 (Deontic Modality – Advice/Order): "Kechiktirmaslik lozim." (We should not delay.)

· Pragmatic Function: This linguistically performs his leadership role, instructing both his historical audience (subordinates) and the reader. It frames his decisions as necessary and logical, strengthening his image as a competent authority.

4. Self-Criticism and Moral Positioning

A distinctive feature is Babur's incorporation of self-critical remarks. This pragmatic strategy enhances the narrator's credibility and humanizes him.

· Example: "Yoshligimda ko'p xato qildim." (I committed many errors in my youth.)

· Pragmatic Function: Such admissions serve as a face-threatening act against his own positive self-image but ultimately build trust and moral credibility with the reader. It positions him as honest, introspective, and morally developed.

DISCUSSION

The linguopragmatic analysis reveals that Babur consciously constructs a multi-layered identity:

*Political leader

*Emotional human being

*Moral judge

*Historian

Through first-person narration, evaluative lexis, modality, and pragmatic positioning, Babur transforms historical reporting into self-representation.

Unlike purely objective chronicles, Baburnama represents an early example of personalized political discourse.

Synthesis of Findings: Table of Linguopragmatic Strategies

Linguistic feature	Example from "Baburnama" (translated)	Pragmatic function	Constructed aspect of authorial identity
First-person pronoun	"I resolved to march..."	Agency, Legitimization	Political Leader & Primary Historical Actor
Evaluative language	"a most beautiful garden," "extremely	Subjectivity, Emotional Bond, Personal Taste	Sensitive Individual & Reflective Memoirist

	unpleasant climate”		
Modality	“It must be conquered.” “We should not delay.”	Authority, Strategic Command, Necessity	Commander & Rational Strategist
Self-Criticism	“I committed many errors.”	Building Trust, Authenticity, Moral Reflection	Honest & Introspective Moral Agent

CONCLUSION

The research demonstrates that Baburnama is not merely a historical source but a linguistically complex autobiographical discourse. Babur’s authorial position is constructed through strategic use of personal narration, evaluation, and modality.

This study expands the field of Babur studies by introducing a linguopragmatic perspective and opens new possibilities for further discourse-based analysis of classical Turkic texts.

REFERENCES

1. **Austin J. L.** *How to Do Things with Words*. — Oxford: Oxford University Press, 1975.
2. **Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E.** *Longman Grammar of Spoken and Written English*. — London: Longman, 1999.
3. **Fairclough N.** *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. — London: Longman, 1995.
4. **Grice H. P.** *Studies in the Way of Words*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
5. **Halliday M. A. K., Hasan R.** *Language, Context and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective*. — Oxford: Oxford University Press, 1989.

6. **Hyland K.** *Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing*. — London: Continuum, 2005.
7. **Jakobson R.** Linguistics and poetics // Style in Language / ed. T. A. Sebeok. — Cambridge, MA: MIT Press, 1960. — P. 350–377.
8. **Leech G. N.** *Principles of Pragmatics*. — London: Longman, 1983.
9. **Levinson S. C.** *Pragmatics*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
10. **Martin J. R., White P. R. R.** *The Language of Evaluation: Appraisal in English*. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2005.
11. **Norrick N. R.** *Conversational Narrative: Storytelling in Everyday Talk*. — Amsterdam: John Benjamins, 2010.
12. **Searle J. R.** A classification of illocutionary acts // Language in Society. — 1976. — Vol. 5, № 1. — P. 1–23.
13. **Searle J. R.** *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1979.
14. **Van Dijk T. A.** *Discourse and Power*. — Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2008.
15. **Safarov Sh.** *Pragmalingvistika*. — Toshkent, 2008.
16. **Abdykadyrova S. va boshq.** Reflection of intercultural concepts in the work “Baburnama” // Open Journal of Modern Linguistics. — 2021. — Vol. 11. — P. 140–148.
17. **Babur Z. M.** *Baburnama* / English translation by W. M. Thackston. — New York: Oxford University Press, 1996.
18. **Babur Z. M.** *Boburnoma*. — Turli nashrlar

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA VATAN MADHI

Sayfullayev Zuxriddin Asliddin o‘g‘li
Shavkatova Marjona Jamol qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Vatanga bo‘lgan muhabbat, sog‘inch va sadoqat g‘oyalari tahlil qilinadi. Bobur asarlarida Vatan tushunchasining badiiy talqini, tarixiy voqeliklar bilan uyg‘unligi hamda shoirning ichki kechinmalari asosida yoritilgan jihatlar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Bobur, Vatan, vatanparvarlik, sog‘inch, lirika, tarixiy ong.*

Аннотация. *В статье анализируется тема прославления Родины в творчестве Захириддина Мухаммада Бабура. Раскрываются мотивы любви к Родине, тоски по отчему краю и патриотизма, отражённые в поэзии и мемуарном наследии Бабура.*

Ключевые слова: *Бабур, Родина, патриотизм, ностальгия, поэзия, историческое сознание.*

Annotation. *This article analyzes the theme of glorifying the homeland in the works of Zahiriddin Muhammad Babur. It explores expressions of patriotism, longing for the native land, and emotional attachment to the homeland reflected in his literary heritage.*

Keywords: *Babur, homeland, patriotism, longing, poetry, historical memory.*

KIRISH

Har bir xalqning ma’naviy merosida Vatan tushunchasi eng muqaddas va azaliy qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Vatan — insonning tug‘ilib-o‘sgan diyori, milliy o‘zligi, tarixiy xotirasi va kelajakka bo‘lgan mas’uliyatini mujassam etuvchi tushunchadir. O‘zbek mumtoz adabiyotida Vatan mavzusi ko‘plab ijodkorlar tomonidan turli badiiy shakl va mazmunda yoritilgan bo‘lsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida bu mavzu alohida ruhiy chuqurlik va samimiyat bilan ifodalangan.Zahiriddin Muhammad Bobur — shoir, mutafakkir, sarkarda va davlat

arbobi sifatida nafaqat siyosiy tarixda, balki adabiyotimizda ham o‘chmas iz qoldirgan buyuk siymodir. Uning ijodida Vatan mavzusi shaxsiy hayotiy tajribalar, musofirlik iztiroblari va tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Bobur Vatanni madh etar ekan, uni ideal va mavhum tushuncha sifatida emas, balki real hayotiy makon, xalq va tabiat bilan bir butun holda tasvirlaydi.Boburning she’riy va nasriy asarlarida Vatanga bo‘lgan muhabbat sog‘inch, sadoqat va mas’uliyat tuyg‘ulari orqali ifodalanadi. Ayniqsa, “Boburnoma” asarida yurt manzaralari, tabiiy boyliklari, ijtimoiy hayoti va xalqining fazilatlari tasviri orqali chuqur vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Bu jihatdan Bobur ijodi yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat va milliy g‘ururni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Vatan madhi masalasi adabiy, tarixiy va ma’naviy jihatdan tahlil qilinib, shoirning Vatanga bo‘lgan munosabati yangi yondashuvlar asosida yoritiladi. Shuningdek, Bobur asarlaridagi Vatan obrazining tarbiyaviy ahamiyati va bugungi ta’lim jarayonidagi o‘rni ochib beriladi.

ASOSIY QISM

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Vatan mavzusi yetakchi g‘oyalardan biri hisoblanadi. Bobur hayoti davomida ko‘plab yurishlar, muhojirlik va ayriliqlarni boshdan kechirgan. Aynan shu hayotiy sinovlar uning asarlarida Vatanga bo‘lgan sog‘inch va muhabbatning yanada teran ifodalanishiga sabab bo‘lgan.Boburning she’riy asarlarida Vatan ko‘pincha yo‘qotilgan, ammo qalbda abadiy yashovchi muqaddas makon sifatida tasvirlanadi. Shoir o‘z yurtidan yiroqda yurgan chog‘larida Andijon, Farg‘ona vodiysi, ona diyor manzaralarini sog‘inch bilan eslaydi. Bu sog‘inch oddiy hissiyot emas, balki chuqur vatanparvarlik tuyg‘usining badiiy ifodasidir.Bobur ijodida Vatan madhi nafaqat she’riy asarlarda, balki uning mashhur “Boburnoma” asarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda muallif tug‘ilib o‘sgan yurtining tabiati, iqlimi, aholisi va urf-odatlarini katta mehr bilan tasvirlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur faqat siyosatchi emas balki she’riy talqinda ham ijod qilgan. Uning mashhur asarlari mavjud bo’lib, u hattoki ustozlari bilan mushoiralar ham o’tkazib turgan. Bobur she’rlaridan ikki devon tuzgani

ma’lum. Ularning birinchisiga Mavoraunnahr va Afg’onistonda yozilgan XVI asrda Turkiyada Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Abushqa” nomi berilgan, ikkinchisiga Hindistonga yozilgan she’rlari kiritilgan. Hozirgacha shoirning 119 g’azal, 1masnu’ she’ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit’alari, 50dan ortiq muammo va 30 dan ziyod fardlari aniqlangan, devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o’rin olgan edi. “Mubayyin” (“Tushuntirish”)-Boburning o’g’illari Humoyun va Kamron uchun fiqhiy qo’llanma sifatida yozgan asari. Bu tasvirlar orqali Boburning Vatanga bo‘lgan muhabbati va sadoqati yanada ravshanlashadi.Shoir Vatan tushunchasini faqat geografik hudud sifatida emas, balki ma’naviy qadriyatlar, tarixiy xotira va milliy g‘urur ramzi sifatida talqin qiladi. Bobur uchun Vatan — bu ajdodlar merosi, xalq taqdiri va shaxsiy mas’uliyat timsolidir. Shu bois uning asarlarida Vatan mavzusi insoniy burch va vijdon bilan chambarchas bog‘lanadi.Bobur ijodidagi Vatan madhi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlarida aks etgan sadoqat, matonat va yurtga muhabbat bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Vatan tushunchasi faqat geografik makon sifatida emas, balki ma’naviy-ruhiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bobur uchun Vatan — bu bolalik xotiralari, ajdodlar ruhi, milliy o‘zlik va tarixiy mas’uliyat uyg‘unligidir. Uning she’rlari va nasriy asarlarida Vatan obrazi ko‘pincha yo‘qotilgan, sog‘inilgan va orzu qilingan maskan sifatida tasvirlanadi. Ayniqsa, Andijon va Farg‘ona vodiysiga bo‘lgan mehr Bobur qalbida umrining oxirigacha so‘nmagan.

Boburning Vatan haqidagi qarashlarida siyosiy surgun va musofirlik ruhiyati alohida o‘rin egallaydi. U o‘z yurtidan uzoqda bo‘lsa-da, Vatanni unutmagan, aksincha, masofa uning muhabbatini yanada kuchaytirgan. Shu jihatdan Bobur ijodi Vatan mavzusini sog‘inch estetikasi orqali boyitgan adabiy meros hisoblanadi. Bu holat uni ko‘plab shoirlardan farqlaydi, chunki Bobur Vatanni ideal holatda emas, balki real, kamchiliklari bilan birga sevadi.“Boburnoma” asarida Vatan madhi bevosita she’riy shaklda emas, balki tasviriy va tarixiy yondashuv orqali beriladi. U yurtning tabiati, ob-havosi, mevalari, odamlari va urf-odatlarini batafsil tasvirlar

ekan, bu tasvirlar zamirida chuqur vatanparvarlik hissi mujassam. Aynan shu uslub Boburning Vatan haqidagi qarashlarini hayotiy va ishonarli qiladi. U Vatanni faqat madh etmaydi, balki uni asrash va qadrlash zarurligini ham anglatadi.Bobur ijodida Vatan tushunchasi shaxsiy taqdir bilan chambarchas bog‘langan. U o‘z hayotidagi muvaffaqiyat va mag‘lubiyatlarni Vatanning holati bilan qiyoslaydi. Bu esa Bobur ijodida Vatan va shaxs birligi g‘oyasini yuzaga keltiradi. Shoirning fikricha, insonning baxti va komilligi Vatanning osoyishtaligi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli Bobur ijodida Vatan mavzusi faqat lirik hissiyot emas, balki ijtimoiy mas’uliyat sifatida ham talqin qilinadi.Bobur she’riyatida Vatan madhi yosh avlodni milliy ong va tarixiy xotiraga hurmat ruhida tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Uning asarlarida Vatan uchun kurashish, uni sevish va unga sadoqatli bo‘lish eng oliy fazilat sifatida ko‘rsatiladi. Bu jihat Bobur ijodining bugungi ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini yanada oshiradi.Shuningdek, Bobur ijodida Vatan madhi Sharq mumtoz adabiyotidagi an’anaviy vatanparvarlikdan farqli ravishda shaxsiy kechinmalar bilan boyitilgan. U Vatanni umumiy tushuncha sifatida emas, balki o‘z hayoti bilan bog‘liq tirik timsol sifatida tasvirlaydi. Bu esa uning ijodini samimiy va ta’sirchan qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotida Vatan mavzusini chuqur shaxsiy kechinmalar, tarixiy haqiqat va ma’naviy mas’uliyat bilan uyg‘un holda yoritib bergan noyob adabiy meros hisoblanadi. Bobur uchun Vatan tushunchasi faqat tug‘ilib o‘sgan makon emas, balki ajdodlar ruhi, milliy o‘zlik, tarixiy xotira va insoniy burch ramzi sifatida talqin etiladi.Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Bobur ijodidagi Vatan madhi bugungi yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur va tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning asarlari ta’lim jarayonida o‘rganilishi orqali o‘quvchilarda Vatanni sevish, uni qadrlash va himoya qilish kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Zahiriddin Muhammad Bobur**. *Boburnoma*. — Toshkent: Fan, 2019.
2. **Zahiriddin Muhammad Bobur**. *Devon*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
3. **Karimov I. A.** *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. **Haqqulov I.** *Mumtoz adabiyot va milliy tafakkur*. — Toshkent: Fan, 2016.
5. **Quronov D.** *Adabiyotshunoslikka kirish*. — Toshkent: Akademnashr, 2017.
6. **Navoiy A.** *Tanlangan asarlar*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
7. *O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
8. ZiyoNET ta’lim portali materiallari [Elektron resurs].

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ZAMON YOSHLARI BILAN BIRGA

Sayfullayev Zuxriddin Asliddin o‘g‘li
Ashurova Dilbar Davron qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Zahiriddin Muhammad Bobur deganda o’zbek adabiyotining Alisher Navoiydan keying namoyondasi, Hindistonda 332yil hukm surgan Buyuk Boburiylar saltanatiga asos solgan qudratli davlat arbobi, ko’plab muzaffar yurishlarini amalga oshirgan jasur va mohir sarkanda memuar adabiyotining nodir durdonalaridan bo’lmish “Boburnoma”ni yaratgan. Bilimdon va haqgo’y muarrix, islom arkonlari haqida “Mubayyin” asarini bitgan. Zabardast faqih, mumtoz so’z san’atining asosiy vazni bo’lmish aruz tizimini tadqiq etib, “Aruz risolasi”ni yozgan. Nuktadon adabiyotshunos, o’tmish va zamondosh olim u – ijodni*

talabchanlik bilan bahoolagan. Nozikta'b munaqqid, arab yozuvini isloh qilib, "Boburiy xat"ni kashf etgan. Ijodkor murabbiy, mashhur tariqat piri Xoja Ahror Valiyning "Volidiya" risolasini forsiydan she'riy usulda tarjima qilgan mahoratli tarjimon, turkiy musiqa ohanglari haqida risola bitgan musiqashunos, qator kuylar yaratgan bastakor, harb sanati haqidagi risola muallifi, go'zal husnixat sohibi hisoblanmish serqirra faoliyat va iste'dod egasi bo'lgan barkamol bir zot ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ushbu maqolamizda aynan Zahiriddin Muhammad Boburning hayotida qanday voqeliklar yuz berganini o'rganishimiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, aruz, Boburnoma, Xoja Ahror Valiy, Volidiya, maqola, she'r, shoir, komillik, komil inson.*

Аннотация: *Захириддин Мухаммад Бабур – представитель узбекской литературы после Алишера Навои, могущественный государственный деятель, основавший Великую империю Моголов, которая правила Индией 332 года, отважный и умелый полководец, совершивший множество победоносных походов, создатель «Бабур-наме», редчайшего шедевра мемуарной литературы. Эрудированный и правдивый историк, написавший произведение «Мубайин» об основах ислама. Выдающийся законовед (факих), исследовавший систему аруза, основной стихотворный размер классической словесности, и написавший «Трактат об арузе». Проницательный литературовед, требовательно оценивавший творчество прошлых и современных ему ученых и творцов. Тонкий критик, реформировавший арабскую письменность и изобретший «Бобурский почерк». Творческий наставник, умелый переводчик, переведший с персидского на узбекский в стихотворной форме трактат известного пира тариката Ходжи Ахрара Вали «Валидия». Музыковед, написавший трактат о тюркских музыкальных ладах, композитор, создавший ряд мелодий, автор трактата о военном искусстве, обладатель красивого почерка – перед нами предстает совершенная личность, обладающая разносторонней деятельностью и талантом. В этой статье вы сможете узнать, какие именно события произошли в жизни Захириддина Мухаммада Бабура.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, аруз, Бабур-наме, Ходжа Ахрор Вали, Валидия, статья, стихотворение, поэт, совершенство, совершенный человек.*

Abstract:

When we speak of Zahiriddin Muhammad Babur, we envision a multifaceted genius and a perfect human being: the greatest representative of Uzbek literature after Alisher Navoi; a powerful statesman who founded the Great Baburid (Mughal) Empire, which ruled India for 332 years; and a brave and skillful commander who led numerous victorious campaigns. He is the creator of "Baburnama," a rare masterpiece of memoir literature. As an erudite and truthful historian, he wrote "Mubayyin," a work on the principles of Islam. As a formidable jurist and scholar of classical poetics, he researched the aruz system and authored "The Treatise on Aruz" . A keen literary critic, he evaluated the works of past and contemporary scholars with high standards. A refined reformer, he improved the Arabic script and invented the "Baburi script" . Furthermore, he was a creative mentor, a skilled translator who rendered the "Volidiya" treatise of the famous Sufi master Khoja Ahror Valiy from Persian into verse, a musicologist who wrote about Turkic musical melodies, a composer of various tunes, an author of a treatise on the art of war, and a master of beautiful calligraphy. In this article, you can explore the specific historical events that unfolded throughout the life of Zahiriddin Muhammad Babur.

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, aruz, Baburnama, Khoja Ahror Valiy, Volidiya, article, poem, poet, perfection, the perfect man (perfect human).*

Kirish

Bobur to’rt avlod orqali buyuk sohibqiron Amir Temurga borib bog’lanadi: uning otasi Umarshayx Mirzo Sulton Abusaid Mirzoning, Sulton Abusaid Mirzo Sulton Muhammad Mirzoning, Sulton Muhammad Mirzo Mironshoh Mirzoning, Mironshoh esa Amir Temurning uchinchi o’g’li edi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yili 14-fevralda Andijonda, Farg’ona viloyati hokimi Umarshayx Mirzo xonadonida tug’ilgan. O’sha davr ulamolaridan Mavlono Munir Marg’inoniy “Shashi-muharram” ya’ni “Muharram oyining oltinchi oyida tug’ildi”, deb uning

tarixini tushirgan bo'lsa, Turkiston mulkining o'sha davrdagi shayx ul-mashoyihi Xoja Ubaydulloh Ahror Valiy unga Zahiriddin deb ism qo'yadi. Bu ismning ma'nosi "dinni qo'llab quvvatlovchi, dinning homiysi, panohi" bo'lib, uni talaffuz qilishga qiynalishgani sababli go'dakni Bobur "sher, yo'lbars" deb atay boshlaydilar. Albatta, uning bu nomni olishiga dovyurakligi va jasurligi ham sabab bo'lgan. Uning bolaligi saroyda o'tdi va maxsus murabbiylar tomonidan fiqh ilmini, fors va arab tillarini, harb san'atini o'rganadi, ilm-fanga o'zgacha muhabbat qo'yadi. Shu meyorda ketayotgan sokin va shiddatli kunlar ortidan otasining bevaqt o'limi unga juda mashaqqatli yo'lning boshlanishi haqida belgi berardi go'yo. Lekin otasining bevaqt o'limi Boburni beg'ubor va jo'shqin bolaligi bilan erta xayrlashib, hukmdorlik tojini kiyishini taqazo qiladi. U Farg'ona taxtiga o'tirganida 12yoshda edi. Hukmdorlik qismati Bobur uchun boshdanoq og'ir kechdi – u taxtda o'tirib ulgurmay uch tarafdan hujumga otlangan dushmanlar bilan hayot-mamot jangiga kirishadi. Hukmronligining dastlabgi yillarida o'z mavqeyini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish, muntazam qo'shinni shakllantirish, davlat ishlarida tartib o'rnatish chora-tadbirlarini ko'rgan Boburning siyosiy maqsadi bobokaloni Amir Temur saltanatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Samarqandni egallash va tobora tanazzul botqog'iga botib borayotgan temuriylar hukmronligini qayta tiklab, Mavorounnahrda kuchli markazlashgan davlatni vujudga keltirish edi. Shunday qilib uni Samarqand qarshi oldi va takidlashimiz joyizki Samarqand Bobur qismatining eng og'ir nuqtasi: u bu qadimiy shaharni uch marta egallagan bo'lsada, bir marta ham qo'lida saqlab qololmadi. Birinchi marta Samarqand taxtiga o'tirganida u 15 yoshda edi. Samarqandni ikkinchi marta olganda Bobur 19 yoshda edi. O'zining aytishicha, bu paytda uning 240 kishisi bo'lgan, xolos. 1503-yili Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va mo'g'ullarning birlashgan qo'shini Sirdaryo bo'yida Shayboniyxon tomonidan tor-mor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashib yurgan bir paytda Andijonni Ahmad Tanbal egallab oladi. Qilgan barcha ishlari besamar ketganini kuzatgan va his qilgan holda 1504-yilning iyun oyida Mavorounnahrni tark etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur faqat siyosatchi emas balki she'riy talqinda ham ijod qilgan. Uning mashhur asarlari mavjud bo'lib, u hattoki ustozlari bilan mushoiralar ham o'tkazib turgan. Bobur she'rlaridan ikki devon tuzgani ma'lum. Ularning birinchisiga Mavoraunnahr va Afg'onistonda yozilgan XVI asrda Turkiyada Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan "Abushqa" nomi berilgan, ikkinchisiga Hindistonga yozilgan she'rlari kiritilgan. Hozirgacha shoirning 119 g'azal, 1masnu' she'ri, 209 ruboiysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50dan ortiq muammo va 30 dan ziyod fardlari aniqlangan, devoni tarkibidan umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rin olgan edi. "Mubayyin" ("Tushuntirish")-Boburning o'g'illari Humoyun va Kamron uchun fiqhiy qo'llanma sifatida yozgan asari. U masnaviy shaklida bo'lib, besh qismdan iborat: "E'tiqodiya" – iymon asoslari, "Kitob us-salot" – namoz o'qish qoidalari, "Kitob us-savm" – ro'za tutish yo'l yo'riqlari, "Kitob uz-zakot" – zakot berishga oid tavsiyalar, "Kitob ul-haj" – haj arkonlari haqida she'riy usulda qisqa, tushunarli ma'lumotlar beriladi, va diniy adabiyotlarni chuqur bilishini ko'rsatadi. Bu ma'lumotlardan anglashimiz qiyin emaski u har doim ham Haq, ham xalq dardida yashagan shu dard bilan nafas olgan, his qilgan, tushungan va idrok qilgan. Bazida esa u bu ikki yo'lning birini tanlashni imkoini qilmagan. Shuning uchun ham Hakim Termiziy aytgan ediki: "Nafsning bir soat Ichida qiladigan ishini yuz shayton ham qila olmas". Boburning o'zi ham dunyoviy va diniy ilmlarni yetarli darajada o'zlashtirgan, barcha ezgu fazilatlarning sohibi bo'lgan yetuk inson edi. Bobur o'z hayoti davomida faqat komillikka erishgan va harchand urinib dunyoviy va diniy ilmlarni yetarlicha egallaganiga qaramay hech qachon o'zidan ko'ngli to'lmagan. Ko'plab she'rlarida u o'zini hech bir ish qilmayotgan, hech nimaga erishmagan inson bilan tenglashtirib qilgan ishlarini ortidan kibrga ergashmagan.

Nosih so'zi sanga necha mardud o'lg'ay,
Yaxshi-yu yomon qarshingda nobud o'lg'ay
Bori emdi maosh bir nav' etkim,
Haq rozi-yu, olam eli xushnud o'lg'ay.

Quyida keltirilgan jumlalar ham ayni Haq va adolatni anglatuvchi misralar. Xulosa qilib aytganda, Bobur uchun komil inson qandaydir samoviy, mavhum bir zot bo'lmay, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, kasb-u hunarda barkamol, ilm-u donishda o'z davrining peshqadami, barcha ezgu fazilatlarni o'zida jamlagan real hayotiy shaxs. Bobur haqida harchan ko'p ta'rif keltirsak kam, uning vataniga, xalqiga qilgan ishlarini sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi, o'zini hayotini xavfga qo'yib jang maydonlarida mardonavor jasotlari alohida taskinga sazovotdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yil 26-dekabrda, 47 yoshida Agrada vafot etadi. Albatta, Boburning bu qadar yosh o'lib ketishiga uning sarson sargardonlikda o'tgan notinch hayoti, tortgan ko'pdan ko'p ranj-u mashaqqatlari, chekkan alam-qayg'ulari va ayniqsa, Ibrohim Lo'diyning onasi tomonidan zaharlanishi sabab bo'lgan. Chunki, bu sekin-asta ta'sir qiluvchi o'ta kuchli zahar bo'lib, Bobur u zahardan o'lmay qolgan bo'lsa ham, u yillar davomida jismini yemirgan, ichidan o'z ta'sirini o'tkazgan. Bobur dastlab Agradagi bog'i Nurafshonga dafn etiladi. Jamna daryosi bo'yida barpo etilgan bu bog' Agra markazidan 2,5 km masofada bo'lib, hozir Rombog' deb ataladi. 1540-yili uning hoki Kobulga- o'zi ihlos qo'yib obod qilgan Nazargoh bog'iga ko'chirilgan va hozir bu bog'ning nomi "Bog'i Bobur" deb ataladi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin Bobur ona yurtida chinakam hurmat ehtirom topdi. Andijonda Bobur bog'i barpo etilib, shoirning ramziy qabr-maqbarasi, "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi tashkil etildi. Bundan tashqari Andijonda Bobur nomidagi universtitet, teatr va kutubxona faoliyat yuritmoqda. 1993-yil 23-dekabrda Xalqaro Bobur jamg'armasi tashkil etilib, tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarligida 10 dan ortiq Sharq mamlakatlariga ilmiy safarlar uyushtirildi. Bobomiz Bobur 47 yil umr kechirgan bo'lsada u hali ham tirik va yashab kelmoqda. Vatanimiz ko'chalariga uning nomi berildi, har xil festivallar va ilmiy-ijodiy kechalar va tavallud kunlari keng targ'ib qilinib olib borilmoqda. Har bir zamonamiz yoshlari, bolalari o'z tilimiz bilan aytganda 7 yoshdan 70 yoshgacha uning nomini va tarixini bilishi o'rnak olishi lozim.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, bu xatti-harakatlar barchasi besamar ketmaydi. Yangi O’zbekiston yoshlari bobolari kim ekanligini unutmagan holda ularga loyiq avlodlar bo’ladi. Aynan Bobur ta’kidlagan komil insonlar yetishib chiqadi, nafs bilan kurashish juda ham qiyin va mushkuldir, u ta’kidlaganidek bir soatlik nafsning ishini shayton qilaolmaydi, shunday ekan avvalo nafsimiz bilan kurashishimiz va shaytonga qarshi jang qilishimiz darkordir. Buning uchun esa aynan Boburning asarlari undagi bitmas tuganmas ma’no va maqsadlarni, chegarasi mazmun va mohiyatni anglashimiz o’zimiz va ruhimizga singdirishimiz zarurdir. Shundagina biz Bobur xohlaganidek va o’zi intilganidek komil inson bo’la olamiz holos, chunki aynan o’zi ta’kidlaganidek komil inson yulduzlardan tushmaydi va o’z oramizda ya’ni ichimizda bo’ladi. Shu ichimizdagi komillikni uyg’ota olsakkina Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur aytganidek ham Haqqa, ham xalqqa xizmat qiluvchi bo’ladi. Hozirgi yoshlarimizning ham qonida, ham jonida buyuklarning qoni oqayotgani va buni isbotlashayotganini o’z ko’zimiz bilan ko’rib turibmiz. Aynan zamon yoshlari Yangi O’zbekiston yoshlari kimligini, komillikka erishib faqat bir sohada emas balki bir necha sohalarda o’z o’rnini vatanimiz nomini ko’klarga ko’tarib kelmoqda. Maqola so’nggida O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimovning Zahiriddin Muhammad Bobur haqida shunday so’zlarni aytgan edi “Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O’zbek xalqining dovrug’ini dunyoga taratgan ulug’ ajdodlarimizdan biri o’laroq, ul zot bizni tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o’rgatdi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Valixo‘jayev B.** *Mumtoz siymolar*. — Toshkent: Xalq merosi, 2002.
2. **Goden R.** *Gulbadan* / X. So‘fiyeva tarjimasi. — Toshkent: Sharq, 2007.
3. **Zahiriddin Muhammad Bobur**. *Boburnoma*. — Toshkent: Sharq, 2002.

4. **Sharma L.** *Boburiylar saltanati* / G‘. Sotimov tarjimasi. — Toshkent: Ma’naviyat, 1998.

BOBUR HAYOTI VA IJODI – AVLODLAR UCHUN NAMUNA

Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi
Salixova Sevara Dilmurod qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni qayta tiklash jarayoni kontekstida Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) hayot yo‘li va ko‘p qirrali merosi o‘rganiladi. Muallif Boburning Movarounnahrda tug‘ilgan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatidagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Bobur, garchi surgunga majbur bo‘lib, Hindistonda Buyuk imperiyaga asos solgan bo‘lsa ham, ona vatani bilan ruhiy bog‘lanishini saqlab qoldi va uning adabiy va ilmiy asarlari o‘zbek va jahon madaniyatining ajralmas qismidir. Asosiy e’tibor uning asosiy asari — “Boburnoma”ga qaratilgan bo‘lib, u nafaqat tarixiy yilnoma, balki XVI asr O‘rta Osiyo va Hindiston etnografiyasi va geografiyasining noyob manbai sifatida taqdim etiladi. Maqolada, shuningdek, Boburning Hindistondagi davlat faoliyati, uning me’morchilik tashabbuslari va vatanga muhabbat, yaxshilikka xizmat va inson qadr-qimmati mavzulari bilan sug‘orilgan chuqur axloqiy she’riyati yoritilgan. Bobur merosining yosh avlodni tarbiyalash va O‘zbekistonning milliy o‘zligini mustahkamlash uchun doimiy ahamiyati haqida xulosa chiqariladi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, Movarounnahr, o‘zbek adabiyoti, milliy tiklanish, o‘rta asr tarixi, Boburiylar imperiyasi, tarixshunoslik, Sharq she’riyati, O‘zbekiston madaniy merosi, ruboiy, g‘azal.*

Аннотация. *В статье исследуются жизненный путь и многогранное наследие Захириддина Мухаммада Бабура (1483–1530) в контексте процесса восстановления национальных ценностей в Узбекистане. Автор особо подчёркивает значение Бабура как великого поэта, мыслителя и государственного деятеля, родившегося в Мавераннахре. Несмотря на вынужденное изгнание и основание Великой империи в Индии, Бабур сохранил духовную связь с родиной, а его литературные и научные произведения являются неотъемлемой частью узбекской и мировой культуры. Основное внимание уделено его главному произведению — «Бабурнаме», представленному не только как историческая хроника, но и как уникальный источник по этнографии и географии Средней Азии и Индии XVI века. В статье также освещаются государственная деятельность Бабура в Индии, его архитектурные инициативы и глубокая нравственная поэзия, проникнутая темами любви к родине, служения добру и человеческого достоинства. Делается вывод о постоянной значимости наследия Бабура для воспитания молодого поколения и укрепления национальной идентичности Узбекистана.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, Бабурнаме, Мавераннахр, узбекская литература, национальное возрождение, средневековая история, империя Бабуридов, историография, восточная поэзия, культурное наследие Узбекистана, рубаи, газель.*

Abstract. *The article examines the life path and multifaceted legacy of Zahiriddin Muhammad Babur (1483–1530) in the context of the restoration of national values in Uzbekistan. The author emphasizes Babur’s role as a great poet, thinker, and statesman born in Mawarannahr. Despite forced exile and the founding of a great empire in India, Babur maintained a spiritual connection with his*

homeland, and his literary and scholarly works remain an integral part of Uzbek and world culture. Particular attention is given to his major work — the Baburnama, presented not only as a historical chronicle but also as a unique source on the ethnography and geography of Central Asia and India in the 16th century. The article also highlights Babur's state activity in India, his architectural initiatives, and his profound moral poetry imbued with themes of love for the homeland, service to goodness, and human dignity. The study concludes with the enduring significance of Babur's heritage for educating the younger generation and strengthening the national identity of Uzbekistan.

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, Mawarannahr, Uzbek literature, national revival, medieval history, Mughal Empire, historiography, Eastern poetry, cultural heritage of Uzbekistan, rubai, ghazal.*

Mustaqillik yillari davomida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni tiriltish va boyitish, buyuk ajdodlar xotirasini abadiylashtirish, ularning asarlarini o‘rganish va ommalashtirish bo‘yicha katta ish amalga oshirildi. Ularning qatorida buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o‘rin tutadi.

Zahiriddin Boburning tarjimayi holi juda qiziqarli. U 1483-yilning 14-fevral kuni Andijonda tavallud topgan. O‘zining 47 yillik umri davomida u tarix va adabiyotda o‘chmas iz qoldirdi. Uning to‘liq ismi Zahiriddin Muhammad Boburdir. Bobur taxallusi “Yo‘lbars” yoki “arslon” degan ma’noni anglatib, janglarda ko‘rsatgan mardligi uchun berilgan. .

Zahiriddin Muhammad Bobur Amir Temurning nevarasi, Farg‘ona viloyati hokimi Umarshayx Mirzoning o‘g‘li bo‘lib, u Movarounnahrda hokimiyat uchun kurashgan iste’dodli sarkarda va davlat arbobi edi. Biroq 1501-yil kuzida Shayboniyxon bilan hal qiluvchi jangdagi mag‘lubiyati tufayli vatanini tark etishga majbur bo‘ldi. 1526 -yil 29-apreldagi Panipat jangida Hindiston shahzodalari

ustidan g‘alaba qozonib, Hindiston va Afg‘onistonning katta qismini birlashtirdi va Buyuk Boburiylar imperiyasi sifatida tarixga kirgan yirik markazlashtirilgan davlatni barpo etdi. Bobur o‘ziga podshoh unvonini qabul qilib, Hindistonning Agra shahrini o‘z poytaxti deb e’lon qildi. Yangi davlat hukmdori Hindiston yerlarini birlashtirib, siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga yordam berdi. Shaharlarda kutubxona va karvonsaroylar qurilishi keng tarqaldi. Diplomatik munosabatlar ham yo‘lga qo‘yildi – 1530-yilda Bobur Moskva buyuk knyazi Vasiliy IIIga elchi yubordi. XX asr Hindiston milliy arbobi Javoharla’l Neru Bobur hukmronligi davrida Hindistonda hayotni yaxshilagan va madaniyatni boyitgan katta o‘zgarishlar yuz berganini ta’kidlagan. Hindiston Britaniya mustamlakasiga aylanguniga qadar uch yuz yildan ortiq vaqt davomida Boburiylar sulolasi tomonidan boshqarilgan.

Bobur nafaqat taniqli siyosiy arbob, balki yozuvchi sifatida ham tarixda qoldi. U uzoq vaqt mashhur shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bilan yozishmalar olib bordi. Bobur buyuk ishlarni buyuk iste’dodlarsiz amalga oshirib bo‘lmasligini bilardi.

Boburning eng asosiy asari “Boburnoma” hisoblanadi – bu islom adabiyotidagi avtobiografiyaning dastlabki namunalaridan biri bo‘lib, hozirgi kunda dunyoning 31 tiliga tarjima qilingan. Asarni “turkiy nasrning eng yaxshi asari” deb ta’riflashadi. Bu kitob faqatgina tarixiy yilnomalar to‘plami emas. Asar Boburning faoliyati, uning muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlari, uning boy sarguzashtli hayotidagi barcha voqealarni bayon qilishga bag‘ishlangan. Unda shu davrdagi O‘rta Osiyo va Hindiston xalqlarining tarixi, geografiyasi va urf-odatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham jamlangan.

“Boburnoma”da etnografiyaga oid ko‘plab faktik ma’lumotlar mavjud: hindlarning turli kiyimlari, ularning kasta tizimi, odatlari, oddiy xalq va feodal zodagonlarining turmush tarzi haqidagi tasvirlar qiziqarlidir. Ushbu ma’lumotlar boshqa tarixiy yilnomlarda mavjud emas va qimmatli tarixiy-etnografik ma’lumotlardir.

Hindistonda hukmronlik qilish muddati juda qisqa bo‘lsa ham (1526-1530-yillar), Bobur mamlakatni bir qadar birlashtirishga va yer-suv munosabatlari va soliq tizimini tartibga solish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Uning buyrug‘i bilan masjidlar obod qilindi, turli maqsadlardagi binolar qurildi, hammomlar qurildi, quduqlar qazildi. Hindistonning yirik shaharlari – Dehli, Agra, Lohur, Devalpurda – Bobur tomonidan bezakli o‘simliklar bilan bog‘lar va parklar barpo etildi.

Bundan tashqari 1521-yilda islom shariatining 5 asosi bayon qilingan falsafiy-diniy “Mubayyin” asari yozildi, shu yili Bobur soliqqa tortish haqida “Mubayyinu-l-zakot” kitobini ham yozdi. Uning “Harb ishi” (“Harbiy ish”), “Musiqa ilmi” (“Musiqa haqidagi fan”) ilmiy asarlari hozirgacha topilmagan. Bobur arab grafikasi asosida turkiy fonetikaga mos keladigan “Xatti Boburiy” (“Bobur xati”)ni tuzdi. Ushbu xat bilan Qur’on va Boburning o‘z asarlarining ayrim qismlari ko‘chirilgan. U, shuningdek, badiiy tarjima bilan ham shug‘ullangan, naqshbandiya tariqatining yirik ustasi, Baha-ud-din Naqshbandning izdoshi Xoja Ahror Valiyning diniy-falsafiy asari “Volidiya” (“Ota-onalik risolasi”)ni she’rlar shaklida tarjima qilgan.

Boburning lirikasi bizga bu ajoyib insonning faoliyati va taqdirining yana bir tomonini ochib beradi. Bobur she’riyatida ham insonning axloqi va ma’naviy kamoloti masalalari ko‘tarilgan. Shoir insonni ulug‘laydi, unga katta hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, inson qadr-qimmatini yuqori qo‘yadi. U bunga zid bo‘lgan narsalarni rad etadi. Boburning fikricha, xudbinlik, mag‘rurlik, ochko‘zlik, maqtanish – insonni yo‘q qiluvchi yaramas fazilatlardir. Shoir odamlarga samimiy maslahatlar beradi. O‘zining ruboiylarida u inson o‘zida qanday qilib eng yaxshi axloqiy fazilatlarni tarbiyalashi kerakligi haqida gapiradi.

Har kimki, vafo qilsa – vafo topqusidir!
Har kimki, jafo qilsa – jafo topqusidir!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki, yomon bo‘lsa – jazo topqusidir!

Hukmdor-shoirning butun ijodidan o‘tib o‘tgan eng muhim mavzu Vatanini yo‘qotish mavzusidir. Uning so‘nggi she’ri shunday edi:

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yil 26-dekabrda Agrada vafot etdi. Uning vasiyatiga binoan, uning xoki Kobulga ko‘chirildi. Boburning tug‘ilgan shahri Andijonda uning xotirasi saqlanib qolgan: unga haykal o‘rnatildi va uning nomi Andijon davlat universitetiga berildi. Vatanida, O‘zbekistonda “Boburnoma”ning yangi nashri – uning iste’dodiga chuqur hurmat va o‘z adabiyoti va tarixshunosligi rivojiga qo‘shgan ilmiy hissasining yuqori e’tirofi hisoblanadi.

Boburning ilmiy ishlari XV-XVI asrlardagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindistonning geografiyasi, etnografiyasi, florasi va faunasi haqida har tomonlama tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Buyuk bobokalonimiz ijodi butun dunyoda yuqori qadrlanadi. Unga yuzlab ilmiy va adabiy asarlar, badiiy filmlar bag‘ishlanadi. Shoirning qo‘lyozma asarlari Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa mamlakatlar muzeylarida saqlanadi.

O‘zining noyob asarlari bilan Bobur o‘zbek tili va adabiyotining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shdi. Uning hayot yo‘li, vatanparvarligi, ijodi va g‘oyalari yosh avloddarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Boburning butun ijodiy merosi jahon adabiyoti va madaniyatining oltin fondiga kiradi, O‘zbekiston xalqining boyligi va milliy iftixoridir.

ADABIYOTLAR

1. **Bobur Zahiriddin Muhammad** *Boburnoma*. — T.: Ensiklopediyalar bosh tahririyati, 1992.
2. **Bobur Zahiriddin Muhammad** *Sharq tanlangan lirikasi*. — Toshkent, 1980.
3. **Lemb G.** *Bobur – yo'lbars: Sharqning buyuk fathchisi*. — M.: Sentrpoligraf, 2002.

«BOBURNOMA» TARIXIY MANBA SIFATIDA

Sharipov Shaxriddin Ziyadullayevich

Zarmed Universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, "Boburnoma" da keltirilgan joy nomlari tabiati va iqlim sharoitlari, tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlar tahlil etilib, tegishli ilmiy xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so'zlar: *Bobur, "Boburnoma", tarix, ma'naviy meros, Farg'ona, hukmdor, xalq, manzara, tabiat, ma'lumot, davlat boshqaruvi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается произведение Захириддина Мухаммада Бабура «Бобурнома». Также анализируются природные и климатические условия местностей, упомянутых в «Бобурноме», информация об исторических личностях и делаются соответствующие научные выводы.*

Ключевые слова: *Бабур, «Бабурнама», история, духовное наследие, Фергана, правитель, народ, ландшафт, природа, информация, государственное управление.*

Abstract. *This article examines Zakhiriddin Muhammad Babur's work "Boburnoma." It also analyzes the natural and climatic conditions of the areas mentioned in "Boburnoma," as well as information about historical figures, and draws relevant scientific conclusions.*

Key words: *Babur, "Baburnama", history, spiritual heritage, Fergana, ruler, people, landscape, nature, information, public administration.*

Qadimgi Turon va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari alohida ajralib turadi. Betakror lirik shoir, o‘zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy-tarixiy, ilmiy-tabiiy va adabiy-lingvistik ma’lumotlar jamlanmasidan iborat. “Boburnomada” 1494 yildan 1530 yilgacha O‘rta Osiyo va Afg‘oniston va Hindistonda kechgan voqealar haqida ma’lumotlar beriladi. Bobur Mirzo tarixiy faktlarni shunchaki qayd etish jangu jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilan qanoatlanmay, voqealarni jonli tilda tushunarli va qiziqarli hikoya qiladi, manzara chizadi, tabiat va iqlim sharoitlarini, etnografik holatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Asarda o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan so‘zlar xazinasidan ustamonlik bilan foydalanilganligi natijasida o‘quvchilarni zeriktirmaydi. Bobur Mirzo o‘z xotiralarini badiiy naql uslubida sodda va ravon bayon etadi, o‘nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi; tabiat manzaralarini suratini chizadi; kitobni har xil syujetlar, sarguzashtlar, she’riy parchalar bilan bezaydi. Asardagi markaziy obraz - Boburning o‘zi, hisoblanadi. Uning his tuyg‘ulari dunyoqarashi haqida tasavvur hosil qiladi.

Taniqli amerikalik sharqshunos va biografik asarlar muallifi Harold Albert Lamb buyuk shoh, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Boburning sarguzashtlarga to‘la hayot yo‘lini “Bobur - Yo‘lbars” asarida yorqin satrlarda tasvirlab bergan[38].

Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-adabiy, tarixiy merosini o‘rganish hamda o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish ulkan ma’naviy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki, biz kimlarning avlodi ekanimizni anglash yoshlarda g‘urur va faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi. Qolaversa, Bobur va u qoldirgan boy ma’naviy meros nafaqat uning vatandoshlarini, balki butun dunyo ahlining e‘tiborini oziga jalb etmoqda.

Ingliz tarixchisi Elfiniston “Boburnoma” va uning muallifi haqida: “Uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy va mardona, shu bilan birga jonli va ifodali. O‘z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf odati, intilishlari qiziqishlari va qiliqlarini ko‘zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “Boburnoma” Osiyoda yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir”, - deb yozadi[39].

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida Farg‘ona viloyati haqida “Muxtasar viloyattur, oshlig‘ va mevasi farovon. Girdo-girdi tog‘ bo‘lubtur. G‘arbi tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas.”[40]

Bobur “Boburnoma” asarida tangri taoloning inoyati bilan 12 yoshida Farg‘ona viloyatida podshoh bo‘lganligi to‘g‘risida ma‘lumot beradi.

“Boburnoma”da muallifning mamlakat hukmdori sifatida o‘zidan oldin yashab o‘tgan va o‘z davrining saltanat hukmdorlari, davr sultonlari va shohlar faoliyatiga bergan obyektiv bahosini kuzatish mumkin. Bunday tasvirlarda Bobur davlat boshqaruvida amal qilish lozim bo‘lgan eng muhim jihatlarga alohida e’tibor

[38] Bobur - Yo‘lbars: Buyuk boburiylarning birinchisi/ H.Lamb; tarjimon F.Satimov. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. - 296 b.
[39] https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Javokhir104 (06.02.2025)
[40] Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma “Sharq” T., - 2002. 34-bet.

qaratadi, davlatchilik siyosati, saltanatni asrash, uning qudratini yuksaltirish, tasarrufiga kiritgan hududlarni bir butunlikda idora qilish, navkarlarning hamma ehtiyojlarini ta'minlash kabi jihatlar hukmdorga xos fazilatlar ekanini ta'kidlaydi, o'zi ham doim shunga amal qiladi. Bobur hukmdorlardagi shijoatlilik va mardonalik sifatlarini qattiq hurmat qiladi. Bu boradagi fikrlari asarning dastlabki qismlaridanoq otasi Umarshayx haqidagi ta'riflaridan boshlanadi: "Umarshayx mirzo… Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dag'i saxovaticha bor edi… shujo' va mardona kishi edi… uch masof urush qilib edi…"[41].

Asarda Boburning Sulton Husayn Boyqaroning hukmdorlik faoliyati, harbiy taktikasi haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Bunday tasvirlarda Bobur yurtga hukmdor bo'lish va mamlakatni boshqarishning bir qancha talablari, kurashlarda jasorat ko'rsatishi, oldiga qo'ygan maqsadi sari intilishi kabi jihatlar tahliliga e'tibor qaratadi: "Sulton Husayn mirzo ham Hirini ushbu yo'sunluq g'ofilliqta olibtur" deb tasvirlagan Bobur ba'zi janglarda unga taqlidan ish tutganligini ham ko'rish mumkin. Bunday holatlar, albatta, Bobur hali yosh, tajribasi shakllanmagan paytlardagi janglarda uchrasa, keyinchalik yoshi ulg'ayib, harbiy tajribasi oshib, mohir sarkarda bo'lgan vaqtlarida esa o'ziga xos usullardan foydalanadi. "Boburnoma"da ko'p fikr yuritilgan hukmdorlardan biri, shubhasiz, Shayboniyxon sanaladi. Muallif asarining aksariyat qismida uning nomini tilga olib o'tadi. Shayboniyxon shaxsiyatiga baho bergan Bobur uni temuriylar saltanati, madaniyati va shuhratini inqirozga olib kelgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Asarda Bobur bu shaxsning g'ayriinsoniy xislatlari, janglarda, davlat boshqaruvida ba'zan hiyla-nayrang ishlatishi, har qanday qabihlikdan ham qaytmasligi kabi jihatlariga ko'proq urg'u beradi. Shayboniyxon xarakteridagi johillik va berahmlik kabi illatlariga e'tibor qaratgan Bobur uning san'at va adabiyotga qiziqishi borligini, ijod bilan shug'ullanib, bir devon tuzganligini ham ta'kidlaydi. Bobur asarining boshidayoq aytgan xolislikka amal qilgan holda Shayboniyxon shaxsiyatiga baho beradi: "Men Samarqandni ikkinchi navbat olg'onda, bovujudkim, Shayboniyxondek kishi birla

[41] Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma "Sharq" T., - 2002. 37-bet.

Saripulda chiqib urushub, onchakim imkoni bor edi sa'y va ehtimomdin taqsir qilmaduk... shikast topib kelib, besh oy qal'adorliq qildim, qal'adorliq zabti va istehkomi va sardorliqda taqsir bo'lmadi. Atrof va javonibdag'i podshohlar va beklardin hech nav' madad va muovanat bo'lmadi, ma'yus bo'lub solib chiqtim"[42]. Bobur o'zidan oldin o'tgan hukmdorlar faoliyatiga ham o'rni bilan to'xtalib o'tadi. Xususan, Amir Temur, Sulton Mahmud G'oziy, Sulton Shihobiddin G'uriy kabi hukmdorlar haqidagi fikrlarini bildirib o'tadi. Bobur Hindistonni qo'lga kiritgandan keyin o'zidan oldin bu yurtni egallagan hukmdorlar haqida shunday ma'lumot beradi: "Hazrati Risolat zamonidin bu tarixqacha ul yuz podshohlaridin uch kishi Hinduston viloyatig'a musallit bo'lub, saltanat qilibturlar: bir, Sulton Mahmud G'oziy va avlodi Hinduston mamlakatida muddati madid saltanat taxtig'a o'lturubturlar. Ikkinchisi, Sulton Shihobiddin G'uriy va qullari va tavobii ko'p yillar bu mamolikda podshohliq surubturlar. Uchunchi mendurmen, vale mening ishim ul podshohlarning ishiga o'xshamas; ne uchunkim, Sulton Mahmud, Hindustonnikim musaxxar qildi, Xuroson taxti aning taxti zabtida edi va Xorazm va Dorulmurz salotini anga muti' va munqod edi. Samarqand podshohi aning zeri dasti edi. Cheriki ikki lak bo'lmasa, xud bir lakta ne so'z edi. Yana g'animlari raajalar edi. Tamom Hinduston bir podshohda emas edi. Har raaja bir viloyatga o'z boshicha podshohliq qilur edi"[43]. "Boburnoma"da nafaqat hukmdorlar, balki Xudoyberdi Temurtosh, Hofiz Muhammadbek do'ldoy, Qosimbek, Boboquli Bobo Alibek, Xoja Husaynbek, Shayx Mazidbek, Ali Mazidbek, Hasan Ya'qubbek, Ali Darvesh, Qambar Ali, Hasan Ali jaloyir, Badriddinbek, Mir Ali miroxo'r, Sayyid Hasan o'g'loqchi kabi ko'plab amir-u umarolar ham ta'riflanadi, ulardan ayrimlarining mardonalik sifatlari alohida ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda Zahiruddin Muhammad Bobur o'zining boy ma'naviy merosi orqali fanning turli sohalariga beqiyos hissa qo'shdi deyish mumkin. Ular

[42] Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma "Sharq" T., - 2002. 38-bet.
[43] Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma "Sharq" T., - 2002. 64-bet.

orasida ayniqsa “Boburnoma” o‘sha davr tarixini chuqur o‘rganishda o‘ziga xos qimmatli ilmiy ma’lumotlari bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Lamb H.** *Bobur — Yo‘lbars: Buyuk boburiylarning birinchisi* / F. Satimov tarj. — Toshkent: O‘zbekiston, 2015. — 296 b.
2. Foydalanuvchi:Javokhir104 [Elektron resurs]. — URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Foydalanuvchi:Javokhir104 (06.02.2025).
3. **Zahiriddin Muhammad Bobur** *Boburnoma*. — Toshkent: Sharq, 2002. — 336 b

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR: ILMIY VA MA’NAVIY MEROSI, TARIXIY-MADANIY AHAMIYATI VA MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TADQIQOTLAR

Umarova Dilnavoz

NamDU akadenik litsey

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, ijodi va ilmiy-merosi o‘rganilgan. Asarda Boburning solnomalari va qomusiy asarlari, xususan “Boburnoma”ning adabiy, tarixiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. “Boburnoma” Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko‘plab tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, uning uch qismi Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonning XV–XVI*

asrlardagi voqealarini qamrab oladi. Maqolada Bobur shunoslikning mustaqillik davrida rivojlanishi, ilmiy tadqiqotlar, anjumanlar, asarlar nashri va "Bobur va dunyo" jurnalining tashkil etilishi kabi masalalar ham yoritilgan. Boburning shaxsiy kechinmalari, yurtga muhabbat va ona tuprog'iga bo'lgan sadoqati uning ijodida badiiy nafislik bilan aks ettirilgani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, o'zbek klassik adabiyoti, tarixiy meros, turkiy she'riyat, madaniy meros, Bobur shunoslik, mustaqillik davri, ilmiy tadqiqot, adabiy-estetik tafakkur.*

Аннотация: *В данной статье исследуется жизнь, творчество и научное наследие Захириддина Мухаммада Бабура. В работе анализируется литературное, историческое и культурное значение летописей и энциклопедических трудов Бабура, в частности, «Бабурнамы». «Бабурнама» содержит множество исторических, социально-экономических и культурных сведений о народах Трансоксианы, Хорасана, Ирана и Индии, а её три части охватывают события Центральной Азии, Афганистана и Северной Индии в XV-XVI веках. В статье также рассматриваются такие вопросы, как развитие исследований творчества Бабура в период независимости, научные исследования, конференции, публикация работ и создание журнала «Бабур и мир». Подчеркивается, что личный опыт Бабура, любовь к стране и преданность родине нашли отражение в его творчестве с художественной изысканностью.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабурнама», узбекская классическая литература, историческое наследие, тюркская поэзия, культурное наследие, исследования творчества Бабура, период независимости, научные исследования, литературно-эстетическая мысль.*

Abstract: *This article studies the life, work and scientific heritage of Zahiriddin Muhammad Babur. The work analyzes the literary, historical and cultural significance of Babur's chronicles and encyclopedic works, in particular, the "Baburnama". "Baburnama" contains a lot of historical, socio-economic and*

cultural information about the peoples of Transoxiana, Khorasan, Iran and India, and its three parts cover the events of Central Asia, Afghanistan and Northern India in the 15th-16th centuries. The article also covers issues such as the development of Babur studies during the period of independence, scientific research, conferences, publication of works and the establishment of the journal "Babur and the World". It is emphasized that Babur's personal experiences, love for the country and devotion to his native land were reflected in his work with artistic elegance.

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, Uzbek classical literature, historical heritage, Turkic poetry, cultural heritage, Babur studies, period of independence, scientific research, literary and aesthetic thought.*

Har bir millat tarixida uning madaniy yuksakligini va ma’naviy kamolotini belgilovchi buyuk shaxslar mavjud. Shunday shaxslardan biri – Zahiriddin Muhammad Bobur. O‘zbekiston klassik adabiyotining eng yirik vakillaridan biri sifatida Bobur, qisqa umr ko‘rishiga qaramay, boy ilmiy, ma’rifiy va adabiy meros qoldirgan. Uning solnomalari hajmi jihatidan keng bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda faqat muayyan qismi bizgacha yetib kelgan. Tarixiy voqealar, siyosiy beqarorlik va bosqinchilik davrlari uning asarlarini shikastlagan, ba’zilari esa butunlay yo‘qolgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek adabiyotida nafaqat shoiri va ilmiy olim sifatida, balki mohir davlat arbobi va sarkarda sifatida ham alohida o‘rin tutadi. Uning ilmiy-ijodiy merosi milliy madaniyat va xalqimizning adabiy-estetik tafakkurini shakllantirishda katta hissa qo‘shgan, shuningdek, jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchilik tarixida ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati va adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan. Keng dunyoqarashi va aqliy salohiyati tufayli u Hindistonda ma’rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan. Shu bilan birga, uning “Boburnoma” asari uni jahon tarixnavislik adabiyoti qatorida ham tanilgan shaxsga aylantirgan. Boburning g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatning eng nodir durdonalari sifatida qadrlanadi.

Bundan tashqari, “Mubayyin”, “Harb ishi”, “Xatti Boburiy” asarlari va “Aruz” risolasi islomshunoslik, harb san’ati, nafis san’at, she’riyat va til nazariyasi sohalarida beqiyos hissa qo‘shgan. Ushbu asarlar Boburning nafaqat shoir va davlat

arbobi, balki ilm-fan sohasidagi keng bilimli mutaxassis sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirganligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, Zahiriddin Muhammad Boburning ijodi va ilmiy merosi nafaqat o‘zbek milliy madaniyatining boyligi, balki jahon madaniy va adabiy merosining ajralmas qismi sifatida e’tiborga loyiqdir.

“Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotning eng mashhur qomusiy asarlaridan biridir. Unda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid keng qamrovli ma’lumotlar jamlangan. Asar uch asosiy bo‘limdan iborat: birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda sodir bo‘lgan voqealarni, ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg‘onistonda yuz bergan hodisalarni, uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiy lavhalarini o‘z ichiga oladi.

“Boburnoma” – 1500 ga yaqin tarixiy shaxslar, shuningdek, o‘simlik va hayvonot olamiga oid yuzlab nodir ma’lumotlarni jamlagan qomusiy asar bo‘lib, bugungi kunda yigirmadan ortiq tillarga tarjima qilingan. Muxtasar qilib aytganda, ushbu asar o‘quvchiga Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixi, boburiylar davlati ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti, madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi. Ingliz olimi Uilyam Erskin “Boburnoma”ni tarjima qilarkan, Boburning shaxsiyatini shunday ta’riflaydi: *“Osiyoda saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fanga va san’atga mehri, shuningdek, ularni muvaffaqiyatli rivojlantirish jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi.”*

Boburning ulkan ijodiy salohiyati shundaki, u asarlarida shaxsiy kechinmalarini ifoda etish bilan birga, yuksak g‘oyalar va umuminsoniy qadriyatlarni ilgari suradi. Xususan, uning she’riyatida ona yurtga bo‘lgan chuqur muhabbat, uning tuprog‘iga intilish, musofirlik iztiroblaridan keladigan hasrat va yoru diyor sog‘inchi katta badiiy nafislik bilan aks ettiriladi. Shunday qilib, “Boburnoma” nafaqat tarixiy manba, balki adabiy san’at namunasi sifatida ham o‘zbek va umumturkiy madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama o‘rganish, uning asarlarini mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda

targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, shoir tug‘ilgan kun – 14 fevral sanasi har yili butun O‘zbekistonda adabiyot va ilm-ma’rifat bayrami sifatida nishonlanadi. Bobur shunoslik sohasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda muntazam ravishda ilmiy anjumanlar tashkil etilmoqda. Shu davrda Boburning asarlari nashrdan chiqarildi, “Bobur va dunyo” jurnali tashkil qilindi, bu esa mamlakatimiz madaniy hayotida muhim voqea sifatida e’tirof etildi. Shu bilan, mustaqillik davri Bobur shunoslikni tizimli rivojlantirish, uning ijodiy merosini yurtimiz va jahon ilmiy hamjamiyatiga keng targ‘ib etish borasida tarixiy davr sifatida iz qoldirdi. Shuningdek, andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg‘armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o‘tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi. Mazkur ma’lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar (Z. Mashrabov, S. Shokarimov: «Asrlarni bo‘ylagan Bobur»; S. Jalilov: «Boburning Farg‘ona davlati», «Bobur va Andijon»; Qamchibek Kenja: «Hind sorig‘a»; X. Sultonov: «Boburning tushlari», «Boburiynoma»; R. Shamsuddinov: «Boburiylar izidan», «Boburiylar sulolasi»; T. Nizom: «Uch so‘z»), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: «Bobur izidan», «Muqaddas qadamjolar»; T. Ro‘ziev: «Bobur salomi», «Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya»; T. Hamidov: «Iftixor» va h.k.) yaratildi. Jamg‘armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O‘sh (Qirg‘iziston), Toshkent, Namangan (O‘zbekiston) shahrilarida bo‘limlari mavjud. 1998 yil Jamg‘armaning bobur shunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirimqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G‘aybulloh as-Salom, Ne’matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Ma’murjon

To‘xtasinov, Ravshan Mirtojiev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzaevga berildi.

ADABIYOTLAR

1. **Nazarova X.** *"Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi*: dokt. diss. — Toshkent, 1980.
2. **Sulton X.** *Boburiynoma*. — Toshkent: Ma’naviyat, 1996.
3. *История стран Азии и Африки в средние века*. — Челябинск, 2004.
4. **Aminova S. A.** Bobur ilmiy-ma’naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati [Elektron resurs].
5. vaqt.ucoz.com // Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) [Elektron resurs]. — URL: https://vaqt.ucoz.com/publ/buyuk_shaxslar/zahiriddin_muhammad_bobur_1483_1530/23-1-0-173
6. vaqt.ucoz.com // Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) — Buyuk shaxslar [Elektron resurs]. — URL: https://vaqt.ucoz.com/publ/buyuk_shaxslar/zahiriddin_muhammad_bobur_1483_1530/23-1-0-173

«BOBURNOMA» VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING ADABIY MEROSI: TARIXIY, IJTIMOIY VA MADANIY TAHLIL

Usmonov Musurmon Mamirali o‘g‘li

Nodira Qo‘chqarova G‘olibjon qizi

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada buyuk mutafakkir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy merosi, xususan, "Boburnoma" asarining tarixiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda Boburning shaxsiy kuzatuvlari, tarixiy voqealarga munosabati, jamiyat hayoti, madaniy muhit va badiiy tafakkur xususiyatlari yoritilgan. Maqolada "Boburnoma"ning tarixiy manba va yuksak badiiy asar sifatidagi o'rni asoslab beriladi hamda Bobur adabiy merosining o'zbek va jahon adabiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Bobur, Boburnoma, adabiy meros, tarixiy manba, badiiy tafakkur, madaniy muhit.*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ литературного наследия великого мыслителя и полководца Захириддина Мухаммада Бабура, в частности произведения «Бабурнаме», с точки зрения его исторической, социальной и культурной значимости. Рассматриваются личные наблюдения автора, его отношение к историческим событиям, отражение общественной жизни, культурной среды и художественного мышления. Обосновывается значение «Бабурнаме» как ценного исторического источника и выдающегося литературного произведения, а также раскрывается роль литературного наследия Бабура в узбекской и мировой литературе.*

Ключевые слова: *Бабур, Бабурнаме, литературное наследие, исторический источник, художественное мышление, культурная среда.*

Annotation. *This article analyzes the literary heritage of the great thinker and commander Zahiriddin Muhammad Babur, with particular emphasis on the historical, social, and cultural significance of the work Baburnama. The study examines Babur's personal observations, his interpretation of historical events, reflections on social life, cultural environment, and artistic thinking. The article substantiates the role of Baburnama as both an important historical source and a high literary work, highlighting the significance of Babur's literary legacy in Uzbek and world literature.*

Keywords: *Babur, Baburnama, literary heritage, historical source, artistic thinking, cultural environment.*

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, yuksak tafakkur egasi va adib sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan shaxsdir. Uning hayoti va faoliyati XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Boburning adabiy merosi esa o‘zbek mumtoz adabiyotining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi va jahon adabiyotida ham e’tirof etilgan nodir meros sifatida baholanadi.

Boburning ijodidagi eng yirik va mashhur asar – “Boburnoma” – nafaqat tarixiy hujjat, balki yuksak badiiy tafakkur mahsuli sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Asarda muallif o‘z davrining siyosiy voqealari, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar, shuningdek, jamiyat hayoti, urf-odatlar va madaniy muhitni bevosita guvoh sifatida batafsil bayon qiladi. Shu bilan birga, Bobur asarni badiiy tafakkur, obrazli tasvir va shaxsiy kechinmalar bilan boyitganligi, uning adabiy qadrini oshiradi.

Maqolada Bobur va “Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati, siyosiy tafakkuri, harbiy strategiyasi, shuningdek, adabiy merosining o‘zbek va jahon adabiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqsad – o‘quvchiga Bobur ijodi va “Boburnoma” asarining nafaqat tarixiy, balki madaniy, adabiy va ilmiy qadriyatlarini tizimli ravishda ko‘rsatishdir.

Asosiy qism

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari Sharq adabiyoti va tarixshunosligida noyob va betakror manba hisoblanadi. Ushbu asar XV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni yoritib berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. “Boburnoma” muallifning shaxsiy hayoti, siyosiy faoliyati va ichki kechinmalarini

o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, tarixiy voqealarning bevosita ishtirokchisi tomonidan yozilganligi bilan boshqa manbalardan tubdan farq qiladi[44].

“Boburnoma” eng avvalo ishonchli tarixiy manba sifatida e’tirof etiladi. Bobur o‘z hayoti davomida guvoh bo‘lgan voqealarni, jumladan, siyosiy kurashlar, harbiy yurishlar, davlatlararo munosabatlar va sulolaviy nizolarni batafsil qayd etadi. Asarda Temuriylar davrining inqirozi, Movarounnahrdagi siyosiy beqarorlik, Boburning Farg‘onadan Samarqand, Kobul va Hindistongacha bo‘lgan murakkab yo‘li aniq tarixiy faktlar asosida bayon etilgan[45].

Bobur tarixiy voqealarni yoritishda xolislikka intiladi. U o‘zining g‘alabalari bilan bir qatorda mag‘lubiyatlarini ham ochiq tasvirlaydi. Masalan, Samarqand uchun olib borilgan kurashlarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni tan olishi uning tarixchi sifatidagi halolligini ko‘rsatadi. Shu sababli “Boburnoma” tarixshunoslikda subyektivlikdan nisbatan xoli bo‘lgan muhim birlamchi manba sifatida baholanadi[46].

Asarda keltirilgan shaxslar, joy nomlari, janglar va sanalar keyingi tarixiy tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Ko‘plab olimlar “Boburnoma”ni XVI asr tarixini o‘rganishda eng muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etadilar. “Boburnoma”ning muhim jihatlaridan biri — unda ijtimoiy hayotning keng va jonli tasvirlanishidir. Bobur faqat hukmdorlar va sarkardalar hayoti bilangina cheklanib qolmay, oddiy xalq turmushi, ularning mehnati, urf-odatlari, marosimlari va kundalik hayotini ham tasvirlaydi[47].

Asarda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, bozorlardagi muhit, xalqning turmush tarzi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Bu hol “Boburnoma”ni ijtimoiy tarix uchun ham muhim manbaga aylantiradi. Bobur jamiyatdagi tabaqalanish, amaldorlar va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni real tasvirlaydi, adolatsizlik va tartibsizliklarga tanqidiy munosabat bildiradi. Boburning ijtimoiy qarashlari insonparvarlik ruhida bo‘lib, u adolat, halollik va mas’uliyatni

[44] Bobur, Z.M. Boburnoma. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
[45] Bobur, Z.M. Boburnoma. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
[46] Karimov, A. Bobur ijodi va adabiy merosi. — Toshkent: Fan, 2009
[47] Qodirov, O. O’rta Osiyo tarixi: XVI asr. Toshkent: Sharq, 2005.

davlat boshqaruvida muhim omil deb biladi. Bu jihat uning shaxsiy dunyoqarashi va siyosiy yetukligini ko‘rsatadi.

“Boburnoma” madaniy-ma’naviy hayotni o‘rganish uchun ham beqiyos manbadir. Asarda adabiyot, san’at, musiqa, me’morchilik va ilm-fan rivoji haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Bobur ijodkorlarni qadrlagan, shoirlar, olimlar va san’atkorlarga yuqori baho bergan[48]. Bobur tabiat tasvirlariga alohida e’tibor qaratadi. U tog‘lar, daryolar, bog‘lar, o‘simlik va hayvonot dunyosini nihoyatda nozik did bilan tasvirlaydi. Bu tasvirlar asarning badiiy qiymatini oshiradi va Boburning estetik tafakkurga ega bo‘lgan adib ekanini namoyon etadi. Shuningdek, “Boburnoma”da turli xalqlar va mintaqalarning madaniy xususiyatlari, tillari va urf-odatlari haqida qimmatli kuzatuvlar mavjud. Bu jihat asarni etnografik manba sifatida ham muhim qiladi.

“Boburnoma” tarixiy asar bo‘lishi bilan birga yuksak badiiy qiymatga ham ega. Bobur asarni sodda, ravon va jonli tilda yozgan. Uning tili obrazli, tasvirlari esa real va ta’sirchan[49]. Asarda badiiy tasvir va tarixiy faktlar uyg‘unlashib, o‘quvchida kuchli taassurot uyg‘otadi. Bobur o‘z kechinmalarini samimiy tarzda ifodalaydi. Quvonch, qayg‘u, umid va iztirob kabi insoniy tuyg‘ular asarda tabiiy aks etgan. Bu esa “Boburnoma”ni faqat tarixchilar uchun emas, keng kitobxonlar ommasi uchun ham qiziqarli qiladi.

“Boburnoma” asarining eng muhim jihatlaridan biri — unda tarixiy voqealar shunchaki sanab o‘tilmay, muallifning shaxsiy kuzatuvlari va munosabati asosida bayon etilishidir. Bobur voqealarning bevosita ishtirokchisi sifatida o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, boshidan kechirgan holatlarni yozadi. Shu bois asarda tarixiy faktlar jonli, aniq va ishonarli tarzda aks etadi[50].

Bobur tarixiy hodisalarga baho berishda hissiyot va aql muvozanatini saqlashga intiladi. U ba’zan o‘z qarorlarini tanqid qiladi, ayrim siyosiy xatolarini ochiq tan oladi. Masalan, Samarqandni boshqarish davridagi tajribasini yoritishda u yoshligi,

[48] Fitrat. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent, 1996
[49] Is’hoqov, Y. Bobur lirikasining badiiy xususiyatlari. — Toshkent: Adabiyot, 2008
[50] LITERARY INFLUENCES AND STYLISTIC FEATURES IN ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S “BABURNAMA”. International Journal of Artificial Intelligence. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/81073

tajribasizligi va atrofidagi ayrim amaldorlarning xiyonatini tanqidiy ruhda tilga oladi. Bu hol Boburning tarixiy voqealarga nisbatan xolis va mas'uliyatli munosabatini ko‘rsatadi. Shuningdek, Bobur boshqa hukmdorlar va siyosiy arboblar faoliyatini ham baholaydi. U ayrim hukmdorlarni adolatli, dono va tadbirkor sifatida e'tirof etsa, boshqalarini loqaydlik va zulmda ayblaydi. Bu baholar asarning tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi, chunki ular muallifning shaxsiy tajribasiga asoslangan.

"Boburnoma" jamiyat hayotini o‘rganish uchun ham noyob manbadir. Asarda faqat siyosiy elita emas, balki oddiy xalq hayoti ham aks ettirilgan. Bobur dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va askarlarning kundalik hayotiga e'tibor qaratadi. U bozorlardagi muhit, savdo aloqalari, narx-navolar, xalqning turmush darajasi haqida muhim ma'lumotlar beradi[51].

Bobur jamiyatdagi adolatsizlik va tartibsizliklarga befarq bo‘lmaydi. U ayrim amaldorlarning xalqni ezishi, soliqlarning haddan tashqari oshirilishi kabi holatlarni tanqid qiladi. Shu bilan birga, adolatli boshqaruv va xalq farovonligi davlat barqarorligining asosiy sharti ekanini ta'kidlaydi. Bu fikrlar Boburning ijtimoiy-siyosiy qarashlari yetuk darajada shakllanganini ko‘rsatadi. Asarda turli mintaqalardagi jamiyat hayotining o‘ziga xos jihatlari ham solishtirma tarzda yoritiladi. Movarounnahr, Kobul va Hindiston aholisi turmush tarzidagi farqlar Boburning kuzatuvlari orqali aniq ifodalangan. Bu hol "Boburnoma"ni ijtimoiy-etnografik manba sifatida ham qimmatli qiladi[52].

Bobur madaniy muhitga nihoyatda katta e'tibor bergan ijodkor edi. "Boburnoma"da adabiyot, musiqa, san'at va ilm-fan rivoji haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bobur shoirlar va olimlarni hurmat qilgan, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlagan. Asarda o‘z davrining mashhur ijodkorlari haqida iliq fikrlar bildirilgan[53].

Bobur madaniyatni jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘radi. U ilm-fan va san'at rivojlangan joylarda hayot barqarorroq bo‘lishini qayd etadi.

[51] "BABURNAMA". International Journal of Artificial Intelligence. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/81073
[52] Fitrat. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent, 1996
[53] Ahmedov, B. O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazi. — Toshkent, 2015.

Ayniqsa, bog‘lar, me’moriy inshootlar, masjid va madrasalar tasviri orqali madaniy muhitning umumiy manzarasi yaratiladi. Shuningdek, Bobur turli xalqlarning urf-odatlari, bayramlari, marosimlari va kundalik madaniyatini kuzatib, ularni xolis tarzda bayon etadi. Bu jihat asarni madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim qiladi.

“Boburnoma”da Boburning yuksak badiiy tafakkuri yaqqol namoyon bo‘ladi. U tarixiy voqealarni quruq bayon qilish bilan cheklanmay, ularni badiiy tasvirlar bilan boyitadi. Tabiat manzaralari, shaharlar va insonlar tasviri asarda nihoyatda jonli va obrazlidir. Bobur tilining sodda va ravonligi asarning asosiy badiiy xususiyatlaridan biridir. U murakkab voqealarni oddiy va tushunarli tarzda ifodalaydi. Bu hol asarni keng kitobxonlar uchun ham o‘qishli qiladi. Boburning yozish uslubida samimiylik ustuvor bo‘lib, u o‘z his-tuyg‘ularini yashirmaydi. Badiiy tafakkur Bobur uchun voqealarni tushunish va anglash vositasi bo‘lgan. Shu sababli “Boburnoma”da tarix, adabiyot va shaxsiy kechinmalar bir butun holda namoyon bo‘ladi. Bu asarni Sharq xotiranavislik adabiyotining eng yuksak namunalaridan biriga aylantiradi.

Boburnoma” tarixiy voqealarni bayon etishda muallifning shaxsiy guvohligi va bevosita ishtirokiga tayanishi bilan boshqa tarixiy asarlardan ajralib turadi. Bobur o‘z hayoti davomida yuz bergan siyosiy voqealar, harbiy yurishlar, taxt uchun kurashlar va davlat boshqaruvi jarayonlarini batafsil qayd etadi[54]. Asarda Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Kobul va Hindiston hududlaridagi siyosiy vaziyat aniq faktlar, sanalar va shaxslar nomi bilan keltiriladi. Bobur voqealarni xolis yoritishga intilib, mag‘lubiyatlarini ham, g‘alabalarini ham yashirmay yozadi. Bu holat asarning tarixiy ishonchliligini yanada oshiradi. Ayniqsa, Temuriylar sulolasi ichidagi nizolar, davlat boshqaruvidagi muammolar va tashqi siyosiy munosabatlar haqidagi ma’lumotlar tarixchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Asarda faqat siyosiy tarix emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayot ham keng yoritilgan. Bobur soliq tizimi, yer egaligi, shahar va qishloq hayoti, savdo-sotiq munosabatlari haqida

[54] BOBURNOMANING JAHON ILMIY JAMOATCHILIGI TOMONIDAN O‘RGANILISHI. Young Scientists. https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/101752

qimmatli ma'lumotlar beradi. Shu sababli "Boburnoma" tarixshunoslikda ko'p qirrali manba sifatida baholanadi.

"Boburnoma"ning tarixiy ahamiyati uning etnografik va madaniy ma'lumotlarga boyligida ham namoyon bo'ladi. Bobur turli xalqlarning urf-odatlari, diniy qarashlari, marosimlari va kundalik turmush tarzini kuzatuvchi olim sifatida tasvirlaydi[6]. Hindiston aholisi, ularning yashash tarzi, ovqatlari, kiyim-kechagi va iqlim sharoiti haqidagi ma'lumotlar o'sha davr madaniy muhitini tasavvur qilish imkonini beradi. Shuningdek, asarda geografik tasvirlar muhim o'rin egallaydi. Tog'lar, daryolar, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida berilgan ma'lumotlar "Boburnoma"ni geografik manba sifatida ham qimmatli qiladi[7].

"Boburnoma" tarixiy manba bo'lishi bilan bir qatorda, badiiy jihatdan ham yuksak saviyada yozilgan asardir. Asarning tili sodda, ravon va obrazli bo'lib, voqealar badiiy tasvirlar orqali jonlantiriladi[8]. Bobur tabiat manzaralarini tasvirlashda poetik tafakkurga tayanadi, bu esa nasrda yozilgan bo'lsa-da, asarga she'riy ohang bag'ishlaydi. Muallifning shaxsiy kechinmalari, ichki iztiroblari va hayotiy mulohazalari asarga samimiylik ruhini beradi. Bobur o'zini ideallashtirmaydi, balki kamchiliklarini ham ochiq tan oladi. Bu jihat asarning badiiy va psixologik qimmatini yanada oshiradi[9].

"Boburnoma"da Bobur shaxsi sarkarda, hukmdor, tarixchi va shoir sifatida uyg'un holda namoyon bo'ladi. Asarda adolat, vatanparvarlik, insoniylik kabi g'oyalar badiiy-falsafiy mushohadalar orqali ifodalanadi[10]. Bobur voqealarni tahlil qilib, ularning sabab va oqibatlariga e'tibor qaratadi, bu esa uning yuksak siyosiy va badiiy tafakkur egasi ekanini ko'rsatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi sifatida ham alohida e'tirof etiladi. Uning adabiy merosi turkiy (eski o'zbek) adabiyot rivojida muhim bosqichni tashkil etib, keyingi davr adabiy jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bobur ijodi o'zbek adabiyoti doirasidan chiqib, jahon adabiy tafakkuri kontekstida ham yuksak baholanadi.

Boburning adabiy merosi asosan quyidagi asarlardan iborat:

- "Boburnoma"

- G‘azal, ruboiy va qit’alarni o‘z ichiga olgan devon
- Fiqh, aruz va adabiyotga oid risolalar

Ushbu asarlar orqali Bobur shoir, nosir va mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, uning she’riyati va nasriy ijodi bir-birini to‘ldirgan holda yuksak badiiy saviyani ifodalaydi.

Bobur o‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy an’analarini davom ettirgan ijodkor sifatida taniladi. U turkiy tilda ijod qilishni sharaf deb bilgan va o‘z asarlarida ona tilining boy imkoniyatlarini mahorat bilan namoyon etgan[55]. Boburning g‘azallari tili sodda, samimiy va hayotiy bo‘lib, ularda shaxsiy kechinmalar, vatan sog‘inchi, hayot falsafasi va muhabbat mavzulari yetakchi o‘rin egallaydi. Bobur she’riyatida rasmiylikdan ko‘ra ichki kechinmalar ustuvor bo‘lib, bu holat o‘zbek lirikasiga yangi ruh olib kirgan. U shoir sifatida o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifodalagan, bu esa o‘zbek adabiyotida samimiy lirik yo‘nalishning rivojiga turtki bo‘lgan. “Boburnoma” esa o‘zbek nasrining eng yuksak namunalaridan biri bo‘lib, adabiyotimizda realistik tasvir uslubining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bobur voqealarni badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, nasr imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqqan.

Bobur asarlarining badiiy jihatdan yuksakligi bir necha omillar bilan belgilanadi:

- tilning soddaligi va ravonligi;
- obrazlilik va tasviriylik;
- shaxsiy kechinmalarning samimiy ifodasi;
- tabiat va jamiyat tasvirining uyg‘unligi.

Bobur she’riyatida inson ruhiyati, ichki iztiroblar va hayot sinovlari chuqur badiiy tahlil qilinadi. Bu jihat uning ijodini zamonaviy o‘quvchi uchun ham dolzarb qiladi[56].

Bobur adabiy merosi jahon adabiyoti tarixida ham alohida o‘rin egallaydi. “Boburnoma” ko‘plab tillarga — fors, ingliz, rus, fransuz va boshqa tillarga tarjima

[55] Yo‘ldoshev, J. Bobur ijodida shaxs va davr. — Toshkent: Akademnashr, 2017
[56] Barthold, V.V. Works on Central Asian History. — Moscow, 1963

qilingan bo‘lib, Sharq tarixini o‘rganishda asosiy manbalardan biri sifatida tan olingan. G‘arb olimlari Boburni Sharq Uyg‘onish davrining yirik vakili sifatida baholaydilar. Ularning ta’kidlashicha, Bobur asarlarida tarixiy tafakkur, badiiy did va shaxsiy kuzatuvlar uyg‘unlashgan[57]. Ayniqsa, “Boburnoma” Yevropa tarixshunosligida Sharq dunyosini anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Bobur ijodi jahon adabiyotida avtobiografik janr rivojiga ham muhim hissa qo‘shgan. Uning asari G‘arb adabiyotidagi mashhur xotiralar va kundaliklar bilan qiyoslab o‘rganiladi.

Bugungi kunda Bobur adabiy merosi o‘zbek adabiyotshunosligi, tarixshunosligi va madaniyatshunosligida muhim tadqiqot obyekti bo‘lib qolmoqda. Uning asarlari yosh avlodni vatanparvarlik, ma’naviyat va estetik did ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Xulosa.

Bobur ijodi milliy adabiyotimizni jahon adabiyoti bilan bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu bois uning adabiy merosi nafaqat tarixiy yodgorlik, balki bugungi adabiy jarayon uchun ham tirik va dolzarb manbadir. Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki yuksak tafakkur egasi va adib sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirgan. Uning “Boburnoma” asari XV–XVI asrlar tarixini o‘rganishda ishonchli tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Asarda siyosiy voqealar, harbiy yurishlar, jamiyat hayoti, madaniy muhit va tabiat tasvirlari batafsil yoritilgan.

Badiiy jihatdan “Boburnoma” obrazli va samimiy tilda yozilgan, shaxsiy kechinmalar va tafakkur bilan boyitilgan. Shu bois u o‘zbek nasri va lirikasida yuksak badiiy qimmatga ega. Bobur ijodi, shuningdek, jahon adabiyotida ham e’tirof etilib, Sharq tarixini, madaniyatini va avtobiografik janrlarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Umuman olganda, Bobur va uning adabiy merosi tarixiy, madaniy va badiiy jihatdan bebaho ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi va kelajak avlod uchun ham ilmiy va ma’naviy boylik sifatida qadrlanadi.

[57] Lane-Poole, S. Babur: Founder of the Mughal Dynasty. — Oxford, 1899

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Karimov A.** *Bobur ijodi va adabiy merosi*. — Toshkent: Fan, 2009.
2. **Bobur Z. M.** *Boburnoma*. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
3. **Fitrat** *O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. — Toshkent, 1996.
4. **Is’hoqov Y.** *Bobur lirikasining badiiy xususiyatlari*. — Toshkent: Adabiyot, 2008.
5. **Erkinov A.** *Boburnoma va o‘zbek nasri taraqqiyoti*. — Toshkent: Fan, 2014.
6. **Yo‘ldoshev J.** *Bobur ijodida shaxs va davr*. — Toshkent: Akademnashr, 2017.
7. **Beveridge A. S.** *The Baburnama in English Translation*. — London, 1922.
8. **Barthold V. V.** *Works on Central Asian History*. — Moscow, 1963.
9. **Lane-Poole S.** *Babur: Founder of the Mughal Dynasty*. — Oxford, 1899.
10. **Ahmedov B.** *O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazi*. — Toshkent, 2015.
11. **Qodirov O.** *O‘rta Osiyo tarixi: XVI asr*. — Toshkent: Sharq, 2005.
12. LITERARY INFLUENCES AND STYLISTIC FEATURES IN ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S “BABURNAMA” // International Journal of Artificial Intelligence [Elektron resurs]. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/81073
13. BOBURNOMANING JAHON ILMIY JAMOATCHILIGI TOMONIDAN O‘RGANILISHI // Young Scientists [Elektron resurs]. — URL: https://inlibrary.uz/index.php/yosc/article/view/101752

BOBUR IJODINING NAZMIY MARVARIDLARI

Xatamova Gulbaxor

NamDU akademik litseyi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘llari, ko‘rgan kechirganlari va ijodining nozik qirralari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, allomaning shoh asari “ Boburnoma”ning ta’rifiga bag‘ishlanadi. Undagi ayrim voqealar yuzasidan ma’lumotlar berib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, “Vaqoyi”, “Temur tuzuklari”, san’at, ma’rifat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается жизненный путь Захириддина Мухаммада Бабура, его опыт и тонкости его творчества. Также она посвящена описанию шедевра ученого «Бабурнама». Приводится информация о некоторых событиях, описанных в нем.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, «Бабурнама», «Событие», «Уставы Темура», искусство, Просвещение.*

Annotation: *This article talks about Zahiriddin Muhammad Babur's life path, experiences and subtle aspects of his work. Also, the description of the master's masterpiece "Baburnoma" will be dedicated. Information about some of the events was given.*

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, "Baburnoma", "History", "Tuzuklari Timur", art, enlightenment.*

Har bir yurtning tarixiy, madaniy, milliy qiyofasini aniq belgilovchi buyuk insonlari, ulug‘ olimlari, yirik adibiyot vakillari va hassos shoirlari bo‘ladi. Insoniyatning abadiyotga mansub ana shunday buyuk farzandlari sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z o‘rniga ega. Insoniyat tarixida Boburchalik yuksak iqtidor va fazilatlarga ega beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunosh, faqih, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘p qirrali faoliyat va ijod sohibi edi.

Bobur hazratlari butun umr juda katta firoqda yashagan, asosan yurt sog‘inchi bilan yonib yashagan shoh va shoir, shoir va shoh Bobur hazratlari haqida gap

ketganda bu tashbehning qay biri ul mo‘tabar zotga munosibligini bilmay qolamiz. Fikrimizcha, u qanchalik buyuk shoh bo‘lsa, shunchalik buyuk shoir, ulug‘ inson, dilbar shaxs bo‘lgan. U o‘zining betakror salohiyati bilan shohlik va sarkardalikni, shoirlik, yozuvchilik va tarixnavislikni omuxta qila bildi. “Xatti Boburiy” deb nomlangan yangi alifbo tuzdi, aruz, qofiya, musiqa va harb ilmiga oid qator risolalar yaratdi, tarjima bilan shug‘ullandi. “Boburnoma” asari esa bir necha asrlardan buyon olimlar, ijodkorlar, siyosatchlilarni hayratga solib kelmoqda. Undagi ma’lumotlarning aniqligi va yorqinligi tariximizning chalkash nuqtalarini bartaraf etish, oydinlashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Ushbu asarning voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi. Asarda o‘sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan.

Shoirning yagona maqsadi yirik va mustahkam markazlashgan davlat tuzishdan iborat edi. Bu maqsad amalga oshdi. Biroq u o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtda – Movarounnahrda emas, balki undan ancha olisda – Hindistonda amalga oshdi. Adibning o‘zi bu hodisadan doimo iztirobda bo‘lganligi “Boburnoma”da juda yorqin tarzda aks etgan. Chunki asardagi markaziy obraz Boburning o‘zi, albatta. Unda Bobur hazratlarining his-tuyg‘ularga boy qalbi ko‘z oldimizda yorqin jonlanadi. Asarni o‘qir ekanmiz, uning qanchalik tarixiy qimmatga ega ekanligini baholashga aql ojizlik qiladi. Zahiriddin Muhammmad Bobur faqat boy ijodiy merosi, sodda va samimiy she’riyati bilangina emas, o‘zining yuksak ma’naviyati, ulug‘ fazilatlatlari bilan ham bizni o‘ziga maftun etadi . Hatto u Hindistonni rasman bosib olgan bo’lsa-da, lekin hind xalqi qalbida ham cheksiz hurmat va e’zozga sazovor bo’lgan hukmdordir. Zero, Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javoharla’l Neru shunday yozadi: “Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko‘rardi” .Bobur Movaraunnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hindistondagi o‘zi ko‘rgan, bilgan shaharlarning iqtisodiy geografik

va siyosiy geografik o‘rinlarini tahlil qilgan. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan, o‘sha davrda juda qulay iqtisodiy geografik o‘ringa ega bo‘lgan Kobul va Qandahor shaharlarini ta'riflab quyidagicha yozadi: «Xurosondan Hindistonga boradigan karvon yo‘llarida ikkita shahar bor. Biri - Kobul, yana biri - Qandahor. Shimol tomondan Qoshg‘ar-, Farg‘ona, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Balx, Hisor va Badaxshondan karvon Kobulga keladi, g‘arb tomondan - Xurosondan karvon Qandahorga tashrif buyuradi.

“Boburnoma” asari bilan tanishar ekanmiz, bu mukarram va ulug‘ zotning o‘zidan sara ma’naviy xazina va ulug‘ nom qoldirganiga yana bir guvoh bo‘lamiz. Chunki iloji boricha aniq sanalar, joy va odamlar, tabiat mo‘jizalari- hayvonot va nabotot sirlari bitilganki, bu asarni bitishning o‘zi uning katta sabr- toqat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, asarda Bobor ruhi naqadar pokligi, zehni yuksak darajada ekanligi sezilib turadi. Shu behalovat umri davomida uning mislsiz aql- zakovat, nozik ta’b, betakror zavq va pokiza hissiyot egasi ekanligini sezib turamiz: “Bir qatla sanattim, o‘ttiz ikki- o‘ttiz uch nav g‘ayri makarar lola chiqdi. Bir nav’ lola bo‘lurkim, andin qizil gul hidi kelur, lolai gulbo‘y der edik”,- deydi “Boburnoma” da Bobur. Bu ta’rif orqali ko‘z oldimizda janggohdagi sarkarda emas, lola saylidagi o‘simlikshunos, gullar shaydosi, ulardan zavq oladigan bir nozik ta’b shaxs namoyon bo‘ladi.

Qobuldagi paytlarida daraxtlarga shunday ta’rif beradi: ” Balut yig‘ochida yana bir ajib xosiyatdur; sabzgarlik shoxlariga o‘t qo‘ysalar g‘arib sharfa bila kuyar. Oyog‘idan boshigacha sharfa bilan bir zamonda kuyar”, deydi. Yonib turgan alanganing sharpasi –yu, uning hamma tomoni baravar kuyayotganini sinchiklab kuzatib turgan Bobur jangdan xorib kelgan, g‘alaba yoki mag‘lubiyat tashvishida o‘tirgan sarkarda yoki davlat arbobi, shoh emas, o’z his- tuyg‘ularini tabiat sirlari bilan yanada poklayotgan dilbar shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Bobur hazratlari “Boburnoma”ni tugallab, Humoyunga taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,

Har kim bu “Vaqoyi’” ni o‘qir, bilgaykim,

Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g‘amlar ko‘rdum.

“Vaqoyi” – “Boburnoma”ning ilk nomi bo‘lib, keyinchalik hozirgi nomini olgan. Bobur o‘z zamonasida boshdan kechirgan barcha ko‘rguliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko‘rsatiladi. Uning eng zo‘r istagi: “Vaqoyi”ni o‘qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlamasinlar”. Zero, ”Boburnoma” ham “Temur tuzuklari” kabi avlodlarga mislsiz hayotiy tajriba, ulkan saboq va qisman vasiyat tarzida yozilgan buyuk yodgorlik edi.

“Boburnoma” da shunday satrlar uchraydi:..Men hurmat-e’tibor qilib Ningnahor tumanini inoyat qilganim Sulton Sanjar barlos ham bu fitnada ular bilan sherik edi. Tutib, bo‘ynini bog‘lab keltirdilar. Iztirob bilan: “Hoy, menda ne gunoh?!” – deb qichqirardi. “Gunoh bundan ortiq bo‘ladimi? Sulton Sanjar barlos bu jamoat bilan hamjihat va kengashdoshlardan bir ulug‘rog‘i sen bo‘lsang! Xon dodamning volidasi Shohbegimga jiyan bo‘lar edi. Bunday sharmanda qilib sazoyi qilmang, bunga o‘lim yo‘qdir!” – deb buyurdim. Shohbegim va xonim bir uyda o‘tirgan edilar. Doimgi yerda tushib, borib burungidek adab va ta’zim bilan ko‘rishdim. Shohbegim va xonim behad, beqiyos iztirobda, xijolatdan boshlari egik xijil edilar. Na ma’qul uzr ayta oladilar, na durustroq hol-ahvol so‘rashga botina oladilar ”.

Shuningdek, Bobur bu bitilganlardan maqsad shikoyat emas, rost voqealarni yozayotganligini, bu yozilganlardan maqsad o‘zining ta’rifi emas, haqiqiy voqea bayonini tahrir etish istagi ekanlini , negaki bir paytlarda shunga qaror qilinganligini ta’kidlab o’tadi. Zotan, Bobur qaysi ota va og‘adan qanday yaxshilik va yomonlik ko‘rgan bo‘lsa hammasini yozadi. Qarindosh va begonada hatto o’zida har qanday ayb va fazilatlar sodir bo‘lgan bo‘lsa, hammasini ro’y- rost bayon etadi. Chunki Bobur hazratlari mard, jasur va juda oliyjanob inson edilar, boshqalardan ham shunday fazilatlar egasi bo’lishni talab qilar edilar.U barcha qarindoshlar ahil bo’lishini, bir yoqadan bosh chiqarib, dushmanga birgalikda zarba berish kerakligini uqtirar edi. Bobur Shayboniyxonning katta harbiy salohiyatga ega, ayyor va tadbirli

podsho ekanligini ham tan olar edi, Shuning uchun u bilan kurashish uchun faqat birlashish kerakligini his qilar edi. Masalan, bir o'rinda u shunday deb yozadi:

"…Kepak mirzo Mashhadda edi. Bir necha marta kishilar yuborsalarda, noma'qul so'zlar aytib, nomardlik qilib kelmadi. Uning gina-kudurati Muzaffar mirzodan edi, ya'ni: "U podshoh bo'lganda, men qanday qilib uning qoshiga boraman?!" – derdi. Shunday bir paytda barcha og'a-ini bir yerda yig'ilib, ittifoq bo'lib, Shayboniyxondek g'anim ustiga azm-u jazm qilib yurayotganida ana shunday bemaza ginaxonligini qilib kelmadi. Uning bu kelmaganini hozircha ginaxonlikka yo'yarlar, holbuki, barcha buni nomardlik deb o'yladi. Bundan maqsad shuki, bu dunyoda kishidan ana shunday narsalar esda qoladi. Aql egasi bo'lgan har qanday odam ortidan yomon so'z bilan eslanadigan ishlarga nega qo'l urarkin, es-hushi joyida bo'lgan har bir kishi dunyodan o'tgach tahsinlar bilan eslanadigan ishlarni qilishga nega urinmas ekan**?** Ismning yodga olinishini hakimlar ikkinchi umr deganlar…"[58] [X.Nazarova, 1980: 78]

" Boburnoma" ni ko'chirgan kotib tomonidan aytilgan ushbu fikrlarni ham fikrimizning isboti uchun keltirsak bo'ladi:

"U Kobul podshohning yaxshiliklarini aytib va yozib tugatish mahol. Lekin lo'nda qilib aytganda, uning asli zotida mana bu sakkiz sifat hamma vaqt mujassam edi: birinchisi shuki, muvaffaqiyatlari baland edi; ikkinchisi – himmati arjumand (aziz himmatli) edi; uchinchisi – viloyat olmoq; to'rtinchisi -viloyat saqlamoq; beshinchisi – ma'murlik; oltinchisi – Tangri taolo bandalariga turmush kengchiligi (yaxshi ahvol) niyati; yettinchisi – lashkarning ko'nglini qo'lga olish; sakkizinchisi – adolat qilmoqlik".

Bobur o'z otasi haqida shunday yozadi:"… Adolati bu martaba ediki, Xitoy karvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidag'i tog'larning tubida ming o'yluk korvonni andog' qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib, muhassillar (xiroj oluvchilar) yiborib, korvonning jam'i jihotini (hamma yog'ini, butun atrofini) zabt qildi... Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim

(omon, sog‘-salomat) topshurdi..” Otasidagi bu xislatlarning ko‘pi Boburning o‘zida ham mujassamlashganini qayd etish joiz.

Masalan, Bobur ham har qanday vaziyatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat mezonini qattiq tutgan. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarlari ancha betartiblikka, zulm va zo‘ravonlikka o‘rgangan edilar. Ular Boburga qo‘shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar “birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o‘q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar”, – deb ta’kidlaydi Boburning o‘zi.

“Borurnoma” asarining yana bir eng asosiy xususiyati shundaki, asarning oxiridagi voqealar, Humoyun xastalik paytida Boburning o‘z jonini sadqa qilishi inson e’tiqodi, butun borlig‘i bilan biror narsaga asdoydil bel bog‘lasa, unga erishi borasidagi ilohiy quvvatning belgisini bildiradi..

Bundan ko‘rinib turibdki, Bobur tabiatida tantilik, oliyjanoblik, kechirimlilik, ma’naviy qarashlarida yaxshilik, insonparvarlik, Vatan tuyg‘usi, har qanday holatda ham odamiylikni saqlash salmoqli o‘rin tutadi. Uning bu g‘oyalari bugungi kunda ham yosh avlodni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, milliy istiqlol g‘oyalari va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo’lib qoladi.

Zero:

Har kimki, vafo qilsa — vafo topqusidur!

Har kimki, jafo qilsa — jafo topqusidur!

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki, yomon bo'lsa — jazo topqusidur!

Darhaqiqat, Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog‘ («Bog‘i Bobur» Namanganda ham mavjud) bor. Bobur milliy bog‘i majmuasida «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuyida shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga,

shuningdek, Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi.

Shuningdek, 1993-yil 23-dekabrda tashkil etilgan Xalqaro Bobur jamg‘armasi Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab ilmiy safarlar uyushtirib, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi.

“ Boburmoma” asari hali-hamon buyuk tarixiy obida va ma’naviyat sarchashmasi sifatida tinimsiz o‘rganilib, avlodlarga tarixdan sado sifatida mislsiz saboq berib kelmoqda. Mustaqil O‘zbekistonimizning gullab- yashnashi yo‘lida fidokorlikka undovchi chaqiriq sifatida yangramoqda.

ADABIYOTLAR

1. **Qudratullaev H.** *Boburning adabiy-estetik qarashlari*. — Toshkent: Fan, 1983.
2. **Stebleva I. V.** *Semantika gazeley Babura*. — Moskva, 1983.
3. **Nazarova X.** *"Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi*: dokt. diss. — Toshkent, 1980.
4. **Sulton X.** *Boburiynoma*. — Toshkent: Ma’naviyat, 1996.
5. *История стран Азии и Африки в средние века*. — Челябинск, 2004.
6. **Uilyam Erskin** *Bobur Hindistonda*. — T.: Cho‘lpon nashriyoti, 1995. — B. 112.
7. **Qudratullaev X.** Bobur buyukligining qirralari // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. — 2010. — 7-son.

Xidoyatova Layli Taxtasinovna

Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммункациялар университети

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarining madaniy-psixologik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Boburnoma, madaniy-psixologik tahlil, shaxs psixologiyasi, etnopsixologiya, milliy xarakter.*

Аннотация. *В данной статье анализируется культурно-психологическое значение произведения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнаме».*

Ключевые слова: *Бабурнаме, культурно-психологический анализ, психология личности, этнопсихология, национальный характер.*

Annotation. *This article analyzes the cultural and psychological significance of Zahiriddin Muhammad Babur's "Baburnama."*

Keywords: *Baburnama, cultural-psychological analysis, personality psychology, ethnopsychology, national character, leadership, social consciousness.*

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon tarixida alohida o'rin tutuvchi siymodir. U nafaqat yirik davlat arbobi va sarkarda, balki nozik didli shoir, tarixchi va mutafakkir hamdir. Uning "Boburnoma" asari o'zbek nasrining ilk yirik namunalaridan biri bo'lib, tarixiy voqealar bayoni bilan bir qatorda muallif shaxsiyatining ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va psixologik kuzatuvlarini ham mujassamlashtirgan.

Mazkur maqolaning maqsadi – "Boburnoma" asarida tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot va madaniy muhit tasviri bilan birgalikda Boburning psixologik qarashlarini ilmiy tahlil qilishdir.

Asosiy qism. "Boburnoma" asari tarixiy voqealar bayoni bilangina cheklanmay, balki muallif shaxsining ichki ruhiy dunyosini yorituvchi muhim

manba ekani asoslab beriladi. Boburning o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashuvi, xatolarini tan olishi, mag‘lubiyat va muvaffaqiyatlarga nisbatan munosabati psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda refleksivlik, emotsional barqarorlik, rezilientlik va liderlik sifatlari namoyon bo‘lishi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy muhit va inson xarakteri o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida “Boburnoma” tarixiy-adabiy meros bilan bir qatorda psixologik tafakkur namunasi sifatida ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek mumtoz adabiyotining nodir namunasidir. Ushbu asar nafaqat tarixiy voqealarni yorituvchi manba, balki inson ruhiyati, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi noyob psixologik asardir. Bobur o‘z asarida voqelikni kuzatuvchi tarixchi sifatida emas, balki chuqur tafakkurga ega shaxs, davlat arbobi va ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi.“Boburnoma”da muallifning ichki kechinmalari, muvaffaqiyat va mag‘lubiyatlarga munosabati, insoniy fazilatlar haqidagi qarashlari, turli xalqlar mentaliteti haqidagi kuzatuvlari keng yoritilgan. Shu bois mazkur asar madaniy-psixologik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Asarning madaniy kontekstdagi o‘rni “Boburnoma” XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo va Hindiston madaniy hayotini yorituvchi ensiklopedik manbadir. Asarda geografik, etnografik, ijtimoiy va madaniy tafsilotlar keng o‘rin olgan. Bobur turli hududlar aholisi, ularning urf-odatlari, turmush tarzi, diniy e’tiqodlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Madaniy jihatdan esa , asar milliy o‘zlikni anglash manbai, madaniyatlararo aloqalarni ko‘rsatuvchi tarixiy hujjat, qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi ma’naviy manba sifatida ahamiyatlidir.

Bobur o‘z kuzatuvlarida inson va muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur his etadi. Bu esa asarning madaniy-psixologik mazmunini yanada boyitadi. “Boburnoma” asari avtobiografik xarakterga ega bo‘lgani sababli unda muallifning ruhiy olami yaqqol namoyon bo‘ladi. Bobur quyidagi psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Refleksivlik

Bobur o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholaydi, xatolarini ochiq tan oladi. Bu holat unda rivojlangan o‘z-o‘zini anglash darajasini ko‘rsatadi.

2. Emotsional barqarorlik

Mag‘lubiyat va og‘ir sinovlarga qaramay, Bobur umidsizlikka berilmaydi. Bu esa kuchli iroda va psixologik chidamlilik belgisi hisoblanadi.

3. Liderlik fazilatlari

Bobur o‘z qo‘shini va yaqinlarini ruhlantira olgan, murakkab vaziyatlarda strategik qaror qabul qila bilgan. Uning liderlik uslubi insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan.

4. Estetik sezgirlik

Tabiat manzaralari, me’morchilik, bog‘lar tasviri orqali Boburning nozik estetik didi namoyon bo‘ladi. Bu jihat shaxsning emotsional-intellektual uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Etnopsixologik kuzatuvlar “Boburnoma” turli xalqlarning xarakteri, mentaliteti va urf-odatlariga oid boy kuzatuvlarni o‘z ichiga oladi. Bobur:

- Movarounnahr aholisi jasorati va ilmga moyilligini;
- Afg‘on qabilalarining jangovarligini;
- Hindiston xalqlarining diniy e’tiqod va turmush tarzini tasvirlaydi.

Bu kuzatuvlar zamonaviy etnopsixologiya nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bobur turli madaniyat vakillarini stereotipsiz, real tasvirlashga harakat qiladi. **Madaniyatlararo muloqot va tolerantlik**

Bobur Hindistonda yangi davlat barpo etar ekan, mahalliy aholining diniy va madaniy qadriyatlariga hurmat bilan qaragan. Bu uning yuqori darajadagi madaniyatlararo kompetensiyaga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Asarda turli din va elatlar o‘rtasidagi munosabatlarda bag‘rikenglik tamoyili ilgari suriladi. Bu esa “Boburnoma”ni global madaniy muloqot tarixidagi muhim manbaga aylantiradi.

Qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ong Bobur asarida quyidagi qadriyatlar ustuvor o‘rin tutadi: Adolat **,**Vatanparvarlik **,**Sadoqat**,**Ilm va ma’rifat**,** Go‘zallikni qadrlash Mazkur qadriyatlar Bobur shaxsiyati va uning ijtimoiy qarashlarini shakllantirgan

asosiy omillardir. U o‘z davrining ijtimoiy ongini aks ettirgan holda, kelajak avlodlarga ma’naviy mezonlar tizimini meros qilib qoldirgan.

Asar tilining soddaligi, tabiiyligi va samimiyligi muallifning ichki dunyosini bevosita aks ettiradi. Bobur she’riyatga mehr qo‘ygan, san’at va ilm ahlini qadrlagan. Bu uning estetik ehtiyojlari va ijodiy tafakkuri rivojlanganini bildiradi.

Boburning tabiat tasvirlari ham psixologik ahamiyatga ega. U go‘zal bog‘lar, suv manbalari, tog‘ va vodiylarni batafsil tasvirlab, ularning inson ruhiyatiga ta’sirini sezdiradi. Bu jihat ekologik psixologiya nuqtai nazaridan ham qiziqarli.

Xulosa

“Boburnoma” asari madaniy-psixologik jihatdan ko‘p qirrali ilmiy manbadir. Unda:

- muallifning chuqur refleksiv shaxsiyati;
- liderlik va ijtimoiy mas’uliyat hissi;
- turli xalqlar mentalitetiga oid etnopsixologik kuzatuvlar;
- bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqot tamoyillari;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi mujassamdir.

Shu bois “Boburnoma”ni faqat tarixiy yoki adabiy asar sifatida emas, balki shaxs psixologiyasi va madaniy tafakkur rivojini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Bobur Z. M.** *Boburnoma*. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1960.
2. **Bobur Z. M.** *Boburnoma* / nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. — Toshkent: Sharq, 2002.
3. **Valixo‘jayev B.** *O‘zbek adabiyoti tarixi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
4. **Quronov D.** *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. — Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. **Hasanov S.** Bobur shaxsiyati va ijodiy merosi talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. — 2011. — № 3. — B. 45–52.

6. **Allport G.** *Pattern and Growth in Personality*. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1961.
7. **McCrae R., Costa P.** *Personality in Adulthood: A Five-Factor Theory Perspective*. — New York: Guilford Press, 2003.
8. **Jalolov A.** Tarixiy shaxs psixologiyasi masalalari // Ijtimoiy fanlar jurnali. — 2015. — № 2. — B. 78–84.

«BOBURNOMA» — TARIXIY VA ILMIY MANBA SIFATIDA

Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Boburnoma asarining tarixiy hamda ilmiy manba sifatidagi o‘rni va ahamiyati keng qamrovda tadqiq etiladi. Izlanish davomida asarning yaratilish muhiti, kompozitsion tuzilishi, janriy xususiyatlari, shuningdek unda ifodalangan siyosiy, ijtimoiy-madaniy, geografik va tabiiy-ilmiy ma’lumotlar ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Zahiriddin Muhammad Bobur keltirgan kuzatuv va tavsiflarning tarixiy haqqoniyligi boshqa yozma manbalar bilan solishtirish yo‘li orqali ochib beriladi. Tadqiqot yakunida “Boburnoma” nafaqat badiiy-xotiraviy yodgorlik, balki tarix, geografiya, etnografiya, tilshunoslik va tabiatshunoslik sohalari uchun muhim ensiklopedik manba ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, tarixiy manba, ilmiy manba, Bobur, memuar, manbashunoslik, tarixshunoslik, geografik tavsif, etnografiya, adabiy meros.*

Аннотация. *В данной статье всесторонне рассматривается роль и значение «Бабурнамы» как историко-научного источника. В ходе исследования на основе научного подхода анализируются условия создания, композиционная структура, жанровые особенности произведения, а также политическая, социокультурная, географическая и естественнонаучная информация, выраженная в нем. Кроме того, историческая достоверность наблюдений и описаний Захириддина Мухаммада Бабура выявляется путем сравнения их с другими письменными источниками. В итоге исследования научно обосновывается, что «Бабурнама» является не только художественно-памятным памятником, но и важным энциклопедическим источником для областей истории, географии, этнографии, лингвистики и естественных наук.*

Ключевые слова: *«Бабурнама», исторический источник, научный источник, Бабур, мемуары, источниковедение, историография, географическое описание, этнография, литературное наследие.*

Abstract. *This article comprehensively examines the role and significance of the Baburnama as a historical and scientific source. During the research, the environment of creation, compositional structure, genre features of the work, as well as the political, socio-cultural, geographical and natural-scientific information expressed in it are analyzed based on a scientific approach. In addition, the historical accuracy of the observations and descriptions made by Zahiriddin Muhammad Babur is revealed by comparing them with other written sources. At the end of the study, it is scientifically substantiated that "Baburnama" is not only an artistic and commemorative monument, but also an important encyclopedic source for the fields of history, geography, ethnography, linguistics and natural science.*

Keywords: *Baburnama, historical source, scientific source, Babur, memoir, source studies, historiography, geographical description, ethnography, literary heritage.*

Kirish

Sharq yozma merosi tarkibida muhim o‘rin egallagan nodir durdonalardan biri bo‘lgan Boburnoma nafaqat badiiy adabiyot namunasi, balki serqirra tarixiy hamda ilmiy manba sifatida ham alohida qadr topadi. Mazkur asar yordamida XV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo va Hindiston hududlarida kechgan siyosiy jarayonlar, jamiyat hayoti, madaniy muhit va tabiiy-geografik sharoitlar haqida bevosita hamda ishonchli ma’lumotlar olish mumkin. Asarning qiymati shundaki, unda keltirilgan voqealar muallifning shaxsiy kuzatuvlari, boshdan kechirgan tajribalari va aniq tasvirlari asosida bayon etilgan.

“Boburnoma” muallifi — Zahiriddin Muhammad Bobur — davlat arbobi, mohir sarkarda va iste’dodli shoir sifatida tarix sahifalarida chuqur iz qoldirgan siymodir. Asar muallif hayoti davomida izchil ravishda yozib borilgan bo‘lib, unda uning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, shaxsiy kechinmalari hamda zamondoshlari haqidagi mulohazalari o‘z aksini topgan [7. 281-286-bet].

Asarning diqqatga sazovor jihatlaridan yana biri — uning xotiranoma (memuar) janrida yaratilganidir. Bu hol voqealarning tabiiy, jonli va haqqoniy ifodalanishiga imkon yaratadi. Muallif hodisalarni sun’iy bezashga urinmaydi, balki ularni qanday bo‘lsa, shunday tasvirlaydi, hatto ayrim o‘rinlarda o‘z kamchiliklarini ham ochiq tan oladi. Ana shu samimiylik va rostgo‘ylik “Boburnoma”ning tarixiy ishonchliligini yanada mustahkamlaydi.

Asosiy qism

“Boburnoma” tarixiy manba sifatida

Mazkur asar tarixiy manba sifatida bir necha yo‘nalishda muhim ilmiy qiymatga ega. Eng avvalo, unda Temuriylar davrining siyosiy manzarasi, taxt uchun olib borilgan kurashlar hamda hukmdorlar o‘rtasidagi munosabatlar aniq dalillar asosida bayon etiladi. Muallif bevosita o‘zi qatnashgan janglar, sulh bitimlari va siyosiy kelishuvlarni batafsil tasvirlab beradi. Shu jihati bilan asar tarixshunoslar uchun birlamchi va ishonchli manba vazifasini o‘taydi.

Bundan tashqari, unda o‘sha davr shaharlarining me’moriy tuzilishi, aholining kundalik turmush tarzi, urf-odatlari, kiyinish madaniyati hamda savdo aloqalari haqida ham qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, Samarqand, Andijon, Qobul va Hindiston hududlariga doir tavsiflar nafaqat tarixiy, balki madaniy jihatdan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy va madaniy hayot tasviri

“Boburnoma” o‘z zamonasining ijtimoiy muhitini yorqin aks ettirgan nodir yozma yodgorlik hisoblanadi. Asarda xalqning kundalik hayoti, bayram va marosimlari, mehmondo‘stlik an’analari, hunarmandchilik hamda dehqonchilik faoliyati keng tasvirlangan. Muallif insonlarning fe’l-atvori, ilm-ma’rifatga munosabati, san’at va adabiyotga bo‘lgan qiziqishini ham alohida qayd etadi.

Madaniy jihatdan esa asarda she’riyat, musiqa, me’morchilik va tasviriy san’atga oid muhim ma’lumotlar berilishi o‘sha davr madaniy manzarasini tiklashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, muallifning o‘zi ijodkor bo‘lgani bois adabiyotga doir mulohazalari alohida ilmiy qimmat kasb etadi [10.2012].

Boburnomani ensiklopedik darajaga olib chiqqan muhim jihatlardan biri — unda keltirilgan geografik hamda tabiiy tasvirlarning serqirraligidir. Asarda tog‘ tizmalari, daryolar, o‘rmonzorlar, iqlim xususiyatlari, o‘simlik va hayvonot olami haqida batafsil kuzatuvlar uchraydi. Muallif qaysi hududga bormasin, o‘sha joyning tabiati, havosi, suvi, mevalari va o‘simlik dunyosini alohida e’tibor bilan qayd etadi.

Bunday ma’lumotlar bugungi kunda geografiya, botanika va ekologiya yo‘nalishlari uchun ham tarixiy-qiyosiy material sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular o‘tmish davr tabiiy muhitini ilmiy tasavvur qilish imkonini yaratadi.

Asarning yana bir e’tiborga molik tomoni — uning boy va rang-barang tilidir. “Boburnoma” eski o‘zbek (chig‘atoy) tilining yetuk namunasi sifatida tilshunoslar uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda qo‘llangan iboralar, maqollar,

badiiy ifoda vositalari hamda terminlar til tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy dalil vazifasini o‘taydi.

Muallifning yozish uslubi sodda, ravon va samimiyligi bilan ajralib turadi. U ortiqcha murakkablikdan qochib, fikrni aniq va tushunarli shaklda ifodalashga intiladi. Shu bois asar ilmiy qiymati bilan bir qatorda badiiy o‘qimishliligi bilan ham e’tiborni tortadi.

Tarixiy manbalarni baholashda ularning ishonchlilik darajasi muhim mezon hisoblanadi. “Boburnoma”ning ustunligi shundaki, unda voqealar muallifning shaxsiy tajribasi va bevosita kuzatuvlari asosida bayon qilingan. Ayrim o‘rinlarda subyektiv qarashlar uchrashi tabiiy bo‘lsa-da, umumiy mazmunda asar haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Ko‘plab tadqiqotchilar uni boshqa yozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganib, undagi faktlarning aniqligini tasdiqlaganlar.

Xulosa

Umuman olganda, “Boburnoma” ko‘p qirrali ilmiy hamda tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan noyob yozma yodgorlik sanaladi. U faqat bir hukmdorning xotiralari to‘plami bo‘lib qolmay, balki butun bir davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va tabiiy manzarasini yorituvchi ensiklopedik manba sifatida ham qadrlanadi. Asarda jamlangan ma’lumotlar tarix, geografiya, etnografiya, tilshunoslik va adabiyotshunoslik kabi ko‘plab fanlar uchun muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi. Shu sababli ushbu asarni o‘rganish hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, kelajak avlodlar uchun ham bebaho ilmiy meros bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. **Ahmadov S.** *Bobur va Hindiston tarixining rivojlanishi*. — Toshkent: Sharq, 2010.
2. **Bobur Z. M.** *Boburnoma*. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1992.

3. **Muzafarov A.** *Boburiylar imperiyasi va uning madaniyati*. — Toshkent: San'at va madaniyat nashriyoti, 2005.
4. **Qodirov A.** *Bobur va uning davri*. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2004.
5. **Ravshanov M.** *Bobur va o'zbek xalqining tarixiy merosi*. — Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2011.
6. **Sultonov A.** *Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy faoliyati*. — Toshkent: Fan, 2001.
7. **Tashlanova N.** The essence of collaborative approach in learning a language // Scientific progress. — 2021. — Vol. 2, № 8. — P. 281–286.
8. **Erskin U.** *Hindistonda Bobur davlati* / G'. Sotimov tarj. — T., 1997.
9. **G'aybulloh as-Salom, Otajon N.** *Jahongashta «Boburnoma»*. — T., 1996.
10. **Zarif N.** *Bobur va uning ilmiy-ijodiy faoliyati*. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2012.
11. **Zahiriddin Muhiddinov** *Bobur Mirzo*. — Andijon: Andijon nashriyot-matbaa, 2005.

ОПИСАНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «БАБУРНАМЕ» ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Азизова Насиба Бахритдиновна

Каршинский государственный университет

Аннотация. *Статья посвящена изучению языковой личности основателя империи Великих Моголов Захириддина Мухаммада Бабура на основе его автобиографического труда «Бабурнаме». В фокусе — лексико-*

стилистические, синтаксические и прагматические характеристики текста, которые раскрывают многогранный внутренний мир автора как правителя, военачальника, поэта, исследователя и представителя своей эпохи. Обсуждается, как посредством языка проявляются его когнитивные, ценностные и эмоциональные особенности, создающие неповторимый образ ренессансной фигуры на границе культур. Работа основана на принципах российской лингвоперсонологии (Ю.Н. Караулов, В.В. Виноградов) и подчеркивает, что «Бабурнаме» — ключевой ресурс для воссоздания историко-культурного облика через индивидуальное языковое выражение.

Ключевые слова: *языковая личность, «Бабурнаме», Бабур, автобиография, исторический дискурс, тюркская литература, лингвоперсонология, картина мира.*

Abstract. *Статья анализирует языковую личность основателя Могольской империи Захириддина Мухаммада Бабура на материале автобиографии «Baburnama». Рассматриваются лексико-стилистические, синтаксические и прагматические аспекты текста, отражающие сложный внутренний мир автора: лидера, стратега, поэта, наблюдателя и человека своего времени. Исследуется, как язык раскрывает его когнитивные, аксиологические и эмоциональные черты, формируя уникальный тип ренессансной личности на стыке цивилизаций. Основано на теориях российской лингвоперсонологии (Yu.N. Karaulov, V.V. Vinogradov), подчеркивая «Baburnama» как ценный источник для реконструкции исторического типа через призму личного речевого творчества.*

Keywords: *linguistic personality, "Baburnama", Babur, autobiography, historical discourse, Turkic literature, linguopersonology, worldview.*

Annotatsiya. *Maqolada Boburiylar imperiyasining bunyodkori Zahiriddin Muhammad Boburning til shaxsiyati uning avtobiografik asari "Boburnoma" asosida ko'rib chiqiladi. Muallifning hukmdor, harbiy rahbar, shoir, kuzatuvchi va davr vakili sifatidagi ko'p qirrali ichki olamini ifodalovchi leksik-stilistik, sintaktik va pragmatik jihatlari tahlil etiladi. Til vositasida uning kognitiv, qadriyat va*

emotsional xususiyatlari qanday ochilishi, madaniyatlar kesishmasidagi uyg'onish shaxsining noyob fenomenini shakllantirishi muhokama qilinadi. Tadqiqot rossiyalik lingvopersonologiya nazariyalariga (Yu.N. Karaulov, V.V. Vinogradov) asoslanadi va "Boburnoma"ni individual nutqiy ijod orqali tarixiy-madaniy tipni tiklash uchun muhim manba sifatida ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *til shaxsiyati, "Boburnoma", Bobur, avtobiografiya, tarixiy nutq, turk adabiyoti, lingvopersonologiya, olam tasavvuri.*

Введение. «Бабурнаме» — воспоминания Захириддина Мухаммада Бабура (1483–1530), составленные на чагатайском тюркском языке, служат не только важным историческим документом по Центральной Азии, Афганистану и Индии конца XV — начала XVI веков, но и выдающимся литературным артефактом, открывающим глубины характера его автора. Текст выходит за пределы простой летописи, становясь исповедью с искренним и задумчивым авторским голосом. Это делает «Бабурнаме» идеальным объектом для лингвоперсонологического разбора, направленного на воссоздание языковой личности создателя.

Основная часть. Термин «языковая личность» ввел в русскую лингвистику Ю.Н. Караулов, описав ее как «индивида, воплощенного в языке (текстах) и посредством языка, индивида, восстанавливаемого по ключевым чертам на основе языковых инструментов» (Караулов, 1987, с. 45). Он выделил три уровня структуры:

1. Вербально-семантический (лексикон): мастерство в лексике, грамматике и языковых нормах.
2. Когнитивный (тезаурус): комплекс знаний, идей и представлений о реальности, закодированных в языковых формах.
3. Мотивационно-прагматический (прагматикон): цели, мотивы, интересы, убеждения и ценностная система индивида.

Применение этой модели к «Бабурнаме» позволяет перейти от историко-филологического обзора к целостной реконструкции личности Бабура как носителя определенного языка и культуры.

Вербально-семантический уровень языковой личности Бабура. На данном уровне отмечается обилие и многообразие языковых приемов у автора. Язык «Бабурнаме» отличается:

• Полистилистикой: Бабур умело смешивает деловой стиль (точные отчеты о кампаниях, управленческих решениях), военный жаргон (термины оружия, стратегии), возвышенную поэзию (метафоры, аналогии, отсылки к классикам) и повседневную речь.

• Лексическим разнообразием: Текст насыщен:

- Специфической терминологией (географической: топонимы, гидронимы; ботанической: подробности растительного мира; этнографической: названия этносов, традиций).

- Тюркской базой, подчеркивающей культурные корни, с элементами персидских и арабских заимствований, что иллюстрирует билингвизм образованного класса эпохи.

- Оригинальными новообразованиями и выразительными оборотами.

- Синтаксической гибкостью: От кратких, динамичных предложений в батальных сценах до протяженных конструкций в размышлениях о философии или ландшафтах.

Это указывает на превосходное владение языком, его адаптивность и способность передавать разнообразные грани опыта.

Когнитивный уровень: картина мира Бабура. Язык здесь служит инструментом классификации реальности. Разбор выявляет основные концепты и знания, формирующие мышление автора:

1. Пространство и время: Пространство описано структурировано и детально. Бабур — искусный картограф и этнолог, тщательно фиксирующий пути, фортификации, погоду, ресурсы. Родина — Мавераннахр — воспета с теплотой, Индия — с позиции завоевателя и любопытного исследователя.

Время видится линейно-исторически, с ощущением преходящести (мотив фанā — тленности).

2. Власть и справедливость (адолат): Ключевой элемент мировосприятия. Власть — это не только привилегия, но и обязанность. Оценки лидеров (предков и современников) всегда практичны и этически окрашены.

3. Воинская отвага (ботирлик) и судьба (тақдир): Битвы описаны с точностью тактика, но с акцентом на личный героизм. Бабур размышляет о капризах рока, лишившего его наследия, но подарившего новые территории.

4. Культура и цивилизация: Ценится не только триумф в бою, но и развитие городов, садов (символ рая), поэзия, музыка, хроникописание. Личность Бабура объединяет номадского воина и ценителя урбанистической, персидской культуры.

5. Природа: Особенность «Бабурнаме» — интерес к флоре и фауне. Описания ландшафтов, растений (цветов, плодов), животных сочетают эстетику и науку, без чистого прагматизма.

Мотивационно-прагматический уровень: система ценностей и эмоций. Этот аспект ключевой для постижения характера. Через прагматику, тематику и оценки раскрывается авторское «я».

• Откровенность и саморефлексия: Бабур избегает идеализации. Он прямо говорит о неудачах, опасениях, ностальгии по дому (хасти-и хандан — грусть по близким), пороках (например, юношеская склонность к вину и позднее покаяние). Такая исповедальность редка для монарха.

• Практичность и проницательность: Характеристики людей и событий остры, без иллюзий. Союзники и противники судятся по поступкам и результативности.

• Самоуважение и историческая роль: Как потомок Тимура и Чингисхана, он не только покоряет, но и строит государство. «Бабурнаме» — урок для наследников.

• Эстетизм: Поэтический дар Бабура (автор дивана) проникает в прозу. Описания торжеств, природы, прекрасного лиричны.

• Эмоциональный спектр: Текст полон чувств — от отчаяния и ярости до восторга, нежности и меланхолии.

Заключение. Лингвоперсонологический подход к «Бабурнаме» убеждает, что Захириддин Мухаммад Бабур — многогранная языковая личность позднесредневекового Ренессанса на исламском Востоке. Его языковая сущность включает:

1. Мастерство тюркской традиции, усиленной персо-арабским наследием (вербально-семантический уровень).
2. Энциклопедический ум с картиной мира, где сочетаются прагматизм лидера, любопытство натуралиста и поэтическая чувствительность (когнитивный уровень).
3. Рефлексивное сознание, где ценны искренность, опыт, ответственность и эмоциональная правда (мотивационно-прагматический уровень).

«Бабурнаме» — не просто хроника, а акт самовыражения и самопознания, где язык делает личность историческим и культурным шедевром. Анализ открывает пути для сравнений с автобиографиями Востока и Запада, углубляя понимание общих и уникальных способов языкового изображения «Я».

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. **Бабур, Захириддин Мухаммад**. *Бабур-наме (Записки Бабура)* / З.М. Бабур; пер. М.А. Салье; под ред. С. Азимджановой. — Ташкент: Главная редакция энциклопедий, 1992. — 512 с.
2. **Виноградов В.В.** *О языке художественной прозы*. — Москва: Наука, 1980. — 358 с.

3. **Караулов Ю.Н.** *Русский язык и языковая личность*. — Москва: Наука, 1987. — 264 с.
4. **Азимджанова С.А.** «Бабур-наме» как источник для изучения общественно-политической жизни Мавераннахра и Индии конца XV – начала XVI вв. // Общественные науки в Узбекистане. — 1970. — № 5. — С. 42–48.
5. **Болдырев А.В.** Захириддин Мухаммад Бабур и его «Бабур-наме» (к вопросу об историзме мышления автора) // Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. Ежегодник. — Москва: Наука, 1975. — С. 124–142.
6. **Семенов А.А.** Очерк устройства центрального административного управления государства Бабура и Хумаюна // Труды АН Таджикской ССР. — 1954. — Т. 27. — С. 22–45.
7. **Хасанов С.** Мировоззрение Захириддина Мухаммада Бабура: автореф. дис. … д-ра филос. наук. — Ташкент, 1996. — 42 с.
8. **Ходжаев М.М.** *Язык «Бабур-наме» (Лексико-грамматический анализ)*. — Ташкент: Фан, 1966. — 188 с.
9. **Thackston W. M.** *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor* / transl., ed. and annot. by W. M. Thackston. — New York: Modern Library, 2002. — 554 p.
10. **Dale S. F.** *The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483–1530)*. — Leiden: Brill, 2004. — 520 p.
11. **Азизова Н.** Исследование концепта языковой личности в русской и узбекской классической литературе (на примере А.С. Пушкина, Н.В. Гоголя и Л.Н. Толстого, Алишера Навои, Захириддина Бабура) // Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar. — 2026. — Т. 2, № 2. — С. 129–134.

SPACE AND REGIONS IN BABUR'S LEGACY: DESCRIPTIONS OF LANDS, ROUTES, CITIES, AND TERRITORIAL PERCEPTIONS

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING GEOGRAFIK QARASHLARI VA TARIXIY GEOGRAFIYA RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Ashurov Jumanazar Saidkulovich
Abdumamatova Marjonaxon Abduraimovna
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada buyuk mutafakkir, davlat arbobi va tarixchi Zahiriddin Muhammad Boburning geografik qarashlari hamda uning tarixiy geografiya fanining shakllanishi va rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida “Boburnoma” asari tanlanib, undagi tabiiy-geografik tavsiflar, hududiy tasniflar, iqlim, relef, gidrografiya va aholi joylashuvi haqidagi ma’lumotlar ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Maqolada Z.M.Boburning geografik tafakkuri tarix, siyosat va adabiyot bilan uzviy bog‘liqlikda yoritilib, uning asarlari tarixiy geografiya fanining muhim manbalaridan biri ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, tarixiy geografiya, tabiiy geografiya, hududiy tafakkur, Markaziy Osiyo, Hindiston.*

Аннотатsия. *В данной научной статье анализируются географические взгляды великого мыслителя, государственного деятеля и историка Захириддина Мухаммада Бабура, а также его вклад в формирование и развитие исторической географии. В качестве основного источника исследования выбрано произведение «Бабурнаме», в котором с научной точки зрения рассматриваются природно-географические описания, территориальные классификатsии, климат, рельеф, гидрография и особенности расселения населения. В статье географическое мышление З.М. Бабура освещается во взаимосвязи с историей, политикой и литературой,*

обосновывается значение его трудов как одного из важных источников исторической географии.

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабур, Бабурнаме, историческая география, физическая география, территориальное мышление, Центральная Азия, Индия.*

Abstract. *This scientific article analyzes the geographical views of the great thinker, statesman, and historian Zahiriddin Muhammad Babur, as well as his contribution to the formation and development of historical geography. The main source of the research is the work Baburnama, in which natural-geographical descriptions, territorial classifications, climate, relief, hydrography, and population distribution are examined from a scientific perspective. The article highlights Babur's geographical thinking in close connection with history, politics, and literature, substantiating the importance of his works as one of the significant sources of historical geography.*

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, Baburnama, historical geography, physical geography, territorial thinking, Central Asia, India.*

Kirish. Geografiya fani insoniyat tarixida jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvi va madaniy rivoj bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ayniqsa, tarixiy geografiya fanining rivojida sayyohlar, hukmdorlar va tarixchilarning asarlari muhim o‘rin tutadi. Shunday buyuk siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘lib, u nafaqat shoir va sarkarda, balki chuqur geografik bilimlarga ega bo‘lgan olim sifatida ham e’tirof etiladi.

Boburning “Boburnoma” asari XV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlarining tabiiy-geografik sharoiti, iqlimi, relefi, suv resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek aholi joylashuvi haqida noyob ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu asar nafaqat tarixiy manba, balki tarixiy geografiya fanining muhim ilmiy asoslaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Zahiriddin Muhammad Boburning geografik qarashlarini tahlil qilish, uning tarixiy geografiya rivojiga qo‘shgan hissasini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) — o‘zbek davlatchiligi, Sharq adabiyoti va jahon siyosiy tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxsdir. U nafaqat yirik adib va shoir, balki iste’dodli sarkarda, mohir diplomat va chuqur siyosiy tafakkur egasi sifatida ham tarix sahnasida muhim o‘rin tutadi. Bobur temuriylar sulolasining so‘nggi yirik vakillaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida murakkab siyosiy jarayonlar ichida yetuk davlat arbobi sifatida shakllandi.

Bobur shaxsini o‘rganishda uni faqat shoir yoki tarixchi sifatida emas, balki davlatni barpo etgan, siyosiy qarorlar qabul qilgan, hududiy boshqaruvni amalga oshirgan hukmdor sifatida tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, “Boburnoma” asari Boburning siyosiy qarashlari, tarixiy-geografik bilimlari va davlat boshqaruvi tajribasini o‘rganish uchun noyob manba hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- Tarixiy-tahliliy metod — Bobur yashagan davr geografik tasavvurlarini o‘rganishda;
- Manbashunoslik metodi — “Boburnoma” asaridagi geografik ma’lumotlarni tahlil qilishda;
- Taqqoslash metodi — Bobur bergan tavsiflarni zamonaviy geografik bilimlar bilan solishtirishda;
- Hududiy yondashuv — Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston hududlarining geografik xususiyatlarini aniqlashda.

Asosiy manba sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari, shuningdek, bobur shunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari foydalanildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Bobur geografiyani faqat tasviriy fan sifatida emas, balki amaliy va siyosiy ahamiyatga ega ilm sohasi sifatida tushungan.

Tabiiy geografik qarashlari. Bobur asarlarida tog‘lar, vodiylar, cho‘llar, daryolar va iqlim sharoitlari aniq va tizimli tarzda bayon etiladi. Masalan, Farg‘ona

vodiysi, Hisor tog‘lari, Amudaryo va Sirdaryo havzasi, Kobul vodiysi hamda Hindiston tekisliklari haqidagi tavsiflar ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi.

U iqlimning xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini ham qayd etib, ayrim hududlarning dehqonchilik yoki chorvachilik uchun qulayligini asoslab beradi.

Gidrografik va relef tavsiflar. Bobur daryolarning oqim yo‘nalishi, suv miqdori va ahamiyatini batafsil tasvirlaydi. Ayniqsa, Amudaryo, Kabul daryosi va Hind daryosi haqidagi ma’lumotlari tarixiy geografiya uchun muhim hisoblanadi.

Aholi va xo‘jalik geografiyasi. Bobur aholi joylashuvi, shaharlar va qishloqlarning tabiiy sharoit bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu esa uni iqtisodiy va aholi geografiyasining dastlabki unsurlarini tushungan mutafakkir sifatida baholash imkonini beradi.

Boburning geografik qarashlari Sharq geografiya maktabi an’analari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni yangi empirik kuzatuvlar bilan boyitgan. Uning tavsiflari ko‘pincha shaxsiy kuzatuvlarga asoslangan bo‘lib, bu esa ularni yuqori ishonchlilik darajasiga olib chiqadi.

Bobur geografiyani davlat boshqaruvi va harbiy strategiya bilan chambarchas bog‘lab qaragan. Hududlarning tabiiy sharoitini bilish harbiy yurishlarni rejalashtirish, aholi bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va iqtisodiy siyosatni belgilashda muhim omil bo‘lgan.

Zamonaviy tarixiy geografiya nuqtai nazaridan qaralganda, Bobur asarlari kartografik va hududiy tahlil uchun muhim manba bo‘lib, ko‘plab geografik atamalar va hududiy tasniflarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Bobur 1483-yil Andijon shahrida tug‘ilib, yoshligidan murakkab siyosiy muhitda voyaga yetdi. Otasi Umarshayx Mirzo Farg‘ona vodiysida hukmronlik qilgan temuriy hukmdor bo‘lib, Bobur 12 yoshida taxtga o‘tirishga majbur bo‘ldi. Bu holat Boburning erta siyosiy yetuklashuviga sabab bo‘ldi.

Farg‘ona, Samarqand va Toshkent atrofidagi siyosiy kurashlar Bobur uchun muhim tajriba maktabi bo‘ldi. U o‘z asarida bu jarayonlarni ochiq va tanqidiy ruhda tasvirlab, hukmdorlar o‘rtasidagi nizolar, xiyonatlar va diplomatik munosabatlarni

real tarixiy faktlar asosida bayon etadi. Bu esa Boburning voqealarni chuqur siyosiy tahlil qila olganini ko‘rsatadi.

Bobur siyosiy faoliyatida nafaqat harbiy kuch, balki ittifoqlar, kelishuvlar va diplomatik yo‘llarni ham muhim deb bilgan. Uning siyosiy qarorlarida pragmatizm va real vaziyatni hisobga olish ustuvor bo‘lgan.

Boburning davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari

Bobur davlat boshqaruvida adolat, tartib-intizom va xalq manfaatini ustuvor qo‘ygan hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi. “Boburnoma”da u hukmdorning asosiy vazifasi — mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash ekanini ta’kidlaydi.

Bobur davlatni boshqarishda:

soliqlarni tartibga solish, harbiy kuchni mustahkamlash, hududlarni aniq ma’muriy bo‘linmalarga ajratish, mahalliy aholining urf-odatlarini hisobga olish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratgan.

Hindistonda Bobur asos solgan Boburiylar davlati qisqa fursatda kuchli markazlashgan imperiyaga aylana boshladi. Bu jarayonda Boburning siyosiy tafakkuri, boshqaruv tajribasi va strategik qarorlari muhim rol o‘ynadi.

Boburning siyosiy tafakkurida geografik bilimlarning o‘rni

Bobur geografiyani chuqur bilgan hukmdor sifatida ajralib turadi. U o‘z asarida tog‘lar, daryolar, iqlim, o‘simlik va hayvonot dunyosi haqida batafsil ma’lumotlar keltiradi. Bu ma’lumotlar nafaqat tasviriy, balki amaliy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Hududlarning tabiiy sharoitini bilish Z.M.Bobur uchun:

- harbiy yurishlarni rejalashtirish,
- aholi joylashuvini aniqlash,
- xo‘jalik faoliyatini rivojlantirish uchun muhim vosita bo‘lgan.

Masalan, Hindiston iqlimi va yer unumdorligi haqidagi kuzatuvlari Boburning iqtisodiy siyosatini belgilashda asos bo‘lib xizmat qilgan. Bu holat Boburning siyosiy tafakkuri geografik bilimlar bilan uzviy bog‘langanini ko‘rsatadi.

Bobur — sarkarda va strateg. Bobur o‘z davrining eng iste’dodli harbiy yetakchilaridan biri edi. Panipat (1526) va Xonua janglarida erishilgan g‘alabalar Boburning harbiy strategiya va taktika borasidagi ustunligini yaqqol namoyon etdi.

U janglarda:

- zamonaviy qurol-aslahalardan foydalanish, joy relefini hisobga olish,
- qo‘shin tuzilishini to‘g‘ri tashkil etish kabi ilg‘or usullarni qo‘llagan.

Bu g‘alabalar faqat harbiy muvaffaqiyat emas, balki Boburning siyosiy tafakkurining mahsuli bo‘lib, Hindistonda yangi siyosiy tuzum barpo etilishiga olib keldi.

Bobur merosining siyosiy ahamiyati. Bobur qoldirgan siyosiy meros nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etdi. Boburiylar davlati Hindistonda uzoq vaqt hukmronlik qilib, siyosiy barqarorlik, madaniy taraqqiyot va ilm-fan rivojiga zamin yaratdi.

Boburning siyosiy qarashlari bugungi kunda ham:

- davlat boshqaruvi, hududiy siyosat, madaniyatlararo integratsiya masalalarida muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Zahiriddin Muhammad Bobur — ko‘p qirrali shaxs bo‘lib, uning siyosiy faoliyati tarix, adabiyot va geografiya bilan uzviy bog‘langan. U davlat arbobi sifatida adolatli boshqaruv, strategik fikrlash va ilmiy tafakkurni birlashtira olgan noyob hukmdor edi. Bobur merosi bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun boy manba bo‘lib, uning siyosiy qarashlari zamonaviy davlatchilik nazariyalari bilan hamohangdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur geografiya faniga bevosita ilmiy asar yozmagan bo‘lsa-da, uning asarlari tarixiy geografiya rivoji uchun beqiyos ahamiyatga ega. “Boburnoma”dagi tabiiy-geografik, iqlimiy va hududiy ma’lumotlar bugungi kunda ham ilmiy qimmatini yo‘qotmagan.

Boburning geografik qarashlari tarix, siyosat va adabiyot bilan integratsiyalashgan holda namoyon bo‘lib, uni tarixiy geografiya fanining muhim namoyandalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi. Uning ilmiy merosi

nafaqat o‘z davri, balki hozirgi zamon geografiya va tarix fanlari uchun ham muhim manba bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Zahiriddin Muhammad Bobur**. *Boburnoma*. — Toshkent: Fan, 1989.
2. **Axmedov B.** *Bobur va boburiylar davlati*. — Toshkent, 1990.
3. **Qayumov A.** *Bobur ijodi va ilmiy merosi*. — Toshkent, 2008.
4. Vikipediya // Boburnoma [Elektron resurs]. — URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Boburnoma
5. Uzsmart kutubxonasi // Boburnoma – Zahiriddin Muhammad Bobur [Elektron resurs]. — URL: https://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/4090-бобурнома-zahiriddin-muhammad-bobur.html

AFG‘ONISTON MADANIY MEROSI VA TARIXIY GEOGRAFIYASIDA «BOG‘I BOBUR»NING TUTGAN O‘RNI

To‘xtanazarov Abdusaid Qayumjon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan qurilgan Afg’onistondagi so’lim va o’ziga xos arxitektura yodgorligi bo’lmish “Bog’i Bobur”ning barpo etilish tarixi, ahamiyati va u bilan bog’liq ma’lumotlar tahlil qilindi.*

Kalit so’zlar: *“Bog‘i Bobur”, Abdur Rahmon Xon, Shoh Jahon, “Boburnoma”, YuNESKO.*

Аннотация: *В данной статье анализируются история создания, значение и связанные с ним исторические сведения об архитектурном памятнике «Баг-и Бабур» в Афганистане, основанном Захириддином Мухаммадом Бабуром.*

Ключевые слова: *«Баг-и Бабур», Абдуррахманхан, Шахджахан, «Бабурнаме», ЮНЕСКО.*

Abstract: *This article analyzes the history of the establishment, significance, and related historical information of Bagh-e Babur, a unique and picturesque architectural monument in Afghanistan founded by Zahiriddin Muhammad Babur.*

Keywords: *Bagh-e Babur, Abdur Rahman Khan, Shah Jahan, Baburnama, UNESCO.*

Kirish. Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyo sivilizatsiyalarining chorrahasida joylashgan bo‘lib, uning madaniy merosi ko‘p asrlik tarixiy-geografik jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir. Kobul shahrida joylashgan “Bog‘i Bobur” majmuasi ushbu merosning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XVI asr boshlarida Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan barpo etilgan mazkur bog‘ temuriylar davri landshaft me’morchiligi an’analarini Afg‘oniston hududida davom ettirgan noyob obyekt sifatida ajralib turadi.

“Boburnoma” asarida Kobulning tabiiy sharoiti, iqlimi, suv manbalari va relyefi haqida berilgan ma’lumotlar bog‘ning ilmiy asosda tanlangan geografik joylashuvini ko‘rsatadi [1]. Keyingi davrlarda Shoh Jahon va Abdurrahmonxon tomonidan amalga oshirilgan qayta qurish ishlari esa uning tarixiy davomiyligini ta’minlagan [2]. Hozirgi kunda “Bog‘i Bobur” xalqaro darajada e’tirof etilgan madaniy meros obyektlaridan biri sifatida baholanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — “Bog‘i Bobur”ning Afg‘oniston madaniy merosi va tarixiy geografiyasidagi o‘rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdir.

Asosiy qism. O’rta Osiyo hududidagi qadimgi Movarounnahr va Xurosonda madaniyat, adabiyot, xalq xo‘jaligi va ko’plab sohalarining turli xil tarmoqlarida ajdodlarimiz qilgan obodonchiliklarni juda ko‘p gapiramiz. Bobokalonimizning farmo-yishlari bilan qurilgan muhtasham binoyu madrasalar, karvon yo‘llariyu

katta-katta ko‘priklar, madaniy-maishiy obidalar hamda ko‘plab shaharlarda ul zotdan yodgorlik bo‘lib qolgan bog‘u rog‘lar haqida adiblarimiz, salohiyatli yozuvchiyu olimlarimiz o‘z asarlarida hikoya qilganlar. Sohibqiron hazratlarining bunyodkorlik yo‘lida qilgan ishlari uning avlodlariga an'ana bo‘lib qoldi. Bu an'anadan buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur ham chetda qolmagan. Bobur vafotidan keyin qariyb besh asr vaqt o‘tishiga qaramay, Bobur shoh hazratlari va uning avlodlaridan qolgan tarixiy va madaniy meros hanuzgacha jahon xalqlarini hayratga solib kelmoqda.

Sarkarda geografik bilimlarni puxta bilishi uning o’z yurishlari va qilgan islohotlarida yaqqol namoyon bo’ladi. Masalan, u Kobulga qadam ranjida qilar ekan, bu yerning iqlimi, o’simliklari, shifobaxsh suvlari ul zotni hayratda qoldirgani «Boburnoma» asarida batafsil bayon qilingan. Mazkur bog‘dagi yerning turli hududlaridan keltirilgan anvoyi gullar, turli xil mevali va manzarali daraxtlar haligacha poytaxt shaharga ko‘rk bag’ishlaydi. Bobur shoh umri davomida «Bog‘i Istolib», «Bog‘i Navro‘ziy», «Bo‘stonsaroy», «Chorbog‘», «Bog‘i Behishtiy», «Bog‘i Nur», «Bog‘i Xilvat» kabi ajoyib, betakror bog‘larni bunyod etgan. Shunisi hayratlanarliki, Kobulning geografik sharoitlaridan kelib chiqib, bog‘larda gullar, mevali va manzarali daraxtlar qisman takrorlangan bo‘lsa-da, ammo ayrim jihatlari bilan keskin farq qilgan. Bu bog’larga ko’plab mamlakatlardan keltirilgan anor, olma, o’rik, uzum, anjir kabi sarhil mevalar ko’paytrilgan. Afsuski, bu bog‘larning aksariyati hozirgi kunda yozma manbalardagina qolgan.

Bog‘i Bobur Afg’oiston poytaxti – Kobul shahrida joylashgan bo'lib, o'z davrining mukammal qurilgan noyob arxitektura inshootlaridan biri bo'lgan. Bog‘i Bobur (*pushtun va forschada “bạgẖ bạbr”* – Bobur bog‘i va Bobur bog‘lari) buyuk imperiya asoschisi, shoir va sarkarda Bobur nomi bilan atalgan. Boburning bog'dorchilikka bo’lgan ulkan mehri bog’ning barpo etilishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bog‘i Bobur mamlakatning diqqatga sazovor joylaridan biri hisoblanib, o'tmishda unda ko'plab noyob o'simliklar yetishtirilgan. Ular qatorida avval Afg’oniston hududida umuman uchramagan turli xil mevalar, poliz ekinlari va boshqa ko'p navlar bor bo’lgan. [3]

Ushbu bog’ Boburning bir necha bog‘laridan biri bo’lgan. U umri davomida dam olish va ijod qilishi uchun bu sayrgohni oxirgi dam olish joyi sifatida tanlagan. Dastlab Agraga dafn etilgan Boburning jasadi 1540-yillarda ushbu bog‘ga dafn etilgan. Bog‘ Kobulning janubi-g‘arbiy qismidagi tog‘ yonbag‘rida 15 pog‘onali terrasalardan iborat bo‘lgan. Uning o'qi Makka shahri tomon qaratilgan. Bobur qabri bog’ning o‘n to‘rtinchi ayvonida joylashgan bo‘lib, dastlab oq marmar bilan o‘ralgan. Qabrning janubi-g‘arbida, keyingi pastki ayvonda Shoh Jahon 1645-1646-yillarda kichik masjid qurdirgan. Shuningdek, Shoh Jahon bog‘ning markaziy o‘qi orqali oqib o‘tadigan oldingi suv kanallarini qayta qurdi va bog‘ning pastiga karvonsaroy bozorini qo‘shgan. [4]



Rasm: Bog'i Bobur. Kobul shahri

Manba: https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/b/b6/Babur_Gardens.jpg

Bog‘ o’sha davrlarda bir necha hukmdorlarning dam olish maskani sifatida foydalanilgan, biroq sulola Kobul ustidan nazoratni yo‘qotib qo‘yganidan keyin bog’ vayronaga aylangan. Afg’oniston amiri Abdur Rahmon Xon XX asrning boshlarida ko‘p yerlarni Yevropa arxitekturasiga mos tarzda tiklaydi. 1930-yillarda jamoatchilikni kirishiga ruxsat berilgan, ammo fuqarolar urushi paytida bog'ning ko’p joyi vayron qilingan va ko'plab daraxtlar o'tin uchun kesilgan. Bog‘ atrofi baland devorlar bilan o‘ralgan bo‘lib, mahalliy aholi tomonidan qayta tiklangan. Tashrif buyuruvchilarni ziyoratchilar markazi sifatida ochilishi rejalashtirilgan yirik an'anaviy karvonsaroy kutib oladi. Karvonsaroy 1640-yillarda kambag'allar uchun

boshpana sifatida qurilgan xuddi shu hududdagi eski binoning o’rnida turibdi. Karvonsaroydan oq marmar suv yo’li bo'ylab ayvonlarga ko'tariladi. Ikkala yon tomonda maydonchalar o't o'simliklar va ko'chatlar ekilib, bezatilgan. Ekish uchun tanlangan ko‘plab turlar, jumladan, yong‘oq, olcha, behi, tut va o‘rik daraxtlari “Boburnoma”da alohida qayd etilgan [5].



Rasm: Bobur maqbarasi. Kobul, Afg'oniston. 1922-yil

Manba: https://historyofpashtuns.blogspot.com/2021/04/tomb-of-mughal-king-babur-kabul.html

Forslar, temuriylar va mo‘g‘ullar bog‘larida bog‘dorchilik barpo etishda umumiylik va bog’liqlikni ko’rish mumkin. Bog'i Boburga keladigan bo’lsak, bu, birinchi navbatda, podshohning tarjimai holi bo'lib, unda u o'simliklarni, botanikaga oid kitoblarni va miniatyura rasmlarini aniq aytib beradi. Taxmin qilish mumkinki, meva va boshqa daraxtlar va butalar, o'tlar va gullar bilan bezatilgan bog’ o‘zining tarixiy ahamiyatini hisobga olib, 2009-yilda YuNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan [6].

Hamma davrlarda bunyodkorlik kishilari va ular yaratgan san’atlar e’zoz va ehtiromda bo’lib kelgan. Qurilgan muhtasham inshootlar, hozirgi kunda ham o’z salbatini saqlab kelayotgan shahar arxitektura yodgorliklari, ravon yo‘llar asrlar o‘tsa ham o‘sha davrning ezgu niyatlari, chekkan tashvishlar va orzu umidlaridan darak berib turgan, insonlar tomonidan qadrlangan. Zahiriddin Bobur ham shubhasiz, shunday yuksak ardoqqa loyiq. Hayotlik paytidayoq uning qilgan bunyodkorlik ishlari unga xalq mehrini qozonish, mislsiz shon-shuhrat keltirgan edi.

Bugungi kunda esa, bu ezgu ishlari yanada haybat, ko‘rkamlik kasb etib, Sharq sivilizatsiyasining iftixoriga aylangan desak hech mubolag’a bo’lmaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Bog‘i Bobur” Afg‘oniston hududidagi nafaqat muhim me’moriy yodgorlik, balki tarixiy-geografik va madaniy landshaftning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning Kobul vodiysining janubiy yonbag‘rida, tabiiy relyef va suv resurslari imkoniyatlarini hisobga olgan holda barpo etilishi Boburning chuqur geografik tafakkurga ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Bog‘ning terrasalangan tuzilishi, suv oqimini tabiiy gradiyent asosida taqsimlash tizimi hamda atrof-muhit bilan uyg‘unligi Sharq bog‘sozlik an’analarining ilmiy asoslangan namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, “Bog‘i Bobur”ning turli tarixiy davrlarda qayta tiklanishi va saqlab qolinish jarayonlari uning Afg‘oniston siyosiy va madaniy hayotidagi ramziy ahamiyatini yanada mustahkamlagan. Mazkur obyekt temuriylar davri landshaft madaniyatining davomiyligini ifodalab, mamlakatning tarixiy-geografik identitetini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan u milliy meros obyekti bo‘lish bilan birga, mintaqaviy sivilizatsion jarayonlarning moddiy guvohi sifatida ham baholanadi.

Bundan tashqari, “Bog‘i Bobur” bugungi kunda madaniy turizm, tarixiy landshaftlarni muhofaza qilish va urbanistik rejalashtirish jarayonlari uchun ham ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Uning restavratsiya tajribasi tarixiy bog‘-landshaft majmualarini saqlash va tiklash bo‘yicha xalqaro amaliyotda muhim model vazifasini o‘tamoqda. Shu sababli mazkur yodgorlikni o‘rganish nafaqat tarixiy-geografik tadqiqotlar, balki zamonaviy madaniy meros boshqaruvi va barqaror rivojlanish konsepsiyalari nuqtai nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Bobur Z. M.** *Boburnoma*. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002.
2. **Dale S. F.** *The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India*. — Leiden: Brill, 2004.

3. **Воропаев А. И.** (экономика) // Исландия — Канцеляризмы. — М.: Большая российская энциклопедия, 2008. — С. 339. — (Большая российская энциклопедия: в 35 т. / гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004—2017, т. 12). — ISBN 978-5-85270-343-9.
4. **Ball Warwick** *The Monuments of Afghanistan: History, Archaeology and Architecture*. — London: I.B. Taurus & Co. Ltd., 2008.
5. Babur's Gardens, Park in Kabul [Elektron resurs]. — URL: https://www.lonelyplanet.com/afghanistan/kabul/attractions/baburs-gardens/a/poi-sig/1107698/355754
6. Bagi Babur [Elektron resurs]. — URL: https://whc.unesco.org/en/tentativelists/5469/

BABUR'S POLITICAL THOUGHT: GOVERNANCE, DIPLOMACY, MILITARY STRATEGY, AND LEGAL PRINCIPLES

STRATEGY FOR WARFARE DURING THE BABURI ERA: CENTRALIZATION AND REGIONAL POLICY

Jumayev Akmal G‘ulom o‘g‘li
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan

Abstract: *The purpose of this article is to analyze the centralization and regional policy aspects of the strategy of conducting war during the Babur period. The study shows the interaction of central and regional forces in the effective functioning of the Babur state administration and military system, and also determines the impact of these factors on combat success. This study is of great historical importance in understanding the mechanisms of modern military and political governance.*

Keywords: *Babur era, warfare strategy, centralization, regional policy, military administration, state governance, Timurid military system, command structure, political authority, combat effectiveness, early modern warfare, Central Asian history.*

Аннотация: *Цель данной статьи — анализ аспектов централизации и региональной политики в стратегии ведения войны в период правления Бабура. Исследование показывает взаимодействие центральных и региональных сил в эффективном функционировании государственной администрации и военной системы Бабура, а также определяет влияние этих факторов на успех в боевых действиях. Данное исследование имеет большое историческое значение для понимания механизмов современного военно-политического управления.*

Ключевые слова: *эпоха Бабура, стратегия ведения войны, централизация, региональная политика, военное управление, государственное управление, тимуридская военная система, структура командования,*

политическая власть, боевая эффективность, раннее новое время, история Центральной Азии.

Annotatsiya: *Ushbu maqolaning maqsadi Bobur davridagi harbiy yuritish strategiyasining markazlashuv va hududiy siyosat jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda Bobur davlat boshqaruvi va harbiy tizimining samarali faoliyatida markaziy hamda hududiy kuchlarning o‘zaro hamkorligi yoritilib, ushbu omillarning jangovar muvaffaqiyatga ta’siri aniqlanadi. Mazkur tadqiqot zamonaviy harbiy va siyosiy boshqaruv mexanizmlarini tushunishda muhim tarixiy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Bobur davri, harbiy strategiya, markazlashuv, hududiy siyosat, harbiy boshqaruv, davlat boshqaruvi, temuriylar harbiy tizimi, qo‘mondonlik tuzilmasi, siyosiy hokimiyat, jangovar samaradorlik, erta yangi davr harbiyati, Markaziy Osiyo tarixi.*

The Mughal Empire and its Historical Context. The Mughal Empire was a period of imperial power in southern Central Asia and India. During this period, Amir Temur's successor, Babur, led major military campaigns in India and established the Mughal Empire. In historical context, the Mughal Empire is a period of feudal fragmentation, major territorial rivalries, and regional politics (Richards, J.F. The Mughal Empire, 1993). During this period, military strategy was reinforced by centralized legal and administrative systems, and new military methods and distinctive regional politics were developed.

General description of the strategy of warfare.

The strategy of warfare of the Baburians was based on centralized control, a unified system of military services, as well as coordination with regional commanders. They devoted a lot of time and resources to preparing for military campaigns, managing large armies, and capturing strategic territories. In addition, in the military strategy of the Baburians, the socio-economic situation of the population and regional politics became an integral part of the strategy (Mustafayev, E., Military Strategy in the Age of the Baburians, 2018).

Main features of the Mughal military system.

Centralization of military organization: The military system during the Mughal period was highly centralized. The ruler and his close associates were directly responsible for making major decisions and directing military operations. The central authority regulated the work of regional commanders and supervised their activities. Military campaigns and military operations were conducted under unified commands (Richards, J.F., The Mughal Empire, 1993). This centralized period allowed for rapid decision-making and efficient allocation of resources.

Military personnel and management system.

Military personnel were often appointed as the founders of the land system during the Mughal rule, based on feudal principles. Personnel invited to military service were divided into separate ranks in the army, and they were allocated positions and plots of land. The military management system was hierarchical, reinforced by supervision from high-ranking commanders to ordinary soldiers (Kumar, S., Military System of Mughals, 2008). Through this system, the fighting forces were effectively managed and military discipline was ensured.

Armament and military equipment (related to socio-economic foundations).

During the Mughal era, firearms (muskets, ropes) and cannons were widely used in armaments. These depended on economic opportunities, and weapons production and supply were developed in cities and factories, where they were centralized. On a socio-economic basis, through the support of landowners and the state, military equipment was modernized and combat effectiveness increased (Findly, E.B., The Mughal Empire: Economy and Military, 1988). The development of military equipment was also closely related to centralized government policies and the distribution of economic resources.

War Strategy – Centralization.

Role of Central Government in Military Processes: In the Baburian military system, the central government strictly controlled military processes. Decisions were made directly by the ruler, Babur, and there was a system of administration subordinate to him. Military campaigns were centrally managed, from planning to

the appointment of commanders. This centralization allowed for quick and precise decisions in war (Richards, The Mughal Empire, 1993).

Babur's unified command and control mechanism.

Babur himself was the sole commander-in-chief of all military operations. A centralized unified command system was formed at the highest level of military administration, which ensured Babur's complete control over his commanders and warriors. This was necessary for his simultaneous coordination of actions over a large geographical area (Kumar, Military System of Mughals, 2008).

A system of centralized management and supply of resources.

Food, weapons, and other resources needed for Persian wars and military campaigns were managed and supplied through a centralized system. Landowners and local leaders were responsible for collecting resources and directing them to military needs in accordance with the order established by the state. This system was successfully used by Babur and his successors, ensuring a stable supply of military forces (Findly, The Mughal Empire: Economy and Military, 1988). Examples: Babur's campaigns in Khuroshjod and India.

- In the Khuroshjod campaign, Babur defeated his opponents in Central Asia through his centralized command and military organization. He consolidated his position through his rapid movements and a system of centralized management of resources;

- In the Indian campaigns, Babur's centralized management and unified command were especially effective. At the Battle of Panipat in 1526, it boasted a centralized military system and effective use of firearms (muskets). The centralized distribution of resources provided a strategic advantage in battle (Richards, 1993; Kumar, 2008).

The interaction between centralization and regional politics.

The role of coordination and coherence in strategy: The effectiveness of political and military strategy during the Mughal period was based on a high level of coordination and coherence between the central government and regional administrations. The central government carefully coordinated the activities of

regional rulers and local leaders to maintain the political balance of the country. This coherence played an important role in wars and political stability (Richards, The Mughal Empire, 1993).

Balancing strategy - a strategy of coordination between the center and regional powers. In the process of consolidating their rule, the Baburs paid special attention to creating a balance of power between the center and the region. The balance was maintained by preventing conflicts between regional rulers and by making compromise agreements with them. The center did not limit the independence of regional leaders, but maintained its position and unified control. This balancing strategy was reflected in military successes, especially in Babur's Indian campaigns (Kumar, Military System of Mughals, 2008).

Analysis of military successes during the Mughal era.

A key factor in military success was the balance between the power of the central government and the pooling of regional resources. Babur's military campaigns, including the Battle of Panipat in 1526, were the result of strong coordination between the center and the region. He achieved his goals by subordinating regional forces to a central command, pooling resources, and coordinating battle tactics. This balance and centralization played a crucial role in the political stability and success of the Mughals on the battlefield (Findly, The Mughal Empire: Economy and Military, 1988).

The uniqueness of Babur's strategy and success factors.

Babur's strategy is characterized by its strong centralized administration and coordination between regional powers. Babur's military campaigns and political activities were effective by ensuring balance and cooperation with local forces, along with strong central administration. He achieved success through creative use of combat tactics and a high level of strategic coordination (Richards, 1993; Findly, 1988).

Effective combination of centralization and regional politics.

In the Babur Empire, the balance of power and political cooperation between the central government and regional leaders ensured stability and enabled long-term

rule. The center succeeded in pooling resources and uniting regional forces to achieve its main political and military goals, without limiting regional independence. This harmony became an important factor in state administration and military strategy (Kumar, 2008).

Historical Lessons for Modern Strategies.

The experience of the Baburs demonstrates the need for modern strategic management to balance centralization and regional autonomy, maintain political balance, and effectively manage resources. Their strategy emphasizes the importance of harmony and balance in achieving political stability and military success. Even today, taking into account regional interests and strengthening central control in state governance remains relevant (Findly, 1988; Richards, 1993).

REFERENCES

1. **Richards J. F.** *The Mughal Empire*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1993.
2. **Kumar S.** *Military System of Mughals*. — Delhi, 2008.
3. **Findly E. B.** *The Mughal Empire: Economy and Military*. — University of Illinois Press, 1988.
4. **Erkin Mustafayev** *Military Strategy in the Baburian Period*. — 2018.
5. **John F. Richards** *The Mughal Empire*. — 1993.
6. **Mukimiy Tashpulatov** *Centralization and Regional Governance in Central Asia*. — 2020.
7. **Aziz Ahmad** *Army and State in Mughal India*. — 1972.

Babur's heritage is not merely the pages of history, but the living memory of an entire civilization shaped by the harmony of knowledge, intellect, and culture.

Egamberdi Iskandarov

Babur's Heritage

- FEBRUARY 14, 2026 -